


I.XALISMATOV, N.BOTIROVA,  
N.AXMEDOVA, SH.SHOMURODOV

# NEFT VA GAZ KON GIDROGEOLOGIYASI



O'QUV QO'LLANMA

**O'BEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVASIYALAR VAZIRLIGI**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**I. XALISMATOV, N. BOTIROVA,  
N. AXMEDOVA, SH. SHOMURODOV**

# **NEFT VA GAZ KON GIDROGEOLOGIYASI**

**O'QUV QO'LLANMA**

*O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif, fan va maxsus ta'lif vazirligi tomonidan  
o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*

**Toshkent  
“Ma'rifat”  
2023**

**UO'K: 556.3:553.982.2(075.8)**

**KBK: 26.22ya73**

**33.36ya73**

**N 50**

**Xalismatov I., Botirova N., Axmedova N., Shomurodov Sh. Neft va gaz konlari gidrogeologiyasi. O'quv qo'llanma. –T.: “Ma'rifat”, 2023. 160 bet.**

Mazkur o'quv qo'llanmada neft va gaz konlaridagi yer osti suvlarini kimyoviy tarkibini aniqlash va uni xar xil usullarda ifodalash hamda yer osti suvlarini bo'yicha gidrogeologik xaritalar va quduqlarni kesimini, suvlarning gazlarga to'yinishi, yoshini aniqlash, neftgaz uyumlari bilan tutash yuzasining qiyaligini va pe'zometrik satxni orasidagi bog'liqligi va suvli qatlamlarni rejimini miqdoriy hisoblash usullari hamda neft va gaz uyumlarini mavjudligini va ularni saqlanish sharoitlarini ko'rsatgichlari keltirilgan.

O'quv qo'llanma 60721800 – Neft va gaz ishi (neft va gaz konlari geologiyasi) bakalavr ta'lif yo'nalishi talabalari uchun mo'ljalangan, shuningdek o'quv qo'llanmadan neft va gaz konlarini izlash, razvedka qilish va ishlatalish sohasidagi mutaxassislar ham foydalaniishlari mumkin.

**UO'K: 556.3:553.982.2(075.8)**

**KBK: 26.22ya73**

**33.36ya73**

**N 50**

### **Taqrizchilar:**

**O.Qarshiyev** – “Neft va konlarini geologiyasi hamda razvedkasi ilmiy tadqiqot instituti” DK bosh direktori, PhD

**A.A.Zakirov** – “Neft va gaz konlari geologiyasi va geofizika” kafedrasи professori, t.f.d.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining 2022 yil 30 dekabrdagi 01/9-05-951-sonli buyrug'iga asosan nashr etishga tavsiya etilgan. Ro'yhatga olish raqami 02-2022-0013.

**ISBN: 978-9943-9434-7-6**

**© “Ma'rifat” nashriyoti, Toshkent, 2023 y.**

# MUNDARIJA

Kirish	6
1. SUVLARNI TARKIBINI ANIQLASH	15
1.1. Suvlarni gidrokimyoviy asoslash	15
1.2. Gidrogeologiya tadtiqotlardagi tahlillar	22
1.3. Qatlarni suvlari namunalarining umumiy kimyoviy tahlili	22
2. SUVLARNING KIMYOVIY TARKIBINI IFODALASH	26
2.1. Suvlarning kimyoviy tarkibini ifodalash usullari	26
2.1.1. Kurlov formulasi bo'yicha ifodalash;	31
2.1.2. K.R.Rodjers grafigi bo'yicha suvlarning tarkibini ifodalash;	32
2.1.3. N.I.Tolstixin grafigi bo'yicha suvlarning tarkibini ifodalash;	32
2.1.4. O.A.Alehin tasnifida tabiiy suvlarni tarkibini ifodalash;	33
3. SUVLARNING TASNIFI	34
3.1. Qatlarni suvlaring tasnifi	34
3.1.1. Palmer bo'yicha suvlarning tasnifi	34
3.1.2. V.A.Sulin bo'yicha suvlarning tasnifi	36
4. FIL'TRATSIYA OQIMI ELEMENTLARI	42
4.1. Yerosti suvlari va nimakoblarning harakatlanishi	42
4.2. Fil'trasiya oqimi elementlari: Darsi qonuni, p'ezometrik bosimning sxemasi, sizish tezligi	43
5. BOSIMNI ANIQLASH	46
5.1. Keltirilgan bosimni aniqlash	46
6. YER OSTI SUVLARI OQIMLARI	52
6.1. Yer osti suvlari oqimining yo'nalishi, hidrologik qiyaligini va sarfini aniqlash	52
7. NEFTGAZLI HAVZALARDA SUVLARINING ERITMASI	55
7.1. Neftgazli havzalardagi suvli eritmalar xarakatini o'rganish metodlari	55
8. YER OSTI SUVLARINING GEOTERMASI	57
8.1. Yer osti suvlarning geotermik hisoblash	57
9. YER OSTI SUVLARIDA IOD VA NODIR ELEMENTLAR	64
9.1. Yer osti suvlarda iod va nodir elementlar	64
10. GIDROGEOLOGIK XARITALAR	70
10.1. Gidrogeologik xaritalar tuzish	70
11. QUDUQLARNING KESIMIDA GIDROGEOLOGIK KO'RSATKICHLAR	74
11.1. Quduqlarning kesimini gidrogeologik o'rganish	74
12. SUVLARDA ERIGAN GAZLAR	75
12.1. Suvlarda erigan gazlarning to'yinish bo'yicha bosimni aniqlash	75
13. YER OSTI SUVLARIDA DAVRIYLIK	80
13.1. Yer osti suvlarning yoshini aniqlash	80
14. NEFTSUUV TUTASH YUZALARI BO'YICHA BOG'LILQLIK	84
14.1. Neftsuv tutash yuzasining qiyaligi va p'ezometrik satx orasidagi bog'lilikni aniqlash	84
15. KONLARDAGI QATLAM SUVLARI SATXLARI	92
15.1. Konlardagi qatlarni suvlarning satxlarini aniqlash	92
16. NEFTGAZ SUVLI QATLAMLARNING REJIMI	101

16.1.	Neftgaz suvli qatlamlarning rejimini miqdoriy hisoblash	101
17.	ER OSTI SUVLARIDA NEFT VA GAZ UYUMLARI	103
17.1.	Neft va gaz uyumlarining mavjudligini aniqlash	103
17.2.	Neft va gaz uyumlarini saqlanish sharoitlarini ko'rsatkichlari	106
17.3.	Neft va gaz tutqichlarini mayjudlik ko'rsatkichlari	118
17.4.	Neft va gaz izlashda foydalaniladigan gidrogeologik ko'rsatkichlarning tasnifi	121
17.5.	Neft va gaz izlashdagi gidrogeologik tadqiqotlar turlari va neft-gazlilik istiqbolini baholashda gidrogeologik ko'rsatkichlardan foydalanish	122
18.	NEFT VA GAZ UYUMLARIDA GIDROGEOLOGIK TADQIQOTLAR	126
18.1.	Konlardagi qatlam suvlarining tasnifi	126
18.2.	Neft va gaz uyumlari chegarasidagi kontur suvlarining harakati	130
18.3.	Neft va gaz uyumlarini burg'lashdagi gidrogeologik tadqiqotlar	133
18.4.	Neft va gaz uyumlarini o'zlashtirish jarayonidagi gidrogeologik kuzatuvlar va tadqiqotlar	134
18.5.	Neft va gaz uyumlarini razvedka qilishda gidrogeologik ma'lumotlardan foydalanish	137
18.6.	Kon-geofizik tadqiqotlarni talqin qilishda gidrogeologik ma'lumotlarning ahamiyati	140
18.7.	Neft-gazsuqli qatlamlarning turli rejimlaridagi gidrogeologik sharoitlar	142
18.8.	Neft va gaz uyumlarini o'zlashtirish loyihasini tuzishda gidrogeologik ma'lumotlardan foydalanish	146
18.9.	Neft va gaz uyumlarini o'zlashtirishda gidrogeologik ma'lumotlardan va metodlardan foydalanish	150
	Ilovalar:	
Ilova 1.	G'arbiy Xakkul koni qatlam suvlarining kimyoviy va fizik xususiyatlari ma'lumotlari	153
Ilova 2.	Djankara koni qatlam suvlarining kimyoviy va fizik xususiyatlari ma'lumotlari	156
Ilova 3.	Doston koni qatlam suvlarining kimyoviy va fizik xususiyatlari ma'lumotlari	158
Ilova 4.	G'arbiy Alan koni qatlam suvlarining kimyoviy va fizik xususiyatlari ma'lumotlari	160
Ilova 5.	Girsan koni qatlam suvlarining kimyoviy va fizik xususiyatlari ma'lumotlari	163
Ilova 6.	Shimoliy Berdax koni qatlam suvlarining kimyoviy va fizik xususiyatlari ma'lumotlari	165
	Foydalilanigan adabiyotlar	167

## Atama va ta'riflar

**Umumiy gidrogeology** - tabiatda of anger suvlarinnig paydo bo'lish, tarqalish, taksimlanish konuniyatlarini.

**Er osti suvlari dinamikasi** - erosti suvlarining tabiy holatda harakatlanishi, silzhishi va odamlarning engineer faoliyati tasirida ularning uzgarishi.

**Mineral suvlar gidrogeologysi** - shifobakhsh khususiyatiga ega bulgan erosti suvlarining khosil bulishi, harakatlanishi, temperaturesi va kimyoiy tarkibini o'rganish.

**Radiogidrogeology** - tarkibida radioactive moddalar (uranium, radium, radon) bulgan suvlarning hosil blushini, erosti suvlarida radioactive elementlarning to'planish sharaитini o'rganish.

**Miliоратив гидрогеология** - sugorilayotgan vayangi uzlashtirilayotgan maydonlardagi erosti suvlarining shakllanish va vaqt davomida o'zgarish konuniyatlarini belgilash.

**Gydroseismology** - erosti suvlarining kimyoiy tarkibini, physicist hususiyatlarini zilzila hodisasining taylorlanish, sodir bush davrlarida o'zgarishi konuniyatlarini.

**Technogenic gydrogeology** - odamlarning engineerlik faoliyati tasirida sanoat korhonalarini va turar-zhoy binolari zhoylashgan maidonlarda, shahar hududlarida, sugoriladigan erlarda, suv omborlari tasir zonlarida erosti suvlar sathining klarilishidan salbiy yurgodisalarining.

**Capillary suv** - (erkin yoki bush boglangan) zhins govaklarida bo'lib, ularni tulik t'ldirganda hydrostatic bosim bera oladi; kiman tuldirliganda esa meniscus (tortishish) kuchlariga buisunadi.

**Zeolite holatidagi suvlarga** - opal ( $\text{SiO}_2\text{nH}_2\text{O}$ ) misol bo'la oladi, mineralar tarkibidagi bundai suvlar 80-400°C temperature and azhralib chikadi. Minerallar tarkibidagi zeolite suvlar miqdori o'zgaruvchan bo'lib, ularni yutilgan suvlardan azhratish kiyin kechadi.

**Suvlar infiltration** - the atmosphere of yoginlari (yomgyr, kor, muz) suvlarining hamda er yuzasidagi dengiz, kul, daryo, va boshka suvlarning o'tkazuvachan yoki darzli tog zhinslariga shimalishidan yoki infiltration bulishidan paido buladi.

**Condensing suvlar** - xavo tarkibidagi suv burlarini tor zhinslari wa tuproqlar govaklariga Kirishi, suv burlarining Turlov temperaturaga ego bo'lgan zhinslarning yukori bosimli kismidan pastes bosimli kismiga xarakatlanishidan wa burlarning o'ta to'yinishi xisobiga suv tomchilariga aylanishidan xosil bo'ladi.

**Sedimentation suvlar** - cho'kindi khosil bo'lish zharayonida ular bilan birga paido bulgan suvlar. Cho'kindi to'planish xavzalarining geologist rivozhanish tarihida bundai suvlar saklanib koladi va o'zgarishlarga duchor bo'ladi. Yosh cho'kindilar (illar, claylar) bushh tuzilgan bo'lib, ularning govakligi 80-90% ha etadi.

**Endogen suvlar** - Katta chuqurliklarda khosil bulgan suvlar - endogen suvlar khali etarli darazhada xorganilmagan. Ular magma va uning mahsulotlaridan azhralib chikkan suv buglarining hamda gazlarning sovushidan hosil buladi.

## Kirish

Neft va gaz uyumlarining xosil bo'lishida yer osti suvlarning ahamiyati katta. Qatlama neft va gaz bilan birga joylashgan suvlar unga ta'sir etib, neftning safat va miqdoriy jixatidan o'zgarishiga sabab bo'ladi. Ba'zan neft va gaz uyumlari buzilib ketadi. Ma'lumki, bir neft gazli region hududida joylashgan neft va gaz konida turli gidrogeologik, gidrokimyoiy va gidrodinamik sharoitlar mavjud bo'lishi hamda bitta kon kesimidagi suvlar turli gazlar bilan to'yingan va xar xil turlarda bo'lishi mumkin. Neftgazli regionlarning geologik tuzilishining murakkabligi, turli tektonik strukturalar va xar xil fasial litologik sharoitlarning mavjudligi turli gidrokimyoiy va gidrodinamik sharoitlarni yuzaga keltiradi.

Neft va gaz uyumlari odatda artezian xavzalarda xosil bo'lib yer osti saqlagichlarda joylashgan. Xozirgi vaqtda ko'pgina tadqiqotlar neft uyumlarida quyidagi tabiiy rejimlarga ajratadilar:

- 1) suvbosimli rejim;
- 2) elastik rejim;
- 3) gazbosimli rejim;
- 4) erigan gaz rejimi;
- 5) gravitasion bosimli rejim.

Gidrogeologik nuqtai nazardan neft va gaz qatlamlarda quyidagi rejimlari mavjud:

- 1) qattiq suvbosimli;
- 2) tarang suvbosimli;
- 3) gaz rejimli.

Neft va gaz uyumlarining suvbosimli rejimlarda ular suvbosimli komplekslarning suvleri bilan bevosita bog'liq bo'lib, bir biriga tutashib turadi va bosim bilan ta'sir qiladi.

Neft va gaz konlarining xosil bo'lishida hamda buzilib ketishida gidrogeologik sharoitlar muhim axamiyat kasb etadi. Neft va gazlarning xosil bo'lish, to'planishi hamda tarqalib ketish jarayonlari bosimda oxirigacha yer osti suvleri mavjud muhitda sodir bo'ladi.

Demak, neft va gaz uyunlari hamda konlarining hidrogeologik sharoitlari yerosti suvlarining neft va gazlar bilan o'zaro kimyoviy fizik va mexanik ta'sirining maxsulidir.

Neft va gazlar to'planishi uchun turli agregat xolatdagi birlamchi neft va gaz yerosti suvlarini ta'sirida ko'chishi (emigratsiyasi) va siljishi (migratsiyasi) lozim. Hidrogeologik omillar ta'sirida neft va gaz to'plamlarining xosil bo'lishi (ayrim xollarda buzilishi) uchun o'ziga xos sharoitlar vujudga keladi. Shunga ko'ra neft va gaz uyunlarining xosil bo'lishi va buzilishi jarayonlarini o'rganish uchun yerosti suvlarini tarkibida erigan xolatdagi organik birikmalar va gazlarni hamda neft va gaz tutqichlaridagi hidrogeologik sharoitlarni o'rganish lozim.

O'quv qo'llanma neft va gaz konlarini izlash, razvedka qilish va qazib chiqarish mutaxassisliklarda bakalavr va magistr talabalariga hamda shu sohadagi ilmiy xodimlar va ishlab chiqarish xodimlari uchun amaliy masalalarni yechishda foydalanish uchun rejalashtirilgan. Talabalar qo'llanmadagi ilovalardan foydalanib tajriba ishlari va amaliy mashg'ulot topshiriqlarini real neft va gaz konlarida qatlam suvlarini taxlili asosida bajarishadi.

*Umumiy sharx* - Hidrogeologiya — litosferadagi erosti suvlarini hamda eritmalarini haqidagi fan. U geologiya fanining bir qismi bo'lib, erosti suvlarining hosil bo'lishi, yotish sharoiti, rejimi, fizik xossalari va kimyoviy tarkibini, ularning atmosfera va yer yuzasidagi suvlar bilan o'zaro bog'lilqining hamda suvlarning ifloslanish va zaxiralarining kamayib ketishidan muhofaza qilishni, shuningdek, xo'jalikdagi ahamiyatini (foydali qazilma konlarini qidirish hamda izlash darakchisi sifatida) va ulardan turli maqsadlarda foydalanishni o'rganadi. Hidrogeologiya fani dinamik geologiya, geokimyo, mineralogiya, fizika, matematika, meteorologiya, neft va gaz geologiyasi va boshqa fanlar bilan bog'liq.

Dinamik geologiya — litosferadagi suvlarning geologik faoliyatini; geokimyo — litosferada mavjud bo'lgan suvli muhitda kimyoviy elementlarning ko'chishini; mineralogiya — yer qa'ridagi suvli eritmalaridan ajralib chiqib, turli moddalar cho'kishidan mineral va rudalar hosil bo'lish jarayonlarini; hidrokimyo — suvli eritmalarining kimyoviy tarkibini, ularda erigan gaz, tuz va organik

birikmalarning turi hamda miqdorini o'rganadi. Gidrogeologiya fani quyidagi bo'lilmalarni o'zida ichiga oladi (N.A. Vsevoljskiy, 1991): umumiy gidrogeologiya – tabiatda erosti suvlarining paydo bo'lish, tarqalish, taqsimlanish qonuniyatlarini; erosti suvlari dinamikasi – erosti suvlarining tabiiy holatda harakatlanishi, siljishi va odamlarning injenerlik faoliyati ta'sirida ularning o'zgarishi; erosti suvlarini izlash va razvedka qilish – turli metodlar yordamida erosti suvlarini izlab topish, quduqlar burg'ilab o'rganish, ularning kimyoviy tarkibini va dinamik parametrlarini aniqlash, sug'orilayotgan va yangi o'zlashtirilayotgan maydonlarda erosti suvlarini shakllanishi va vaqt davomida o'zgarish qonuniyatlarini belgilash; mineral suvlar gidrogeologiyasi – shifobaxsh xususiyatiga ega bo'lgan erosti suvlarining hosil bo'lishi, harakatlanishi, temperaturasi va kimyoviy tarkibini o'rganish; gidrotermiya – erosti suvlarining temperaturasini chuqurlik bo'ylab o'zgarishi, ularning tog' jinslari, neft va gazlarga ta'sirini aniqlash; radiogidrogeologiya – tarkibida radioaktiv moddalar (uran, radiy, radon) bo'lgan suvlarning hosil bo'lishi, erosti suvlarida radioaktiv elementlarning to'planish sharoitlarini o'rganish; regional gidrogeologiya – erosti suvlarining er qobig'ining ma'lum bir regionlarida tarqalishi, yotish holati va hosil bo'lish qonuniyatlarini, shuningdek, ularning er qobig'i geologik strukturalari bilan bog'liqligini va xalq xo'jaligida bunday suvlardan foydalanish imkoniyatlarini o'rganadi. 1950–1960 yillarga kelib gidrogeologiya fanining yangi tarmoqlari taraqqiy etmoqda, chunonchi: meliorativ gidrogeologiya – sug'orilayotgan va yangi o'zlashtirilayotgan maydonlarda erosti suvlarining shakllanish hamda vaqt davomida o'zgarish qonuniyatlarini; gidroseysmologiya – zilzila hodisasi tayyorlanishi hamda sodir bo'lishi paytida erosti suvlarining kimyoviy tarkibi va fizik xususiyatlarini o'zgarish qonuniyatlarini; texnogen gidrogeologiya – odamlarning muhandislik faoliyati ta'sirida sanoat korxonalari va turar-joy binolari joylashgan maydonlarda, shahar hududlarida, sug'oriladigan erlarda, suv omborlari ta'sir zonalarida erosti suvlari sathining ko'tarilish sababidan salbiy hodisalar yuzaga kelishini o'rganadi. Shuningdek, keyingi vaqlarda gidrogeologiya fanining amaliy tarmoqlari tez rivojlanmoqda, chunonchi: turli foydali qazilmalar

(metallar)ni izlab topish bilan bog'liq bo'lgan izlov gidrogeologiyasi; er qa'ridagi termal suvlar va erosti bug'lari issiqligi energiyasidan foydalanish imkoniyatlarini o'rganuvchi energetika hidrogeologiyasi, va nihoyat, erosti suvlarining kimyoviy tarkibini tashqi omillar (turli kimyoviy, organik moddalar, erigan gazlar, neft mahsulotlari, qatlamga zaharli va sanoat chiqindi suvlarini haydash va b.) ta'sirida o'zgarishi va ifloslanishi sabablarini aniqlash hamda ularning sifati va tozaligini saqlash, muhofaza qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqish bilan shug'ullanuvchi ekologiya hidrogeologiyasi yuzaga keldi.

Neft va gaz hidrogeologiyasi katagenez jarayonida qatlamlardagi organik moddalardan suyuq va gazsimon mahsulotlarning (masalan, uglevodorodlar) hosil bo'lish, siljish, jins g'ovaklari va bo'shlqlarida to'planish, saqlanish va parchalanish masalalarini o'rganadi. Neft-gaz izlashda hidrogeologik ko'rsatkichlarni asoslash hamda neft va gaz konlarini o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lgan hidrogeologik muammolarni hal qilish bilan ham shug'ullanadi. Shunga ko'ra, neft va gaz hidrogeologiyasi nazariy neft-gaz hidrogeologiyasi, neft va gaz izlash hidrogeologiyasi hamda neft va gaz sanoati hidrogeologiyasiga bo'linadi. Yerosti suvlarining hosil bo'lishi, harakatlanishi va ulardan xalq xo'jaligida foydalanish ishlari tarixi uzoq o'tmish davrlari bilan bog'liq. Markaziy Osiyo, Yaqin va Uzoq Sharq mamlakatlarida bundan 3000–5000 yillar oldin sug'orish shaxobchalarini, kanallarni qurish, maxsus tunnellar va sopol quvurlar orqali erosti suvlarining uzatish ishlari amalga oshirilgan. Misr davlatida quduqlardan suvni er yuzasiga tortib chiqaradigan maxsus qurilmalar mavjud bo'lgan.

Yer qa'ridagi suvlarning paydo bo'lishi to'g'risidagi birinchi nazariy tasavvurlarni milloddan oldingi VII – VI asrlarda ishlab chiqishga harakat qilingan. Bu davrda Fales Miletksiy birinchilardan bo'lib, suv mavjudodlarning asosini tashkil qiladi deb hisoblagan. Uning taxminiga ko'ra, dengiz suvleri shamol ta'sirida Yer qa'riga shimaladi va tog' jinslari bosimi ostida er yuzasiga buloq ko'rinishida chiqadi. Tog' jinslaridagi suvlarning dengiz suvi hisobiga hosil bo'lishi to'g'risidagi bu g'oya nomukammal, sodda va noto'g'ri bo'lsada, keyinchalik u qadimgi yunon faylasufi Platon, rimlik Lukretsiy va Seneka hamda Uyg'onish

davrida – Leonardo da Vinchilar tomonidan takrorlandi. Ular erosti suvlarining harakatlanish mehanizmini tushuntirib beraolmadilar va Yer qa'ridagi chuchuk suvlarning dengiz suvlari bilan bog'liqligi haqida noto'g'ri xulosalar chiqardilar. Aristotel tomonidan Yer qa'ridagi suvlarning atmosfera suvlardan hosil bo'lishi to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlar yozib qoldirilgan. U jinslar ichidagi suvli eritmalarning tarkibi jinslar tarkibiga bog'liq (jins qanday bo'lsa, suv ham shunday bo'ladi) degan g'oyani ilgari suradi. Bunday tasavvurlar litosferadagi suvlarning, ayniqsa ularning chuchuk suvli qismining o'ziga xosligini va jinslarning suv tarkibiga ta'sirini bildiradi. Aristoteldan so'ng bu g'oya Vitruviy va Katta Pliniy tomonidan rivojlantirildi. VIII–XI asrlarga kelib Markaziy Osiyo, Eron, Ozarboyjon va boshqa mamlakatlar hududlarida yirik shaharlarni barpo bo'lishi, aholi sonining oshishi, sug'oriladigan erlarning kengayishi, maxsus suv yig'ish (sardoba) va suv uzatish inshootlarining (kanallar, ariqlar) qurilishi, ayniqsa erosti suvlarini toplash va er yuzasiga chiqarish uchun mo'ljallangan korizlar bunyod etilishi gidrogeologiya fanining rivojlanishiga turtki bo'ldi. O'sha davr olimlaridan Muhammad Ibn Muso al-Xorazmiy (780–847), Ahmad al-Farg'oniy (797–867), Abu Rayhon al-Beruniy (973–1048), Al-Farobi (873–950), Abu Ali ibn Sino (980–1037), eronlik M. Karolilar (1016 yil vafot etgan) asarlarida erosti suvlarining hosil bo'lishi, harakatlanishi, tarkibi va xususiyatlari to'g'risida qimmatli ma'lumotlar berilgan.

Abu Rayhon Beruniy ilmiy asarida (1001 y.) birinchilardan bo'lib, er qa'rida gidrostatik bosimning hosil bo'lish mohiyatini tushuntirib bergen. Tog' jinslari ichidan bosim ostida chiqayotgan qaynar buloqlar va bosimsiz chiqayotgan oddiy buloqlarning paydo bo'lish sabablarini to'g'ri tushuntirib bergen. Al-Beruniyning zamondoshi eronlik olim Karoli gidrogeologiyadan «Yerosti suvlarini qidirish ishlari» nomli mashhur amaliy qo'llanmasini yaratdi. Unda suvning tabiatdagi aylanma harakati; bosimsiz, bosimli va ustki suvlarning paydo bo'lishi hamda joylashishi; o'simlik turlariga qarab erosti suvlarining chuqurligini aniqlash va qidirish; erosti suvlarini dala sharoitida izlashning turlari; ichimlik suvlarning sifati va xususiyatlari haqida muhim, asosli ma'lumotlar keltirilgan. XVII asrning oxiriga

kelib, frantsuz tabiatshunos olimlari P.Perro va E.Mariott asarlarida Parij havzasidagi chuchuk artezian suvlarning genezisi (hosil bo'lishi) atmosfera suvleri bilan bog'liqligi aniq kuzatishlar va hisob-kitoblar orqali isbotlangan. 1674 yil P.Perroning «Buloqlarning paydo bo'lishi» nomli kitobi nashr qilindi. YuNYeSKO tomonidan kitob chop etilgan yil 300 yildan so'ng ilmiy gidrogeologiyaning boshlanish vaqt deb e'lon qilindi. XVIII asrning boshlarida gidrostatik bosimning paydo bo'lish nazariyasi al-Beruniydan 700 yildan so'ng italiyalik A. Vallisnieri tomonidan ishlab chiqildi. XIX asrga kelib geologiya fani tez taraqiy etaboshladi, gidrogeologiya fanining esa nazariy va amaliy yo'nalishlari rivojlandi. U.Smit, V.Severgin va boshqalar tomonidan hududlarning gidrogeologik sharoitlariga tavsif berildi, 1840 y. Parijda F.Arago rahbarligida chuqurligi 500 m bo'lgan quduq burg'ilandi.

Yer qa'ridagi suvlarni izlash bo'yicha qo'llanmalar tayyorlandi, birinchi gidrogeologik xaritalar tuzildi, aniq gidrokimyoiy tahlillar o'tkazildi. 1856 y. frantsuz injeneri A.Darsi Dijon shahrini suv bilan ta'minlashni tashkil etish jarayonida suyuqliklarning filtratsiya qonunini yaratdi va u gidravlika sohasidagi kashfiyot deb e'lon qilindi. Shundan so'ng, er qa'ridagi suvlar harakatini o'rganishda matematik metodlardan keng foydalana boshlandi. Darsi qonuniga ko'ra, vaqt birligi ichida filtratsiya bo'layotgan suv miqdori oqimning ko'ndalang kesim yuzi, filtratsiya koeffitsienti va bosim gradientiga to'g'ri proporsionaldir. XIX asrning oxiriga kelib 1887 y. frantsuz tilida (A.Dobre) va 1895 y. nemis tilida (I.Gaaz) gidrogeologiyadan dastlabki darsliklar yaratildi. Ushbu ishlarda gidrogeologiya atamasi qo'llanilmasada uning nazariy mazmuni yaratildi. A. Dobrenning darsligida paleogidrogeologiyaning ayrim muammolari keltirilgan. Shu vaqtga kelib Buyuk Britaniyada D.Lukas, Rossiyada N.A. Golovkinskiy tomonidan nashr qilingan kitoblarda gidrogeologiya atamasi qo'llanila boshladi. XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida cho'kindi havzalarida burg'ilangan neft quduqlarida katta chuqurliklarda ochilgan gorizontlardagi suvli eritmalar to'g'risida ma'lumotlar olindi. Avstriyalik G.Gyofer (1902), Rossiyalik N.I. Andrusov (1908), Amerikalik A. Leyn (1908) deyarli bir davrda ushbu suvlarning genezisi dengiz

suviniki bilan bir xil ekanligini isbotladilar. Oradan ming yillar o'tgandan so'ng uzoq o'tmishdagi tadqiqotchilarining sodda tasavvurlari qisman ilmiy isbotini topdi. Chuqur gorizontlardagi ushbu «neft» suvlari va namakoblarining tavsifi birinchi marta kanadalik T. Xant tomonidan berildi, keyinchalik rossiyalik A. Potilitsin va G. Xarichkovlar Kavkazda olib borilgan tadqiqotlar asosida erosti suvlarning bir qator muhim xususiyatlarini (sulfatsizligini, organik kislotalar bilan to'yinganligini) tadqiq qildilar. Tadqiqotchilardan A.D. Arxangelskiy, N.S. Kurnakov, Ch. Palmer, D. Rodjers, R. Mills va boshqalar cho'kindi qatlamlaridagi dengiz suvlarning tadrijiy rivojlanish elementlarini va ularning cho'kindi havzalarning katta chuqurliklarida yotuvchi neft-gazli va boshqa qatlamlaridagi suvli eritmalar tarkibining shakllanishidagi rolini aniqladilar. XX asrning birinchi yarmida gidrogeologik tadqiqotlar keng ko'lamda olib borildi. Suvli gorizontlardan suv chiqarish va neft uyumlarini ishlatalish bilan bog'liq bo'lgan geogidrodinamik (geofiltratsiya) nazariya rivojlantirildi (Ch. Slixter, M. Masket, M. Xabbert, V.N. Shelkachev va b.). Yerosti suvlarning hosil bo'lishi, qatlamlarda harakatlanishi, bosim paydo bo'lishi, ularning kimyoviy tarkibining shakllanishi va boshqalar F.P. Savarenskiy, P.I. Butov, V.S. Ilin, O.K. Lange, N.F. Pogrebov, N.I. Tolstixin, A.M. Ovchinnikov, G.Ye. - Kamenskiy, A.I. Silin-Bekchurin, V.I. Vernadskiy va boshqalar tomonidan chuqur, ilmiy ravishda o'rganildi. 1940 yilga kelib sobiq ittifoqda gidrogeologik va injenerlik-geologik tadqiqotlar bilan shug'ullanadigan maxsus ilmiy muassasa tashkil etildi. V.S. Samarin, G.A. Maksimovich, V.A. Aleksandrov, S.A. Shukarev, V.A. Sulin, L.S. Balashov, O.A. Alekin va boshqalar "Gidrogeologiya" fanining bir bo'limi bo'lgan neft-gaz gidrogeologiyasini rivojlantirdilar.

Tabiiy va neft-gazli qatlamlardagi suvlarning kimyoviy tasnifi ishlab chiqildi. V.A. Sulin suvlarning tarkibi va ulardag'i asosiy ionlar nisbatiga tayanib, ularning genetik tiplarini aniqlash tasnifini ishlab chiqdi. XX asrning ikkinchi yarmidan XXI asrning dastlabki yillariga kelib, gidrogeologiya fani turli yo'naliishlarda rivojlanmoqda. Sobiq Ittifoq hududida 1:200000 masshtabdagi, o'zlashtiriladigan va sug'oriladigan maydonlarda esa 1:50000 masshtabdagi

gidrogeologik va injenerlik-geologik s'jomkalar o'tkazildi. 1966–1985 yillarda bajarilgan s'jomka, shuningdek, turli maqsadlarda bajarilgan gidrogeologik ma'lumotlar to'planib, tahlil qilinib, tizimga tushirilib 50 tomlik «SSSR gidrogeologiyasi» (1966–1978) hamda 6 tomlik «Gidrogeologiya asoslari» (1980–1985) kitobi nashr qilindi. Kitoblarda MDH mamlakatlari hududining gidrogeologik sharoitlariga ta'rif berildi va u gidrogeologiya ilmi rivojlanishining shu davrdagi yakuniga aylandi. Shuni ta'kidlash lozimki, gidrogeologiya kitobining 39-tomi O'zbekiston Respublikasi hududiga bag'ishlangan bo'lib, uni tuzishda O'zbekistonlik olimlardan G.O. Mavlonov, N.A. Kenesarin, M.M. Krilov, N.N. Hojiboev, A.N. Sultonxo'jaev, A.S. Hasanov, S.Sh. Mirzaev, V.A. Kudryakov, K.P. Po'latov, U.U. Umarov, M.I. Ismoilov, S.M. Qosimov, X.T. To'laganov, S. Tolipov va boshqalar qatnashdilar. 1971 yili M.I. Subbota, Ya.A. Xoqiqulov, V.F. Kleymenovlarning «O'rta Osiyoning gidrogeologik havzalari va ularning neft-gazliligi» nomli monografiyasi e'lon qilindi. Unda O'rta Osiyo cho'kindi qoplamicidagi juda yirik artezian havzalarning gidrogeologik xususiyatlariga tavsif berildi. Birinchi marta O'rta Osiyoning barcha hududlaridagi suvli gorizontlarning mayda mashtabli gidrogeologik xaritalari tuzildi va neft-gaz to'planishining gidrogeologik sharoitlari baholandi. 1972 y. A.N. Sultonxo'jaevning «Farg'onan artezian havzalari», A.S. Hasanovning «Amudaryo artezian havzasidagi mezozoy erasi yotqiziqlarining gidrokimyosi», 1992 y., R.I. Goldshteyn, K.G. Brovin va boshqalarning «O'rta Osiyo artezian havzalarining metallogeniyasi» asarlari nashr qilindi. Ularda artezian havzalaridagi geostatik, geodinamik va gidrodinamik jarayonlar bayon qilinib, katta chuqurlikdagi gorizontlarning turli zonalaridagi suvlarning ion-tuz tarkibini shakllanishiga ularning ta'siri aniqlandi. Shuningdek, mezozoy erasi yotqiziqlaridagi suvlarning asosan sedimentogen yo'l bilan hosil bo'lganligi, erosti suvlarning turg'un rejimga egaligi, vertikal yo'nalishda (lokal zonalarda pastdan yuqoriga) harakatlanishi aniqlandi. Birinchi marta yod, brom, bor, strontsiy, litiy, rubidiy, tseziy va boshqa mikrokomponentlar to'planishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan gidrokimyoviy to'siqlar ajratildi. Oxirgi o'n yilliklarda chet el va O'zbekiston olimlari tomonidan neft va gaz konlarida

mukammal gidrogeologik tadqiqotlar amalga oshirildi: chunonchi, neft va gaz gidrogeologiyasi bo'yicha V.N. Kortsenshteyn, A.A. Kartsev, M.I. Subbota, L.M. Zorkin, S.B. Vagin, V.I. Donil, Ye.V. Stadnik, V.A. Kudryakov, S. Tolipov, S. Musaev, T. Avazov va boshqalar; suvda erigan gazlar bo'yicha L.I. Zorkin; suvda erigan organik moddalar bo'yicha A.S. Zinger, V.M. Shvets, Ye.A. Bar; neft va gaz konlari gidrogeologiyasi buyicha A.R. Axundov, Yu.P. Gattenberger, A.M. Nikanorov, L. Keyz, S. Tolipov va boshqalar juda muhim nazariy va amaliy tadqiqotlar olib borib kelmoqdalar.

## 1. SUVLARNI TARKIBINI ANIQLASH

### 1.1. Suvlarni gidrokimyoviy asoslash

*Suv molekulalarining izotop tarkibi.* Toza suvning formulasi  $H_2O$  .  $H_2O^{16}$  molekulalari tabiiy suvlarda ustunlik qiladi. Suv molekulalarining tarkibida vodorodning uchta izotopi ( $N^1$  – protiy ,  $N^2$  – deyteriy va  $N^3$  – tritiy) va kislородning ettita izotopi ( $O^{14}$ ,  $O^{15}$ ,  $O^{16}$ ,  $O^{17}$ ,  $O^{18}$ ,  $O^{19}$ ,  $O^{20}$ ) ishtirok etishi mumkin.  $N^3$  izotopi radioaktivli,  $O^{13}$ ,  $O^{14}$ ,  $O^{15}$ ,  $O^{19}$ ,  $O^{20}$  izotoplар qisqa vaqt yashovchi hisoblanadi. I.V.Petryanov–Sokolov suv molekulalarining 48 ko'rinishini belgilab berdi. Ulardan faqat 9 tasi barqarordir. Boshqa molekulalarning og'irligi  $H_2O^{16}$  nikidan ancha katta.  $N^2$ ,  $N^3$  va  $O^{18}$  larning miqdori kamligi aniqlangan ( $\gamma=1\cdot10^{-6}$  g/l).  $O^{17}$ ning miqdori juda oz. Vodorod va kislородning og'ir izotoplари aniqlangandan so'ng oddiy suvlardan elektroliz yo'li bilan og'ir suvlar  $H_2O^{16}$  va  $H_2O^{18}$  (molekulyar og'irligi 20) ajratib olindi. Og'ir suvlar gidrosferada ham aniqlandi. Tabiatda bir qism og'ir suvlarga oddiy suvlarning 5000 qismi to'g'ri keladi.

Katta chuqurlikdagi berk strukturalar suvlarining zichligi Yer ostida bo'ladigan bug'lanish, yuqori temperatura, engil izotoplarning jinslarga yutilishi, ayrim minerallarning parchalanishi ta'sirida ortadi. Bunday strukturalarga engil izotoplар infiltratsion suvlar orqali kirib kelishi mumkin.

*Suv molekulalari strukturasing tuzilishi* vodorod atomining kislород atomi atrofida nosimmetrik joylashishi bilan tavsiflanadi. Suv molekulasi vodorod atomining ikkita yadroси bilan kislородning bitta atomining o'zaro uyg'un birikmasi bo'lib, teng tomonli uchburchakning uchlarida joylashadi. Suvda vodorodli bog'lanishlar vodorod atomi elektronlarining bo'linmasligidan hosil bo'ladi, suyuq suvning molekulalari esa yuqori darajali tartibda joylashadi, shu sababli ular qattiq jism (suyuq kristall)ga yaqin bo'ladi.

Zamonaviy nuqtai nazarga ko'ra, suv molekulalarining vodorod bilan tetraedr ko'rinishidagi karkassimon bo'sh bog'lanishi kuzatiladi. Bunday molekulalar ikki: musbat va manfiy qutbga ega bo'lib, ular suv molekulalarining

atrofida maydon kuchlarini hosil qiladi. Suv molekulalari yaqinlashib bir-biriga maydon kuchlari bilan ta'sir etadi, bunda musbat zaryadlangan molekula qutbi boshqa molekulaning manfiy kutbini o'ziga tortadi. Natijada agregatlar – digidrol ( $N_2O$ )<sub>2</sub> va trigidrol ( $N_2O$ )<sub>3</sub> hosil bo'lishi mumkin.

Temperaturaning ko'tarilishi bilan murakkab agregatlar parchalanib, oddiy agregatlarga, ular o'z navbatida yakka molekulalarga bo'linadi. Bug'simon holatdagi suv faqat yakka molekulalardan iborat bo'ladi.

Suvlarning kimyoviy faolligi kislorod va vodorodning yuqori darajadagi faolligi bilan bog'liq. Chunki vodorodning atomi faqat bitta elektronga ega, shu sababli boshqa atomlar bilan elektronlar yordamida hamda vodorodli bog'lanishlar bilan birikadi.

Suyuq suv birmuncha tartibli molekulalardan iborat bo'lib, tuzilishi bo'yicha kristall panjaraga o'xshaydi. Suyuq va qattiq holatdagi suv geksogonal strukturaga ega (muvofiglik soni 4). Temperatura ko'tarilishi bilan suv molekulasingning tuzilishi o'zgaradi. Geksagonal davriy tuzilish to'rt tomonli ko'rinishga o'tib, suv molekulalari zichroq joylashadi.

**Suvda erigan tuzlar va ionlar.** Tabiiy suvlardan suv-gaz-tuzlar va organik moddalardan iborat barqaror muvozanatlari sistemadir. Suv turli tuzlar, gazlar va kolloidlar, ya'ni elektrolit xususiyatlarga ega moddalarni yaxshi erituvchi suyuqlik hisoblanadi. Tabiiy suvlarda tabiatda ma'lum bo'lgan barcha kimyoviy elementlarning yarmidan ko'pi uchraydi. Yerosti suvlarda erigan ionlar soni juda ko'p bo'lib, ulardan ayrimlarigina katta miqdorda bo'ladi. Eritmalarning xususiyatlari – zichligi, siqluvchanligi, qovushqoqligi, dielektrik o'tkazuvchanligi va h.k. larni tavsiflash uchun rentgenstruktura modellari ishlab chiqilmoqda. Tabiatdagi suvlarda kimyoviy elementlarning 70 tasi aniqlangan. Suvda eritilganda tuzlar, odatda, tarkibiy qismlarga ajraladi.

Elektrolit bo'limgan moddalar suvda eriganda ionlarga ajralmaydi va ularning eritmalari elektr tokini o'tkazmaydi. Erish vaqtida ular neytral molekulalarga parchalansa haqiqiy eritmalarni yoki molekulalar agregat (to'plam)lariga parchalansa qisman kolloid eritmalarni hosil qiladi. Tabiiy suvlarda

eng ko'p uchraydigani – sakkizta elementdan tarkib topgan oltita asosiy ionlardir. Ularga:  $\text{Cl}^-$ ,  $\text{SO}_4^{2-}$ ,  $\text{HCO}_3^-$  anionlari va  $\text{Na}^+$ ,  $\text{Ca}^{2+}$ ,  $\text{Mg}^{2+}$  kationlari kiradi. Oz miqdorda  $\text{CO}_3^{2-}$ ,  $\text{S}_2^{2-}$ ,  $\text{K}^+$ ,  $\text{Fe}^{2+}$ ,  $\text{Fe}^{3+}$  ionlari ham uchraydi. Suvda juda oz miqdorda uchraydigan elementlar *mikroelementlar* yoki *mikrokomponentlar* deb ataladi. Mikrokomponent-lardan  $\text{Br}^-$ ,  $\text{I}^-$ ,  $\text{Li}^+$ ,  $\text{Sr}^{2+}$  ionlari katta amaliy ahamiyatga ega.

Kimyoviy tahlillar natijasida ayrim ionlar to'g'risida ma'lumotlar olinadi. Biroq, hozirgi vaqtga qadar ionlar qanday holatda – erkin yoki eritmadiagi tuz molekulalari ko'rinishida bo'lishi aniq belgilanmagan.

Suvda erigan ionlar, tuzlar va kolloidlarning umumiyligi miqdori suvning *minerallanganlik darajasini* bildiradi. Minerallanganlik asosan g/100 g yoki g/kg, g/l larda ifodalanadi. Minerallanganlikning g/100g ko'rinishidagi ifodasining qiymati foiz ko'rinishidagi (og'irlik bo'yicha) qiymatiga mos keladi. g/l ko'rinishida ifodalangan minerallanganlik g/100g yoki % ko'rinishidagi minerallanganlikka o'tkazishdagi hisob-kitoblarda suv (ayniqsa kuchli minerallangan namakoblar)ning zichligini hisobga olish zarur. Ionlar bir-biri bilan ion og'irligi va valentligiga bog'liq bo'lgan qat'iy ekvivalent miqdorlarda bog'lanishi sababli mineralanganlikning ion-ekvivalent shaklida ifodalash ham maqsadga muvofiq. GOST bo'yicha minerallanganligi 1g/kg gacha bo'lgan suvlar chuchuk, 1 dan 25 g/kg gacha – sho'rroq, 25 g/kg dan 50 g/kg gacha – sho'r, 50 g/kg dan yuqorisi – namakob hisoblanadi. Tuz miqdori 500 g/l va undan yuqori bo'lgan namakoblar ma'lum. Ba'zida minerallanganligi 35 g/l gacha bo'lgan suvlar (dengiz suvining o'rtacha minerallanganligi) *sho'r suvlar* deb ataladi. Suvning minerallanganligi uning gidrokimyoviy xususiyatlarini ko'rsatuvchi asosiy parametr hisoblanadi. Chuchuk suvlardagi anionlar orasida gidrokarbonatlar, kationlar orasida esa kalsiy ustunlikka ega. Sh o'r suvlarda xlordilar va sulfatlar, namakoblarda esa hammasidan ko'ra kalsiy va natriy xlordilari ustunlikka ega.

**Suvda erigan gazlar.** V.I. Vernadskiyning ta'rifiga ko'ra – «eritmasida ma'lum miqdorli va ma'lum tarkibli gazlarni o'z ichiga olmagan suv Yer po'stida

mavjud emas... Tabiiy suv avvalo suv – gazlar muvozanati bo'lib, bu gazlar ma'lum va kam sonlidir».

Darhaqiqat, tabiiy suvlarda birinchi navbatda quyidagi erigan gazlar kuzatiladi: azot, kislород, uglerod oksidi va dioksidi (karbonat angidrid gazi), serovodorod, metan va uning gomologlari, vodorod, nodir gazlar (geliy, neon, argon, kripton, ksenon, radon).

*Azot* – Yer yuzasining suvlardan boshlab magmatik jinslardagi suvlargacha uchraydi. Shuni ta'kidlash lozimki, azot suvlarga atmosferadan o'tishi yoki biologik va magmatik yo'l bilan hosil bo'lishi mumkin.

*Kislород* – Yer yuzasidagi suvlar uchun xos bo'lib, bularda uning miqdori 20 sm<sup>3</sup>/l gacha bo'ladi. Kislорodning oksidlash xususiyati kuchli bo'lganligi sababli, Yer po'sti bo'yicha chuqurlashgan sari uning kesimdagি miqdori keskin kamayib boradi.

*Uglerod oksidi* – tabiatda vulqonlardan chiqadigan gaz oqimlarida va otqindi tog' jinslarining bo'shliqlarida uchraydi. U rangsiz va deyarli hidsiz bo'lgan yonuvchi zaharli gaz hisoblanadi.

*Uglerod dioksidi* (karbonat angidrid gazi) – kimyoviy faolligi tufayli bir qator geokimyoviy jarayonlarda, masalan, karbonatlar va gidrokarbonatlar orasida muvozanat (karbonat muvozanati) o'rnatilishida ishtirok etadi. Chuqurlikdagi suvlarda uning miqdori 30000 sm<sup>3</sup>/l gacha bo'lishi mumkin.

*Serovodorod* (vodorod sulfidi) – faol qaytaruvchi bo'lib, sulfidlar va gidrosulfidlar orasida muvozanat (sulfid muvozanati) o'rnatilishi jarayonida ishtirok etadi. Uning miqdori ba'zan 2000 sm<sup>3</sup>/l gacha boradi.

*Metan va uning gomologlari* – neft va gaz konlaridagi suvlarda uchraydi. Ularning miqdori 13000 sm<sup>3</sup>/l dan yuqori bo'lib (L.M. Zorkin ma'lumotlari bo'yicha), shu bilan birga etan, propan, butan, pentan guruhi gomologlarining umumiyy miqdori metan miqdoridan bir daraja kamroq bo'ladi.

*Vodorod* – kimyoviy faolligi va harakatchanligi sababli Yerosti suvlarda kam miqdorda – 100 sm<sup>3</sup>/l gacha uchraydi. Uning miqdori, odatda, 1 sm<sup>3</sup>/l –  $n \cdot 10$  sm<sup>3</sup>/l oralig'ida bo'ladi ( $n = 1, 2, \dots, 9$ ).

*Nodir gazlar* – tabiiy gazlar aralashmasi tarkibida juda kam miqdorda bo'lsa ham geokimyoviy mezon sifatida qo'llanadi (ular ichida eng muhim amaliy ahamiyatga ega bo'lgan geliyning miqdori, odatda,  $0,1 \text{ sm}^3/\text{l} - n \cdot 1,0 \text{ sm}^3/\text{l}$  oralig'ida bo'ladi,  $n = 1, 2, \dots, 9$ ).

*Radon* – radiyning parchalanishidan hosil bo'lgan mahsulot bo'lib, chuqur tektonik buzilishli rayonlar (Kavkaz mineral suvlari, Ural, Tyanshan) uchun xos bo'lib, bu suvlardagi miqdori  $1,5 \cdot 10^{-19} \text{ Bk}$  va undan yuqori. Nordon magmatik tog' jinslarining nurash zonalarida, emanatsiyalanuvchi kollektorlarda radon suvlarning konlari aniqlangan.

Gazlar suvlar bilan birgalikda molekulyar eritma sifatida o'rganiladi. Uglerod dioksidi va serovodorod gazlari o'zlarining ion-tuzli komponentlari bilan turg'un sistemalarni hosil qiladi. Suvning hajm birligida ( $1 \text{ sm}^3$ ) erigan gaz hajmi (tabiiy sharoitda o'lchanganda – bosim 760 mm simob ustuni va temperatura  $20^\circ\text{S}$  bo'lganda) *suvning gazga to'yiganligi* deyiladi. U suvda erigan barcha gazlar hajmining yig'indisiga teng bo'lib,  $\text{sm}^3/\text{l}$ ,  $\text{sm}^3/\text{sm}^3$  yoki  $\text{m}^3/\text{m}^3$  larda ifodalananadi.

Gazga to'yiganlik gazlarning suvdagi eruvchanligi bilan aniqlanadi va u bosimga, temperaturaga, suvning ion-tuzli tarkibiga hamda gaz tarkibiga bog'liq holda o'zgaradi. Bosim 5 MPa gacha bo'lsa, suvlarning gazga to'yiganligi bosimga to'g'ri proporsional tarzda ortib boradi (Genri qonuni):

$$G = K_e \cdot r, \quad (2.1)$$

bunda  $r$  – bosim;

$K_e$  – gazning berilgan temperaturadagi eruvchanlik koeffitsienti. Bir nechta gaz mavjud bo'lganda, Dalton qonuni ko'ra, har bir gaz o'zining parsial (gaz aralashmasining ayrim komponentlari) bosimiga proporsional tarzda eriydi.

Bosim 5 MPa dan yuqori bo'lsa, Genri qonunini qo'llab bo'lmaydi, chunki bosim ortishi bilan gazning eruvchanligi to'g'ri proporsional oshmaydi.

Erigan gazlarning miqdorini belgilovchi asosiy omil bu ularning to'yinish bosimi (elastikligi) hisoblanadi. *To'yinish bosimi* deb shunday bosimga aytildiki, bunday bosimda barcha gazlar erigan holatda bo'ladi. Agar suvning bosimi to'yinish bosimidan yuqori bo'lsa, u holda suv gazni qo'shimcha ravishda eritish

imkoniyatiga ega bo‘ladi. Agar suv to‘yinish bosimidan past bosim ostida bo‘lsa, u holda gazning bir qismi suvdan ajralib chiqadi.

*Erigan gazning elastikligi* (tarangligi) erigan gaz hajmining uning eruvchanlik koeffitsientiga bo‘lgan nisbatiga teng. Lekin bu bog‘liqlik, yuqorida qayd qilingandek, faqat bosim 5 MPa dan kam bo‘lgandagina qo‘llaniladi. To‘yinish bosimi bundan ham yuqori bo‘lsa, u holda yanada murakkab bog‘liqlik yuzaga keladi. Gazning eruvchanlik koeffitsienti suvning minerallanganligiga bog‘liq holda o‘zgaradi, ya’ni minerallanganlik ortishi bilan eruvchanlik kamayadi.

Temperatura taxminan 100 °C gacha ko‘tarilganda gazning eruvchanligi kamayib boradi, undan yuqori temperaturada esa ortadi.

Yer qa’ridagi erigan gazlarning elastikligi 25 MPa gacha va undan yuqori bo‘ladi.

**Suv tarkibidagi organik moddalar.** Yer qa’ridagi suvlarda turli ko‘rinishdagi organik birikmalar mavjud. Eritmada ular ion, molekulyar va kolloid shakllarda, shuningdek mikroemulsiya ko‘rinishida uchraydi. Ularni o‘rganish neft hosil bo‘lish va to‘planish jarayonlarini anglashda, neft konlari (metall rudalari)ni izlashda, suvlarni ifloslanishdan muhofaza qilishda (chunki ko‘pgina organik birikmalar ifloslantiruvchi hisoblanadi) juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Suvdagagi organik moddalarning umumiy miqdori  $S_{org}$  ning qiymati bilan izohlanadi. V.M. Sh vetsning ma’lumotlari bo‘yicha (1982)  $S_{org}$  ning o‘rtacha miqdori quyidagicha, mg/l da: grunt suvlarida – 25, neft-gaz konlari bo‘lmagan qatlama suvlarida – 50, gaz konlarining qatlama suvlarida – 35, neft konlarining mahsuldor gorizontlaridagi qatlama suvlarida – 60, neft konlarining konturorti suvlarida – 110, neft konlarining konturichi suvlarida – 370 va nihoyat, gazokondensat konlarining konturichi suvlarida – 800. Sh unday qilib, organik moddalarga eng ko‘p to‘yingan suvlar neft-gaz va ayniqsa gaz kondensati konlarida uchrar ekan. Sh uni qo‘sishimcha qilish lozimki, atmosferadagi. Yer yuzasidagi, daryodagi barcha suvlarda organik komponentlar litosfera suvlardagiga nisbatan juda kam miqdorda uchraydi (okean suvlarida  $S_{org}$  3 mg/l ni tashkil etadi).

Yer po'sti suvlaridagi turli organik birikmalaming miqdori taxminan quyidagi oraliqlarda o'zgaradi (V.M. Sh vets bo'yicha), mg/l da:

YOg'li kislotalar	$p \cdot 10^{-3} - p \cdot 10^3$
Naftenli kislotalar	$n \cdot 10^{-2} - n \cdot 10^2$
Fenollar	$n \cdot 10^{-2} - n \cdot 10^1$
Benzol	$n \cdot 10^{-2} - n \cdot 10^1$
Toluol	$n \cdot 10^{-3} - n \cdot 10^1$
Tarkibida azoti bor moddalar ( $N_{org}$ bo'yicha)	$n \cdot 10^{-1} - n \cdot 10^0$
Tarkibida fosfori bor moddalar ( $R_{org}$ bo'yicha)	$n \cdot 10^{-2} - n \cdot 10^0$
Aminokislotalar ( $N_{org}$ bo'yicha)	$n \cdot 10^{-5} - n \cdot 10^{-3}$
Aminlar	$n \cdot 10^{-5} - n \cdot 10^{-4}$

Bitum (xloroform ekstrakti)ning o'rtacha chiqish ko'rsatkichi  $n \cdot 10^{-1} - n \cdot 10^2$  mg/l ni tashkil etadi, ular asosan turli aromatik uglevodorodar va smolasimon moddalardan iborat. Bundan tashqari, Yerosti suvlarida, shu jumladan, neft konlaridagi suvlarda quyidagi organik birikmalar mavjudligi aniqlangan ( $n \cdot 10^0$  mg/l gacha miqdorda): spirtlar, ketonlar, murakkab efirlar, uglevodorodlar, oltingugurtli organik birikmalar.

Organik birikmalaming barcha sinflaridan neft-gaz gidrogeologiyasi uchun eng muhimmi uglevodorodlar (UV) va yog'li kislotalar hisoblanadi. Suvlarda suyuq uglevodorodlardan (etarli darajada eruvchanligi hisobiga) eng ko'p tarqalgani aromatik uglevodorodlar bo'lib, ularda birinchi navbatda benzol va uning gomologlari (toluol, ksilollar) uchraydi. Oxirgi paytlarda yarimaromatik uglevodorodlar (naftalin va fenantren qatorlari), naftenlar va parafinlar ( $C_5$  dan yuqori) haqida ham ma'lumotlar paydo bo'la boshladi. A.E.Kontorovich ma'lumotlariga ko'ra (1976), to'yingan uglevodorodlar suvda erigan barcha uglevodorodlarning taxminan yarmini tashkil etadi, to'yingan uglevodorodlarning 30–60 % esa parafinli strukturalarning (neft-gaz konlarida) uglevodorodlaridan iborat.

*YOg'li kislotalar* – suvlardagi organik komponentlarga nisbatan (xususan neft-gaz konlari suvlarida) organik birikmalarning miqdori ko'p bo'ladi. Eng ko'p miqdorda quyidagi kislotalar (suv bug'i bilan birga uchadigan) uchraydi: chumoli kislotasi, uksus kislotasi, yog'li kislotalar, propion kislotasi. **Gazkondensatlari**

uyumlarning suvlardagi uksus kislotasi –  $\text{SN}_3\text{SOON}$  ning miqdori 1 g/l gacha etishi mumkin.

## **1.2 Gidrogeologiya tadqiqotlardagi tahlillar**

Mufassal gidrogeologiya tadqiqotlardan quyidagi tahlil turlari o'tkaziladi:

Fizikaviy tahlil – suvlarning fizik xususiyatlari aniqlanadi.

Umumiy kimyoviy tahlil bilan beshta asosiy ionlarni aniqlanadi  $\text{Cl}^-$ ;  $\text{SO}_4^{2-}$ ;  $\text{HCO}_3^-$ ;  $\text{Ca}^{2+}$ ;  $\text{Mg}^{2+}$  ( $\text{Na}^+$  – oltinchi ionlar farqi bilan aniqlanadi).

Qisqartirilgan yoki dastlabki moddalarni tahlil farqi  $\text{Cl}^-$ ;  $\text{SO}_4^{2-}$ ;  $\text{HCO}_3^-$ ;  $\text{CO}_3^{2-}$  ionlari va erigan moddalarni umumiy miqdori va aniqlanadi.

4. Suvdagagi gazlarni kimyoviy-tahlili (gaz tahlili)

5. Sanitar tahlil, sho'rligi, qattiqligi,  $\text{NH}_4^+$ ;  $\text{NO}_2^-$ ;  $\text{NO}_3^-$  ionlarni miqdori va suvlarni oksidlanishi.

6. Tabobat (bol'neologicheskiy) taxlili asosan ionlarni aniqlashdan tashqari gaz komponentlari, radioaktivligi, turli mikroelementlar va boshqa mavjud bo'lgan moddalar aniqlanadi. Tabobat tahlili eng to'liq tahlil hisoblanadi.

7. Bakterialogik tahlil suvdagi mavjud bakteriyalar aniqlanadi. Tahlilda miqdori va sifati bo'lishi kerak.

8. Keyingi vaqlarda qatlama suvini tahlil qilishga spektral usullardan foydalanimoqda.

## **1.3. Qatlama suvlari namunalarining umumiy kimyoviy tahlili**

Qatlama suvlarini kimyoviy tahlili suv tarkibidagi gazlar, minerallar va organik komponentlarni aniqlash uchun olib boriladi. Taxlil maqsadi, turi va xajmiga qarab ularni umumiy va maxsus usullar yordamida olib boriladi.

Umumiy tahlil qatlama suvlaring faktik ma'lumotlariga ko'ra ularning tarkibidagi  $\text{Cl}^-$ ,  $\text{SO}_4^{2-}$ ,  $\text{HCO}_3^-$ ,  $\text{Ca}^{2+}$ ,  $\text{Mg}^{2+}$  ionlarni aniqlash uchun olib boriladi. Bu tahlillar odatda suv namunalarini barcha tadqiqotlarda qo'llaniladi va bu tahlillar asosida gidrokimyoviy ma'lumotlar to'liq olinib, ular gidrokimyoviy xaritalarni tuzishda, quduqlarni tadqiqot qilishdagi qayd daftari va quduq ishini tuzishda qo'llaniladi.

Tajriba ishidan maqsad: qatlam suvlari namunalarini umumiy kimyoviy tahlillarini olib borishni o'zlashtirish.

Tajriba ishini olib borish tartibi:

Kimyoviy tahlillarni olib borishda  $\text{SO}_4^{2-}$  ionini aniqlash vaqt uzoq bo'lganligi uchun shu tahlildan ish boshlash lozim. Undan so'ng qolgan ionlar tahlillari olib boriladi va umumiy kimyoviy tahlilni  $\text{SO}_4^{2-}$  ionini aniqlash bilan tuga tiladi.

*IVazifa*.  $\text{SO}_4^{2-}$  ionini tarkibini aniqlash

Tahlil turi vaznli, y bariy tuzi shaklida kislotali muhitda  $\text{SO}_4^{2-}$  ionning birikishi va cho'kishiga asoslangan.

Tahlilning borishi:

stakanga 100 ml suv namunasini soling;

2-3 tomchi metil apelsin qo'shing va eritma pushti rangga aylanguniga qadar konsentrangan HCl tomchilab qo'shing;

namunani qaynatib oling va bir vaqtning o'zida 20-30 ml 10% BaC eritmasidan;

BaC eritmasini aralashtirib, tomchilarga quying. Cho'kma to'xtaguncha;

5 daqiqa qaynagandan so'ng, unga bir necha tomchi  $\text{BaCl}_3$  eritmasidan qo'shing;

namunani 6-12 soatga qo'ying;

6-12 soatdan keyin namunani qaynaguncha qizdiring;

namunani zinch filtr orqali filtrlang, filtr tortini 0,5 l suvga 1 ml HCl qo'shilgan issiq distillangan suv bilan yuvинг, so'ngra qo'shmasdan;

yuvilgan filtrni maydalab, olib kelingan tigelga soling. doimiy og'irlikka;

elektr pechka ustidagi tigelga filtrni karbonatlang;

oq cho'kma va doimiy og'irlikda cho'kindi bilan tigelni yoqing.

Hisoblash:

$$\text{SO}_4^{2-} = \frac{\text{a} * 0,4115 * 1000}{\text{Vnp}}$$

bu erda,  $\text{SO}_4^{2-}$  ning bo'limgan tarkibi,  $\text{SO}_4^{2-}$  - suvda, mg / l;

a - cho'kindining og'irligi, mg;

Vnp - suv namunasi hajmi, ml.

## ***II Vazifa.* Cl ion tarkibini aniqlash**

Analiz usuli - hajmli,  $\text{AgNO}_3$  eritmasi bilan,  $\text{K}_2\text{CrO}_4$  indikatorlar ishtirokida titrlash asosida.

Tahlilning borishi:

1) konussimon kolbaga 100 ml suv soling;

2) namunaga 10% li  $\text{K}_2\text{CrO}_4$  eritmada 10 tomchi tomiziladi;

3) 0,1-n  $\text{AgNO}_3$  eritmasi bilan rang yashil-sariqdan qizil-jigarranggacha o'zgarmaguncha titrlanadi.

Hisoblash:

$$\underline{\text{VI} + \text{N} \cdot 35,46 \cdot 1000}$$

$$\text{CL}^- = \text{Vnp}$$

bunda: CL<sup>-</sup> - CL<sup>-</sup> ionining tarkibi suvda, mg/l;

VI -  $\text{AgNO}_3$  eritmasining sarfi, ml;

N -  $\text{AgNO}_3$  eritmasi normalligi;

Vnp - namuna hajmi, ml.

## ***III Vazifa. $\text{HCO}_3^-$ ionining miqdorini aniqlash***

Tahlil usuli hajmli,  $\text{HCl}$  eritmasi ishtirokida titrlashga asoslangan, metil apelsin ko'rsatkichi.

Tahlilning borishi:

1) konusning shishasiga 100 ml suv qo'ying;

2) Namunaga 3 tomchi metil apelsin qo'shing;

3) sariq - pushti rang bilan almashtirilgunga qadar 0,1-n  $\text{HCl}$  eritmasi bilan titrlash.

Hisoblash:

$$\underline{\text{V}_2 + * \text{N} \cdot 61 \cdot 1000}$$

$$\text{NCO}_3^- = \text{Vnp}$$

bunda: NCO<sub>3</sub><sup>-</sup> - NCO<sub>3</sub><sup>-</sup> ionining tarkibi suvda, mg /l;

V<sub>2</sub> -  $\text{HCl}$  eritmasining iste'moli, ml;

N - HCl eritmasining normalligi;

Vnp - namuna hajmi, ml.

#### ***IV Vazifa. CA<sub>2+</sub> va MG<sub>2+</sub> ion tarkiblarini aniqlash***

Tahlil usuli - trilonometrik, floresan va xromga asoslangan quyuq ko'k, bir vaqtning o'zida stakanga 10 ml suv soling;

Tahlilning borishi:

1-banddan 6-bandgacha bo'lgan tahlil jarayoni bir xil va amalgamoshiriladi. bir vaqtning o'zida:

- 1) 10 ml suvni stakanga soling;
- 2) namunaga 1-2 tomchi konsentrangan HCL qo'shing, shuningdek ammiakning zaif hidi paydo bo'lguncha – NH<sub>4</sub>OH eritmasi;
- 3) namunani qaynamasdan elektr pechkada qizdiring;
- 4) namunani "oq lenta" filtri orqali filtrlang va cho'kmanni filtrga issiq distillangan suv bilan yuvling;
- 5) filtratni issiq distillangan suv bilan suyultirib, hajmini 100 ml ga yetkazing;
- 6) 50 ml filtratdan 2 ta konussimon kolbaga quying:
  - a) tarkibidagi Ca<sub>2+</sub> ni aniqlang;
- 7) 1 kolbaga 20 ml KOH eritmasidan va shpatelning uchidagi floresans indikatoridan soling;
- 8) Titrlash trilonning 0,05 -n eritmasi "B" rangni yashil rangdan pushti rangga o'zgartirishdan oldin.

Hisoblash:

$$\underline{V_3 \cdot 0.025 * 40.08 * 1000}$$

$$Ca_{2+} = Vnp$$

bu erda, Ca<sub>2+</sub> - suvdagi Ca<sub>2+</sub> bo'limgan tarkib, mg /l;

V3 - Trilon "B" eritmasining iste'moli, ml;

Vnp- namuna hajmi, ml;

b) Mg<sub>2+</sub> ionining tarkibini aniqlash.

9) 11 kolbaga 20 ml ammiak buferini qo'shing, "Kongo" indikator qog'ozini qo'yning va indikator qog'ozini jigarrang rangga bo'yash uchun konsentrangan HCL qo'shing.

10) Namunani qizdiring. 35-400C va unga to'q ko'k xrom indikator qo'shing;

11) Titrlash 0,05-n. trilon "B" eritmasi rangi pushtidan binafshagacha ko'k ranggacha o'zgarmaguncha.

Hisoblash:

$$\underline{(V4-V3)* 0.025 * 24.32 * 1000}$$

$$Mg^{2+} = V_{np}$$

bu erda:  $Mg_2+$  - suvdagi  $Mg^{2+}$  ionining miqdori, mg / l;

$V4 - Mg^{2+}$  ionini titrlash uchun trilon "B" eritmasining sarflanishi;

$V3 - Ca^{2+}$  ionini titrlash uchun Trilon "b" eritmasining sarfi, ml;

$V_{np}$  - namuna hajmi, ml.

## 2. SUVLARNING KIMYOVIY TARKIBINI IFODALASH

### 2.1. Suvlarning kimyoviy tarkibini ifodalash usullari

Suvlarning kimyoviy tahlil natijalari turli shakkarda berilishi mumkin. Hozirgi vaqtida suvlarning ion-tuz tarkibini suvdagi ayrim ionlar miqdori ko'rinishida ifodalash qabul qilingan. Shunga ko'ra, tabiiy suvlarning kimyoviy tarkibi ion, ekvivalent va foiz-ekvivalent shakllarida ifodalanadi.

Suvlarhing tarkibini ion shaklda ifodalashda ayrim ionlarning umumiy miqdoridan foydalilanadi. Ionlar miqdori hajm yoki og'irlilik birliklariga nisbatan milligramm yoki grammlarda ifodalanadi (odatda, 100 cm<sup>3</sup>, 1000 cm<sup>3</sup>, 100 r, 1 kr).

Amalda chuchuk suvlar uchun ulardagi ionlar miqdorini hajm yoki og'irlilik birliklarida ifodalishining farqi yo'q. Namakoblarda bu birliklar farqlanadi. Suv tarkibining hajm birligidagi ifodasidan og'irlilik birligidagi ifodasiga o'tganda, ayrim ionlarning miqdorini suvning zichligiga bo'lishga to'g'ri keladi.

Hozirgi vaqtida bajariladigan gidrokimyoviy tadqiqotlarda suvning tahlil natijalari faqat ion shaklida beriladi. Bu shakl boshqa shakkarda ifodalanadigan ionlar uchun asos bo‘ladi.

Kolloid holatidagi bir qator moddalar va erigan gazlarning miqdorini ifodalash uchun ion shakli qo‘llanilmaydi.

Eritma konsentratsiyasi molyar shaklida ifodalanishi mumkin. Masalan, 5,85 g NaCl ning 1 l suvda erishidan hosil bo‘lgan S eritmaning molyar konsentratsiyasi quyidagicha ifodalanadi:

$$S(\text{NaCl}) = 5,85 \text{ g}/58,5 \text{ (g/mol)}/\text{l} = 0,1 \text{ mol/l}.$$

Suv tarkibini ekvivalent shaklida ifodalash uchun suvli eritmaning kimyoviy xususiyati hisobga olinadi, tahlil natijalarini nazorat qilish va natriy ionlari miqdorini analitik tahlil qilmasdan hisoblash imkonini bo‘ladi.

Eritmadagi ionlar bir-biri bilan o‘zlarining og‘irligi va ionlar valentligiga (ekvivalent miqdorlarda) bog‘liq holda ta’sir etib reaksiyaga kirishadi. Ion ekvivalenti (ekvivalent og‘irligi) deganda ion og‘irligining uning valentligiga nisbati tushuniladi. Masalan,  $\text{Sa}^{2+}$  ioni ekvivalenti 20 (40:2) ga, ioni ekvivalenti esa 48 (96:2) ga,  $\text{Cl}^-$  ioni ekvivalenti 35,5/1 ga,  $\text{Na}^+$  ioni ekvivalenti 23/1 ga teng. Binobarin,  $\text{Sa}^{2+}$  ionining 20 og‘irlilik birligi ionining 48 og‘irlilik birligiga mos keladi.

Kimyoviy elementlar bir-biri bilan ma'lum bir nisbatlardagina birkadi, bu holat ionning valentligi va uning atom yoki molekulyar og‘irligiga bog‘liq. Suvning kimyoviy tahlil natijalarini ion shakldan ekvivalent shaklga o‘tkazishda gramm yoki milligrammda olingan natijalarini ionning molekulyar og‘irligiga bo‘lish va uning valentligiga ko‘paytirish kerak. Ionlar miqdorini ekvivalent shakliga o‘tkazish uchun maxsus koeffisient (reaksiya koeffisient)laridan foydalanish ham muhim, uni topish uchun ion valentligini uning molekulyar yoki atom og‘irligiga bo‘lish kerak (2.1-jadval).

## Asosiy ionlarning ekvivalentlari va reaksiya koefitsientlari

### 2.1- jadval

Ion	Ekvivalent	Reaksiya koefitsienti	Ion	Ekvivalent	Reaksiya koefitsienti
Ca <sup>2+</sup>	20,0	0,050	Cl <sup>-</sup>	35,5	0,0282
Mg <sup>2+</sup>	12,2	0,0820	SO <sub>4</sub> <sup>2-</sup>	48,0	0,0208
Na <sup>+</sup>	23,0	0,0435	HCO <sub>3</sub> <sup>-</sup>	61,0	0,0164
K <sup>+</sup>	39,1	0,0256	HCO <sub>4</sub> <sup>2-</sup>	30,5	0,0328

Shunga ko'ra, ionlar ekvivalenti grammalar yoki miligrammlarda ifodalanishi mumkin va o'z navbatida gramm-ekvivalent yoki milliramm-ekvivalent deb ataladi.

Masalan, neft konidagi quduqdan olingan suv tahlili natijalari quyidagicha (mg/l): Cl<sup>-</sup> = 3493; SO<sub>4</sub><sup>2-</sup> = 79; HCO<sub>3</sub><sup>-</sup> = 28; Ca<sup>2+</sup> = 727; Mg<sup>2+</sup> = 129; Na<sup>+</sup> – anionlar va kationlar yig'indilari farqi bilan aniqlanadi.

Ionlar miqdorini milligramm-ekvivalentga o'tkazish hisoblari quyidagicha bajariladi (mg-ekv/l):

$$C\lambda = \frac{3493,0 \times 1}{35,5} = 98,39; \quad Ca^{2+} = \frac{727,0 \times 2}{40,0} = 36,35;$$

$$SO_4^{2-} = \frac{86,4 \times 2}{96,0} = 1,8; \quad Mg^{2+} = \frac{129,0 \times 2}{24,4} = 10,57;$$

$$HCO_3^- = \frac{28,0 \times 1}{61,0} = 0,46; \quad Na^+ + K^+ = \sum r_i - \sum r_k = 100,65 - 46,92 = 53,73.$$

Demak, ionlarning mg-ekv/l miqdorlarini hisoblashda ularning har birining aniqlangan miqdori ion valentligiga ko'paytiriladi (kasr chizig'i sur'atida), ekvivalent miqdori esa ion valentligiga ko'paytiriladi (masalan, kasr chizig'i mahrajida Ca<sup>2+</sup> = 20 · 2 = 40).

Biron-bir ionning miqdori ekvivalent shaklda ifodalansa kimyoviy belgisi oldiga r harfi yoziladi, masalan, rNa<sup>+</sup>, rCl<sup>-</sup> va h.k.

Anionlar va kationlar ekvivalent shaklida berilganda, eritmalarning elektr neytrallik qoidasiga ko'ra anionlar yig'indisi  $\Sigma r_a$  har doim kationlar yig'indisi  $\Sigma r_K$  ga teng bo'lishi kerak, ya'ni  $\Sigma r_K = \Sigma r_a$ . Shu tenglikdan foydalangan holda, oltita asosiy ionning birini, agar qolgan beshtasi ma'lum bo'lsa, aniqlasa bo'ladi. Shu o'rinda,  $Na^{++}K^+$  miqdori quyidagicha aniqlanadi:

$$r_{Na^+} + K^+ = (rCl^- + rHCO_3^- + rSO_4^{2-}) - (rCa^{2+} + rMg^{2+}), \quad (2.1)$$

Boshqa ionlarning miqdori nisbatan juda kichik bo'lganligi uchun ular e'tiborga olinmaydi.  $Na^+$  ning miqdorini milligrammda hisoblash uchun uning milligramm-ekvivalentda aniqlangan miqdorni ekvivalenti (23) ga ko'paytiriladi, lekin bunda suvdagi ekvivalent og'irligi 39,1 bo'lgan kaliy miqdori hisobga olinmaydi. Bunday hollarda  $Na^{++}K^+$  miqdorini hisoblash uchun uning mg-ekv da topilgan miqdori empirik koeffitsientga ko'paytiriladi. P.A.Kashinskiy chuchuk suvlari uchun 25, mineralallangan suvlari 24 ga ko'paytirishni taklif etdi. Demak, berilgan misolda nazariy jihatdan hisoblangan  $Na^{++}K^+$  ionining miqdori  $53,73 \cdot 24 = 1289,52$  mg/l teng. Ekvivalent shakl suvning umumiyligi mineralallanganligini tavsiflash uchun qo'llaniladi va u barcha ionlarning milligramm-ekvivalentlarining yig'indisiga teng.

Foiz-ekvivalent shakli ekvivalent shaklining o'zgargan shakli hisoblanadi. U har bir ionning suvda erigan barcha ionlarning umumiyligi yig'indisidagi nisbiy ulushini ko'rsatadi. Ekvivalent shaklida hisoblangan barcha ionlarning umumiyligi yig'indisi 100 % ga teng deb olinadi, bunda kationlar yig'indisi 50 % va anionlar yig'indisi 50 % deb hisoblanadi. Ba'zan kationlar va anionlarning har birini yig'indisi 100 % dan qabul qilinadi, u holda ionlarning umumiyligi yig'indisi 200 % ni tashkil etadi.

$$\Sigma r_a + \Sigma r_K = 100 \% - \text{ekv} \text{ (yoki } 200 \% - \text{ekv}).$$

Demak, anionlar va kationlar yig'indisining har biri 50 (yoki 100%-ekv) deb olinadi. So'ngra har bir ionning foiz miqdori, ya'ni foiz-ekvivalent shaklida ionlar miqdori hisoblanadi. Masalan, %  $r_{Na^+}$  quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$\% \text{rNa}^+ = \frac{\text{rNa}^+}{\sum \text{r}_{\text{a+k}}} \cdot 100 \quad \text{yoki} \quad \% \text{rNa}^+ = \frac{53,4}{200,0} \cdot 100 = 49,1,$$

$$\% \text{rCC}^{2+} = \frac{\text{rCC}^{2+}}{\sum \text{r}_{\text{a+k}}} \cdot 100 \quad \text{yoki} \quad \% \text{rCC}^{2+} = \frac{36,1}{200,0} \cdot 100 = 18,1$$

Foiz-ekvivalent shakl suvning ion-tuz tarkibini va ionlar orasidagi o'zaro nisbatni yaxshi ifodalaydi, shuningdek, har xil ko'rinishda mineralallangan suvlarning o'xshash tomonlarini belgilash imkonini beradi. Shuning uchun ham foiz-ekvivalent shakl keng tarqalgan.

Lekin, suvning ion-tuz tarkibini faqat foiz-ekvivalent shaklda ifodalash orqali undagi ionlarning absolyut miqdorini aniqlab bo'lmaydi. Shu sababli suv tarkibini faqat foiz-ekvivalent shaklda ifodalash bilan kifoyalanmasdan, shuningdek, parallel ravishda, suvning umumiy mineralallanganligini ekvivalent yoki ion shakllarida ham berish lozim.

2.1-rasmda suvning kimyoviy tahlili natijalarini parallel ifodalashning ion, ekvivalent va foiz-ekvivalent shakllari berilgan.

### Suvning kimyoviy tarkibi

$$\rho_4^{20} = 1,025 \text{g}, 02^3; t = 35^\circ\text{C}; \text{pH} = 6,5; G = 150 \text{e}5^3/\text{л}$$


### 2.2-jadval

Ionlar	100 g suvdagi miqdori		
	mg	mg-ekv/l	%-ekv
Cl <sup>-</sup>	3493,0	98,39	49,1
SO <sub>4</sub> <sup>2-</sup>	79,0	1,8	0,8
HCO <sub>3</sub> <sup>-</sup>	28,0	0,46	0,2
Ca <sup>2+</sup>	727,0	36,35	18,1
Mg <sup>2+</sup>	129,0	10,57	5,2
Na <sup>+</sup>	(-)1289,5	53,4	26,6
$\Sigma(a+k)$	5745,5	200,0	100,0

Jadvaldagagi natriyning ion shaklidagi miqdorini ko'rsatuvchi katakdagi chiziqcha tahlilning to'g'ridan-to'g'ri aniqlanmaganligini bildiradi. Bunday holatda natriyning milligram-ekvivalentdagi miqdori anionlar va kationlarning yig'indilari orasidagi farq bo'yicha aniqlanadi.

### **2.1.1. Kurlov formulasi bo'yicha ifodalash**

Suvning kimyoviy tarkibini qisqa va ixcham ko'rinishda ifodalash uchun Kurlov formulasidan foydalaniladi. Formula murakkab kasr ko'rinishida ifodalangan bo'lib, uning sur'atida anionlarning, mahrajida esa kationlarning foiz-ekvivalent shaklidagi miqdori ko'rsatiladi. Ionlar miqdori chapdan o'ngga kamayib borish tartibida yoziladi. Besh foiz-ekvivalent miqdordan kam bo'lgan ionlar ko'rsatilmaydi. Anion va kationlar miqdori butun sonlarda beriladi. Kasr chizig'ining chap tomonida erigan gazlar tarkibidagi asosiy komponentlar (serovodorod, karbonat angidrid gazi, yod, brom, bor) va minerallanganlikning g/l dagi qiymati keltiriladi. Kasr chizig'ining o'ng tomonida suv debiti miqdori (l/s yoki m<sup>3</sup>/sutka) va temperatura (°C da) ko'rsatiladi (1.2.-formula). Kurlov formulasi 1.2-jadvalda keltirilgan suv namunasi uchun quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:




Neft va gaz amaliyotida Kurlov formulasi bo'yicha yerosti suvlariiga nom beriladi. Dastlab suratdagi anionlar miqdorining kamayib borishiga (masalan, xlor-sul'fatli...), so'ngra maxrajdagi kationlar miqdorining kamayib borishiga qarab (masalan, natriy-kaltsiyli ...) o'qiladi. 2.2-jadvaldagi tahlil natijalariga ko'ra, suv xloridli-natriy-kaltsiy-magniyli suv deb ataladi.

Hozirgi vaqtida respublikamizning hamma artezian suv havzalaridagi va barcha neft-gazli regionlaridagi (Ustyurt, Buxoro-Xiva, Surxondaryo, Farg'ona, Janubi-G'arbiy Hisor) qatlama suvlaringin hamda mezozoy erasi yotqiziqlarida ochilgan mineral suvlarning kimyoviy tarkibi mufassal o'rganib chiqilgan.

## 2.1.2. Rodjers grafigi bo'yicha suvlarning tarkibini ifodalash

Palmer tavsiflari grafik tasvirlar (Rodjers grafigi) yordamida osongina hisoblanadi. Qayd qilish lozimki, suv tarkibini ifodalashning grafik usullari turli suvlar tarkibini o'zaro solishtirishda hamda ularni xarita va kesmalarda tasvirlashda keng qo'llaniladi.

Rodjers grafigi (2.3-rasm) uchta to'rtburchaklardan iborat. Chekkadagi to'rtburchaklarda anionlar va kationlar kimyoviy faolligining kamayib borishi tartibida joylashtirilgan. Har bir to'rtburchakning balandligi 50 %-ekv ga teng. O'rtadagi to'rtburchakda Palmer tavsiflari keltirilgan. Uning balandligi 100 %-ekv ga mos keladi. Rodjers grafigida suv tarkibi foiz-ekvivalentlarda beriladi va bu Palmer tavsiflarini tez aniqlash imkonini beradi.




2.3-rasm. K.R. Rodjers grafigi (A.A.Kartsev va b., 2001).

## 2.1.3. N.I. Tolstixin grafigi bo'yicha suvlarning tarkibini ifodalash

N.I. Tolstixinning doira-grafigi ayrim suv namunalarining ion-tuz tarkibini tasvirlashda keng qo'llaniladi. Bu grafik (2.4-rasm) suvning anion-kation tarkibini foiz-ekvivalentlarda aniq tasvirlash uchun mo'ljallangan. Belgilangan mashtabda chizilgan doira radiusi suvning umumiy minerallanganlik miqdorini ifodalaydi.


Doira-grafik yordamida suvlarning gaz tarkibini ham ifodalash mumkin.

Buning uchun oldin suvda erigan har bir gazning foiz miqdori (umumiyl gazga to'yinganlik 100 % deb qabul qilinadi) hisoblanadi. Doira radiusi yordamida suvning gazga umumiyl to'yinganligi miqdori ko'rsatiladi.



2.4- rasm. Tolstixinning doira-grafigi.

Stiff tomonidan taklif etilgan "Naqshlar" usuli shundan iboratki, asosiy ionlar (milligramm-ekvivalent shaklida) umumiyl o'qda ma'lum masshtabda kesma ko'rinishida ajratiladi. Kesmalarning oxiri siniq chiziqlar bilan birlashtiriladi va naqshlar hosil bo'ladi (2.5-rasm).



2.5- rasm. Stiffning naqsh-grafigi.

Har qanday gidrokimyoviy xarita mazmuniga ko'ra suvning kimyoviy tarkibini grafik ko'rinishda tasvirlash demakdir.

#### 2.1.4. O.A.Alekin tasnifidan tabiiy suvlarni tarkibini ifodalash

O.A.Alekin tasnifida (1.6-rasm) suvlar anionlar bo'yicha uch sinfga ajratiladi: hidrokarbonatli, sul'fatli va xloridli. Har bir sinf ichida kationlar bo'yicha ustunlikka ega – kal'siyli, magniyli, natriyli guruhlar ajratiladi. Har bir


guruhi o‘z navbatida ionlarning o‘zaro nisbatidan kelib chiqqan holda uch tipga bo‘linadi. Hammasi bo‘lib to‘rt tipdagisi suvlari ajratiladi:

Birinchi tip suvdagi o‘zaro nisbat-  $r\text{HCO}_3^- > (r\text{Ca}^{2+} + r\text{Mg}^{2+})$ ,

ikkinchi tipda -  $r\text{HCO}_3^- < (r\text{Ca}^{2+} + r\text{Mg}^{2+}) > (r\text{HCO}_3^- + r\text{SO}_4^{2-})$ ,

uchinchi tipda -  $(r\text{HCO}_3^- + r\text{SO}_4^{2-}) < (r\text{Ca}^{2+} + r\text{Mg}^{2+})$ .

To‘rtinchi tipdagisi suv  $\text{HCO}_3^-$  yerosti suvlari tarkibida mavjud emasligi bilan ajralib turadi. Bunday tipdagisi suvlari nordon bo‘lib, faqat sul'fatli hamda xloridli sinflarning kal’siyli va magniyili (birinchi tipdagisi suvlari mavjud bo‘lmagan) guruhlarida uchraydi.



2.6- rasm. Tabiiy suvlar tasnifining sxemasi (O.A.Alekin bo‘yicha).

### 3. SUVLARNING TASNIFI

#### 3.1. Qatlam suvlaring tasnifi

##### 3.1.1. Pal’mey bo‘yicha suvlarning tasnifi

Neft-gaz qazib chiqarish amaliyotida, odatda, suvlari tahlili ion, ekvivalent va foiz-ekvivalent shakllarida ifodalanadi. Bundan tashqari, Neft suvlarini baholashda Pal’mey tafsiflaridan ham foydalaniladi. A.A.Karsev va b. (2001)

fikricha, bunday tavsiflarga ko'ra ionlar kimyoviy faolligining kamayishi tartibi bo'yicha o'zaro birikib tuzlar guruhini hosil qiladi. Asosiy ionlarning faollik darajasining ketma-ketligi quydagicha: anionlar -  $\text{Cl}^-$ ,  $\text{SO}_4^{2-}$ ,  $\text{HCO}_3^-$ ; kationlar -  $\text{Na}^+$ ,  $\text{Mg}^{2+}$ ,  $\text{Ca}^{2+}$ .  $\text{Br}^-$ ,  $\text{I}^-$  ionlari  $\text{Cl}^-$  ionidan keyin,  $\text{H}^+$ ,  $\text{Fe}^{3+}$ ,  $\text{Al}^{3+}$  ionlari  $\text{Na}^{2+}$  ionidan keyin,  $\text{S}^{2-}$  ioni

$\text{fN}^-$  ioni dan keyin,  $\text{E}^-$  ioni  $\text{Na}^+$  ionidan oldin,  $\text{NH}_4^+$  ioni  $\text{Na}^+$  ionidan keyin joylashadi.

Frezenius qoidasiga ko'ra,  $\text{Cl}^-$  ioni  $\text{Na}^+$  ioni bilan birikadi;  $\text{Cl}^-$  ioni keragidan ortiq bo'lganda uning qoldig'i  $\text{Mg}^{2+}$  ioni bilan birikadi,  $\text{Mg}^{2+}$  ionidan ham ustun kelganda  $\text{Na}^{2+}$  ioni bilan birikadi.  $\text{Na}^+$  ioni keragidan ortiq bo'lganda uning qoldig'i  $\text{SO}_4^{2-}$  ioni bilan birikadi,  $\text{SO}_4^{2-}$  ionidan ham ustun kelganda u  $\text{HCO}_3^-$  ioni bilan birikadi:

Pal'mer tomonidan tuzlarning oltita tavsifi berilgan, ulardan quydagilari asosiy ahamiyatga ega: birinchi sho'r'lilik S1, ikkinchi sho'r'lilik S2, birinchi ishqoriylik A1, ikkinchi ishqoriylik A2.

Birinchi sho'r'lilik asos tuzlar va kuchli kislotalar bilan bog'liq, tabiiy suvlarda bular – natriy xloridi va natriy sul'fatidan yuzaga keladi. Ikkinci sho'r'lilik ishqorli yerlardagi metall tuzlari va kuchli kislotalar, ya'ni xloridlar hamda kal'siy va magniy sul'fatlari bilan aniqlanadi. Amalda ikkinchi sho'r'lilik suvning doimiy qattiqligidir.

Birinchi ishqoriylik ishqorli metallar va kuchsiz kislotalarning tuzlari bilan bog'liq bo'lib, tabiiy suvlarda u natriy gidrokarbonatidan ( $\text{NaHCO}_3$ ) iborat. Suvda soda mavjud bo'lsa, suv ishqorli reaksiyaga ega bo'ladi. Frezenius qoidasiga binoan suvda birinchi ishqoriylikning mavjudligi xuddi shu suvda ikkinchi ishqoriylikning mavjudlik ehtimolini yo'qqa chiqaradi. Suv S2 mavjud bo'lganda qattiq suvlarga, A1 mavjud bo'lganda – ishqorli suvlarga mansub bo'ladi.

Ikkinci ishqoriylik – ishqorli yerlardagi metall tuzlari va kuchsiz kislotalarning mavjudligi (kal'siy va magniy gidrokarbonatlari), ya'ni barrafat etsa bo'ladigan qattiqlikdir.

Asosiy tavsiflardan tashqari, Pal'mer bo'yicha, shuningdek, uchinchi sho'rlilik S3 hamda uchinchi ishqorlilik A3 ajratiladi, biroq ulami belgilovchi tuzlar tabiiy suvlarda kam uchraydi.

Uchinchi sho'rlilik kuchli kislotalarning uchvalentli metallar ionlari bilan kombinasiyasidan hosil bo'ladi. Ular temir, alyuminiy xloridlari va sul'fatlari, erkin tuz va oltingugurt kislotalariga bog'liq holda kelib chiqadi. Uchinchi sho'rlilikning mavjudligi suvning kislotalik xususiyatini aniqlaydi. Uchinchi ishqoriylik deganda kuchsiz kislotalarning uchvalentli kationlar bilan birikishi tushuniladi.

Pal'mer tavsiflari foiz-ekvivalent shaklida hisoblanadi:

$$(rC\lambda^- + rSO_4^{2-}) > rNa^+ \text{ bo'lganda:}$$

$$S_1 = 2rNa^+; A_1 = 0; S_2 = 2[(rC\lambda^- + rSO_4^{2-}) - rNa^+];$$

$$A_2 = 2[(rNa^+ + rCa^{2+} + rMg^{2+}) - (rC\lambda^- + rSO_4^{2-})] = 2rHCO_3^-$$

$$(rC\lambda^- + rSO_4^{2-}) < rNa^+ \text{ bo'lganda:}$$

$$S_1 = 2(rC\lambda^- + rSO_4^{2-}); A_1 = 2[(rNa^+ - (rC\lambda^- + rSO_4^{2-}))];$$

$$S_2 = 0; A_2 = 2[(rNa^+ + rCa^{2+} + rMg^{2+}) - (rC\lambda^- + rSO_4^{2-})].$$

Suv tarkibini Pal'mer tavsiflari yordamida ifodalash tabiiy suvlarda tuzlar mavjudligining molekulyar shakli ma'lumotlariga asoslangan. Chuchuk va kam minerallangan suvlarda parchalangan tuzlar ionlar ko'rinishida bo'lgani uchun ularga Pal'mer tavsiflarini qo'llab bo'lmaydi. Bundan tashqari, bu tavsiflar "Kuchli kislotalar" guruhiга birlashtirilgan xloridlar va sul'fatlar orasidagi kimyoviy farqni ko'rsatmaydi. Biroq Pal'mer tavsiflari yordamida ifodalangan suvlarning ishqorlilik, qattiqlik, kislotalik xususiyatlaridan suvlar tarkibini ifodalashning boshqa turlari bilan bir qatorda foydalanish mumkin.

### 3.1.2. V.A.Sulin bo'yicha suvlarning tasnifi

Tabiiy suvlarning kimyoviy tarkibi bo'yicha tasniflari juda ko'p va ular turli ko'rinishlarda beriladi. Lekin, ulardan ayrimlarigina Neft va gaz gidrogeologiyasida keng qo'llaniladi. Tasniflarning asosiy qismi suvlarning ion-tuz tarkibiga asoslangan bo'lsa, ba'zilarida ularning gaz tarkibi hisobga olinadi.

Tasniflarning asosi sifatida turli omillar – suvlarning hosil bo'lishi, ularning joylashish xarakteri, ular joylashgan tog' jinslarining xossalari, jins-

kollektorlarning gidravlik xususiyatlari, suvlarning kimyoviy tarkibi (ion-tuzli, gazli), suvlarning fizik xususiyatlari, suvli tog' jinslarining yoshi va sh.k. lar qabul qilingan.

Tabiiy suvlarning kimyoviy tasniflari quyidagi komponentlarning mavjudligiga asoslangan: erigan mineral moddalarning miqdori va tarkibi bo'yicha (Ch.Klark, S.A.Shukarev, V.A.Sulin); suvdan o'z-o'zidan ajralayotgan gaz tarkibi bo'yicha (A.M.Ovchinnikov); tabiiy suvlarda erigan gaz tarkibi bo'yicha (V.I.Vernadskiy), suvda mavjud bal'neologik nodir elementlar va birikmalar bo'yicha, turli komponentlarning yig'indisi bo'yicha, erigan mineral moddalarning tarkibi va suvlarda mavjud o'ziga xos kimyoviy komponentlar bo'yicha.

Ch.Klark, V.A.Aleksandrov, S.A.Shukarev, N.I.Tolstixinlarning tasniflari suvlar tarkibida anion va kationlarning ustunlik belgilari bo'yicha tuzilgan. Ch.Pal'mer o'z tasnifini tuzishda miqdoriy ustunlikni e'tiborga olmagan holda, ionlar guruhi va ionlar orasidagi o'ziga xos o'zaro nisbatlarga asoslangan. V.A.Sulin esa o'z tasnifini ionlarning miqdoriy ustunligini hamda ular orasidagi o'zaro nisbatni inobatga olgan holda tuzgan. O.A.Alekin ionlarning miqdoriy ustunligini afzal ko'rgan va shu omil bo'yicha kimyoviy tasnif tuzgan. Bir qator tasniflarda komponentlar asosiy ionlarining ustunligi asos qilib olingan. Bu tasniflarning yutug'i - ularning soddaligidadir. Ularda suvlarning uch sinfi ajratiladi – gidrokarbonatlari, sul'fatli va xlorli. Bu sinflarning har biri yana uch kichik sinfga bo'linadi: kal'siyli, magniyli va natriyli. Suvlarni bunday sinflarga ajratishda aralash tarkibli suvlar sinflari va kichik sinflari ajratilmaganligi tasnifning asosiy kamchiligi hisoblanadi. Ma'lumki, ko'p hollarda ionlarning taxminan teng miqdorlarda bo'lishi kuzatiladi.

S.A.Shukarev tomonidan taklif etilgan tasnidada esa uchta asosiy anionning biri yoki bir nechtasi va uchta asosiy kationning biri yoki bir nechtasi ustunlikka ega bo'lgan hamda ularning har birini miqdori 12,5 %- ekv dan yuqori bo'ladagan (anionlar va kationlarning har birini yig'indisi 50 %- ekv dan hisoblanganda) vaziyat qabul qilingan. Anionlar bo'yicha ustunlikka ega bo'lgan suvlar xloridli, gidrokarbonat-xloridli, xlorid-sul'fat-gidrokarbonatlari va h.k. nomlar bilan, kationlar

bo'yicha ustunlikka ega suvlar esa natriyli, natriy-kal'siyli, natriy-magniy-kal'siyli va h.k. nomlar bilan ataladi.

L.S.Balashov tomonidan ionlar tarkibi bo'yicha tuzilgan suvlarning eng to'liq tasnifi taqdim etilgan. U oltita asosiy ionlar bilan bir qatorda boshqa, ba'zan ustunlikka ega bo'lgan ionlarni ham hisobga olgan. Suvlarni bunday ajratish sanoat mineral suvlarini baholashda va rudali konlarni izlashda muhim ahamiyatga ega. Suvlarning tiplari ionlar bo'yicha, kichik tiplari esa kationlar bo'yicha farqlanadi; ikkinchi darajali ionlar bo'yicha sinflar (aniqlanayotgan suv uchun) farqlanadi. Ustunlikka ega bo'lgan anion miqdori 95 % dan yuqori bo'lsa, suvlarning «sof» tiplari, agar bu shart bajarilmasa aralash tiplari ajratiladi. L.S.Balashovning fikricha hali aniqlanmagan, noma'lum bo'lgan suv tiplari, kichik tiplari va sinflari soni cheksiz. Mazkur tasnif taklif etilgan paytga (1970) qadar suvlarning sakkizta sof tipi, ya'ni xloridli, sul'fatli, gidrokarbonatli, karbonatli, bisul'fatli, ftorli, natriyli, gidrosilikatli tiplari aniqlangan edi.

Neft-gaz gidrogeologiyasida Ch.Pal'merning tasnif elementlari ishtirok etgan va V.A.Sulin tomonidan ishlab chiqilgan tasnif keng qo'llaniladi. Aynan Ch.Pal'merning tasnifi "burg'ilash" suvlarining birinchi tasnifi bo'lib, undagi suvlar ionlar nisbati va tuzlar tavsifi bo'yicha besh sinfga bo'lingan (3.2-jadval).

L.S.Balashov tomonidan ionlar tarkibi bo'yicha tuzilgan suvlarning eng to'liq tasnifi taqdim etilgan. U oltita asosiy ionlar bilan bir qatorda boshqa, ba'zan ustunlikka ega bo'lgan ionlarni ham hisobga olgan. Suvlarni bunday ajratish sanoat mineral suvlarini baholashda va rudali konlarni izlashda muhim ahamiyatga ega. Suvlarning tiplari ionlar bo'yicha, kichik tiplari esa kationlar bo'yicha farqlanadi; ikkinchi darajali ionlar bo'yicha sinflar (aniqlanayotgan suv uchun) farqlanadi. Ustunlikka ega bo'lgan anion miqdori 95 % dan yuqori bo'lsa, suvlarning «sof» tiplari, agar bu shart bajarilmasa aralash tiplari ajratiladi. L.S.Balashovning fikricha hali aniqlanmagan, noma'lum bo'lgan suv tiplari, kichik tiplari va sinflari soni cheksiz. Mazkur tasnif taklif etilgan paytga (1970) qadar suvlarning sakkizta sof tipi, ya'ni xloridli, sul'fatli, gidrokarbonatli, karbonatli, bisul'fatli, ftorli,

natriyli, gidrosilikatli tiplari aniqlangan edi. Suvlarning tasnifi (Ch.Pal'mer bo'yicha).

### 3.2-jadval

Sinf	Ionlar nisbati	Pal'mer tafsiflari	Izoh
1	$r\text{Na}^+ > (r\text{Cl}^- + r\text{SO}_4^{2-})$	A1>0; S2=0; S3=0	Ishqorli (yumshoq suvlar)
2	$r\text{Na}^+ = (r\text{Cl}^- + r\text{SO}_4^{2-})$	A1=0; S2=0; S3=0	Amalda uchramaydi
3	$r\text{Na}^+ < (r\text{Cl}^- + r\text{SO}_4^{2-})$	A1=0; S2>0; S3=0	Qattiq suvlar
4	a) $(r\text{Na}^+ + r\text{Ca}^{2+} + r\text{Mg}^{2+}) > (r\text{Cl}^- + r\text{SO}_4^{2-})$ b) $(r\text{Na}^+ + r\text{Ca}^{2+} + r\text{Mg}^{2+}) = (r\text{Cl}^- + r\text{SO}_4^{2-})$	A1=0; A2=0; S3=0	Amalda uchramaydi
5	$(r\text{Na}^+ + r\text{Ca}^{2+} + r\text{Mg}^{2+}) < (r\text{Cl}^- + r\text{SO}_4^{2-})$	A1=0; A2=0; S3>0	Nordon suvlar

Tabiatda 2- va 4- sinfdagi suvlar deyarli uchramaganligi sababli, barcha suvlar faqat 3 sinfga bo'linadi. Bu tasnifning kamchiligi sifatida quyidagilarni qayd qilish mumkin: sinflarga ajratishdagi yuzaki yondashuv, faqat uch sinfga ajratishdagi umumiylilik, turli ionlarning miqdoriy tarkibini aniqlanmaganligi, ionlarni turli tuzlar tavsifiga ko'ra shartli ravishda birlashtirish.

Sulin tasnifida tabiiy suvlar asosiy ionlarning mutanosibliklari bo'yicha to'rt tipga bo'lingan (2.4-jadval). Har bir suv tipi o'z navbatida uch guruhga bo'linadi, har bir guruh esa anion yoki kationlar miqdorining ustunligiga ko'ra o'z ichiga uch kichik guruhnini oladi. Tasnif foiz-ekvivalent shaklida ifodalanadigan uch asosiy koeffisientga asoslanib tuzilgan:

$$\frac{r\text{Na}^+}{r\text{Cl}^-}, \quad \frac{r\text{Na}^+ - r\text{Cl}^-}{r\text{SO}_4^{2-}}, \quad \frac{r\text{Cl}^- - r\text{Na}^+}{r\text{Mg}^{2+}}$$

### Suvlarning tasnifi (V.A.Sulin bo'yicha)


### 3.3-jadval

Suv tipi	$\frac{r\text{Na}^+}{r\text{Cl}^-}$	$\frac{r\text{Na}^+ - r\text{Cl}^-}{r\text{SO}_4^{2-}}$	$\frac{r\text{Cl}^- - r\text{Na}^+}{r\text{Mg}^{2+}}$
Gidrokarbonat-natriyli	>1	>1	-
Sul'fat-natriyli	>1	<1	-

Xlorid-magniyli	<1	-	<1
Xlorid-kal'siyli	<1	-	>1

V.A.Sulin ajratilgan bunday suv tiplarini "genetik" tiplar deb atadi. Chunki ularning tarkibi suvlarning yer qa'rida paydo bo'lishi va joylashishining asosiy tabiiy sharoitlarini bildiradi.

V.A.Sulin tabiiy suvlar tasnifining grafik ifodasini tuzishda ikkita o'zarotutashgan kvadratdan foydalandi (3.1-rasm). Kvadratlarning tomonlariga "genetik" koeffisientlarning suratidagi va maxrajidagi miqdorlari yoziladi. Har bir suv tipi grafikdagi kvadratning diagonal' yordamida bo'linishdan hosil bo'lgan uchburchak qismini egallaydi va anion miqdori bo'yicha ustunlikka ega uchta guruhni o'z ichiga oladi. Shunday qilib, suvlarning xloridli, sul'fatli va gidrokarbonatli guruhlari ajratiladi.



### **3.1-rasm. Tabiiy suvlar tarkibining diagrammasi**

(V.A.Sulin bo 'yicha).


Sulin tasnididan amaliyotda foydalanish shuni ko'rsatdiki, koeffisientlar miqdori 1 dan kam farqlanganda, ya'ni suvni bir tipdan boshqa tipga o'tish zonalarida, ularni o'tish tiplariga mansub deb qabul qilish zarur bo'ladi. Kation bo'yicha ustunlikka ega bo'lgan guruhlar quyidagi kichik guruhlarga bo'linadi: natriyli, magniyli va kal'siyli. Ammo, ustunlikka ega kation ustunlikka ega anion bilan asosiy tuz massasini hosil qilaolsa ularni kichik guruhlarga bo'lish mumkin.

V.A.Sulin suvning kimyoviy tarkibi bo'yicha paydo bo'lishi va mavjudlik holatlarini aniqlash mumkinligini topdi va u suvlarning kimyoviy tasnifini tuzishga asos bo'ldi. Uning fikricha, suvlarning kimyoviy tarkibi ularning muayyan tabiiy sharoitda hosil bo'lish sharoitlari bilan aniqlanadi. Shunga ko'ra, Yer yuzasida

uchta: kontinental, dengiz va yerosti sharoitlari ajratiladi. Mazkur tasnifning ustunlik tomoni shundaki, undan foydalanim, suvning hosil bo'lish sharoitini muayyan aniq darajada aniqlash mumkin. Tasnifning kamchiligiga suvning tiplari nomi tuzlar nomidan kelib chiqqanligini keltirish mumkin.

Tabiiy suvlarning ion-tuz tarkibli tasniflari bilan bir qatorda tabiiy suvlarda erigan gazlar tarkibi bo'yicha ham tasniflari (masalan, V.I.Vernadskiy tasnifi) mavjud. Lekin amalda bu tasniflar keng ko'lamda qo'llanilmadi.

1954 yilda A.M.Ovchinnikov tomonidan tabiiy suvlar sharoitining gaz tarkibini aniqlash qoidalari va shu sharoitdagи suvlarning ustun komponentlari bo'yicha zonalarga ajratish tasnifi taklif etildi. Bu tasnifni vertikal holatda joylashgan uchta kvadratlardan tuzilgan sxema-grafik ko'rinishida ifodalash mumkin (3.2-rasm).



### **3.2- rasm. Tabiiy suvlarning gidrogeokimyoiy sistemasi (A.M.Ovchinnikov bo'yicha).**

Ustki kvadratda oksidlanish sharoitining gazlariga (azot, kislород, karbonat kislota) ega bo'lgan suvlar, o'rtadagi kvadratda tiklanish sharoitining gazlariga (metan, serovodorod, karbonat kislota, azot) ega bo'lgan suvlar, pastki kvadratda esa metamorfik sharoitning gazlariga (asosan karbonat kislota) ega bo'lgan suvlar tavsifланади. Har bir kvadratning abssissa o'qi bo'yicha o'ng tarafдан chap tarafга qarab asosiy kationlar qo'yiladi, ordinata o'qi bo'yicha esa yuqoridan pastga qarab asosiy anionlar qo'yiladi. Har bir kvadrat diagonal

bo'yicha ikki qismga bo'lingan va  $r\text{Na}^+ / r\text{Cl}^- = 1$  miqdorga to'g'ri keladi. Bu esa o'z navbatida ionlar orasidagi nisbatni aniqlash imkonini beradi.

Barcha suvlar 24 sinfga bo'linadi va rim raqamlari bilan belgilanadi. Rim raqamlari ostidagi indekslar mos keluvchi sharoitlarni ( $\sigma$  – oksidlanish,  $t$  – tiklanish,  $m$  – metamorfik) bildiradi. Oksidlanish sharoiti suvlarda azot, kislород va karbonat kislota mayjudligi bilan aniqlanadi. Bunday sharoit yer yuzasidagi suvlarda va chuqur bo'limgan yerosti suvlarda uchraydi. Tiklanish sharoiti suvlarda metan, serovodorod, karbonat kislotosi va biogen azotlari mavjudligi bilan aniqlanadi. Bunday sharoit katta chuqurliklardagi suvlarga, jumladan neftli qatlamlardagi suvlarga xos. Metamorfik sharoit esa karbonat kislota miqdorining ko'pligi bilan aniqlanadi va bunday sharoit yosh vulqonlar mavjud bo'lgan maydonlarda uchraydi.

## 4. FIL'TRATSIYA OQIMI ELEMENTLARI

### 4.1. Yerosti suvlari va nimakoblarning harakatlanishi

Litosferadagi suvlar va namakoblar harakatlanish belgilariga ko'ra bir necha turlarga bo'linadi. Gidromexanika nuqtai nazardan birinchi navbatda turbulent va laminar ko'rinishdagi harakatlanish turlarini ko'rib chiqamiz.

*Turbulent* harakatlanish kam kuzatiladi, u asosan karst suvlarda namoyon bo'ladi. Turbulent harakat katta tezlikda, girdobli aralashmalar, ayrim joylarda uzlukli oqimlar hosil qiladi. U yoriqlar, darzliklar bilan bo'linib ketgan tub va toshqotgan jinslarda, yirik zarrali shag'al, xarsangtosh jinslar ichida sodir bo'ladi. Yerosti suvlari harakatlanishidagi eng katta tezlik turbulent harakatlanish jarayonida kuzatiladi. Yerosti daryolarida (karst zonalarida) suvlarning harakatlanish xarakteri va tezligi Yer yuzasi (daryo) suvlarning harakatlanish xarakteri va tezligidan amalda farq qilmaydi. Lekin bunday holatdagi suvlarning harakatlanishi tabiatda nisbatan kam uchraydi.

*Laminar* ko'rinishdagi harakatda qatlam jinslari ichida suv parallel holda uzluksiz oqimlar hosil qilib harakatlanadi va u Darsi qonuniga bo'ysinadi. Suvning

laminar harakati bir xil tarkibli qum, lyoss, qumtosh va boshqa jinslar ichida sodir bo‘ladi.

Yerosti suvlari har xil tarkibli eritmalardan iborat. Sh u sababli, ularning umumiyoq ko‘rinishdagi harakatlanishini kuzatayotganda turli tarkibli fizik va kimyoviy suyuqliklar va ularda erigan moddalarning harakatlanishini e’tiborga olish lozim. Suyuqliklarning harakatlanishiga fizik-kimyoviy omillarning ko’rsatadigan ta’siri bilan bog‘liq masalalarni *fizik-kimyoviy gidrodinamika* fani o‘rganadi.

Fizik-kimyoviy gidrodinamika nuqtai nazardan Yerosti eritmalari harakatlanishining quyidagi asosiy turlari ajratiladi (A.A.Karsev va b.):

- 1) majburiy konveksiya (filtratsiya) – suyuqlikka nisbatan tashqi bosimlar gradienti ta’siri ostida sodir bo‘ladi;
- 2) tabiiy konveksiya (filtratsiya) – suyuqliklarning zinchliklari orasidagi farqi (gradienti) ta’siri ostida sodir bo‘ladi;
- 3) molekulyar diffuziya - eritma tarkibidagi erigan moddalar konsentratsiyalari oralig‘idagi farq (gradienti) ta’siri ostida sodir bo‘ladi.

Qayd qilingan harakatlanish turlari birgalikda ham sodir bo‘lishi mumkin, masalan konvektiv diffuziya ko‘rinishida va sh.k. Majburiy konveksiya (filtratsiya) jarayoni gidrogeologiya fani uchun muhim ahamiyatga ega. Sh uning uchun u to‘liq o‘rganilgan.

#### **4.2. Fil’tratsiya oqimi elementlari: Darsi qonuni, p’ezometrik bosimning sxemasi, sizish tezligi**

Fil’tratsiya (sizish) oqimi deb g‘ovakli yoki g‘ovak-darzli muhit (tug‘ jinsi) dan oqib o‘tgan suyuqlik va gazlarning shartli oqimiga aytildi. Asosiy (real) oqim faqat ochiq (o‘zaro tutash) g‘ovaklar va darzliklar orqali oqib o‘tsa ham, shartli ravishda u butun tug‘ jinsi bo‘ylab oqib o‘tdi deb qabul qilinadi.

Fil’tratsiya oqimi elementlariga: p’ezometrik (gidrostatik) bosim, bosim gradienti, teng bosimlar chizig‘i, tok chiziqlari, fil’tratsiya tezligi va oqim sarfi mansub.

Oddiy sharoitlar uchun fil'tratsiyaning chiziqli qonuni (Darsi qonuni) quyidagi ko'rnishga ega:

$$Q = k_{\phi} F \frac{\Delta H}{\Delta \lambda}, \quad (4.1)$$

bunda  $Q$  – oqim sarfi;

$k_{\phi}$  – fil'tratsiya koeffisienti, uning qiymati fil'tratsiya bo'layotgan

muhit (tog' jinsi) ning va fil'trlanayotgan suyuqlikning xossasiga bog'liq;

$F$  – fil'tratsiya bo'layotgan muhitning ko'ndalang kesim yuzasi;

$\Delta H$  – bosimlar farqi;

$\Delta \ell$  – fil'tratsiya oqimi maydonining uzunligi.

Yerosti suvlarining bosimi (p'ezometrik bosimi -  $H$ ) quyidagicha aniqlanadi:

$$H = \frac{p}{\rho g} + z, \quad (4.2)$$


bunda  $r$  – oqimning berilgan nuqtasidagi gidrostatik bosim;

$\rho$  – suvning zichligi;

$g$  – erkin tushish-tezlanishi;

$z$  – oqimning o'r ganilayotgan nuqtasining taqqoslash tekisligiga nisbatan balandiliği ("nuqta balandligi").

$p/\rho$  nisbati yoki  $hp$  p'ezometrik balandlik ("bosim balandligi") deb ataladi. Bu balandlik' suv oqimining shu nuqtasidan 'gidrostatik bosim ta'sirida suv sathining ko'tarilgan balandligiga teng. Grunt suvlari oqimida  $p/\rho$  nisbatning qiymati grunt suvlari sathidan ushbu nuqtagacha bo'lган chuqurlikka, bosimli suvlar holatida esa – p'ezometrik yuzadan ushbu nuqtagacha bo'lган balandlikka teng (3.1-rasm).



**4.1- rasm.** Yerosti suvlarining p'ezometrik bosimining sxemasi  
(A.A.Karsev va b. bo'yicha).

Gidravlik nishablik (bosim gradienti) – fil'tratsiya yo'nalishi bo'yicha ma'lum bir masofada (uzunlik birligida) bosimning pasayish qiymati. Gidravlik nishablik bir metr yoki kilometr masofada joylashgan ikki nuqtadagi yerosti suvlarining mutlaq balandliklari qiymati farqi ( $H_1-H_2$ ) ning ular orasidagi masofa ( $\Delta\ell$ ) ga nisbati orqali hisoblanadi. Darsi formulasi bo'yicha gidravlik nishablik (qiyalik) quyidagicha ifodalanadi:  $i=\Delta H / \Delta \ell$ .

$i=\Delta H / \Delta \ell$  tenglikdan foydalanib, Darsi formulasini quyidagi ko'rinishda ifodalash mumkin:

$$Q=k\phi F \cdot (\Delta H / \Delta \ell) = k\phi F \cdot i . \quad (4.3)$$

Oqim chegarasidagi bosimlar p'ezometrik sathning joylashish holatiga mos holda taqsimlanadi. Hamma nuqtalaridagi bosimlar bir xil bo'lgan yuza teng bosimlar yuzasi deb ataladi. Bu yuzalaming suvli qatlarning ustki yuzasi bilan kesishidan hosil bo'lgan chiziqlar teng bosimlar chizig'I deb ataladi. Bu chiziqlarning gorizontali yuzadagi proeksiyasi – gidroizop'ezlar (grunt suvlarida – gidroizogipslar) deyiladi.

Teng bosimlar yuzasi tok chiziqlarini to'g'ri burchak ostida kesib o'tadi. Teng bosimlar chiziqlari va ularga perpendikulyar bo'lgan tok chiziqlari sistemasi gidrodinamik to'rnii hosil qiladi.

Oqim miqdorini fil'tratsiya muhitining ko'ndalang kesim yuzasiga bo'lgan nisbati bo'yicha fil'tratsiya tezligi ( $v$ ) aniqlanadi, ya'ni

$$v = \frac{Q}{F} = k_f \cdot i, \quad (4.4)$$

Demak, fil'tratsiya tezligi fil'tratsiya koeffisientining gidravlik nishablikka ko'paytmasiga teng.

Tog' jinslarida harakatlanayotgan suvning fil'tratsiya tezligi ( $v$ ) fil'tratsiya koeffisienti ( $k_f$ ) va bosim 46ata46ent ( $i$ ) ga to'g'ri proporsional va fil'tratsiyalananayotgan suyuqlikning qovushqoqligiga teskari proporsional. O'tkazuvchanlikni ko't bilan, qovushqoqlikni esa  $\mu$  bilan belgilab, Darsi qonunini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$v = \frac{k_{\text{f}} \cdot \rho}{\mu} \cdot i, \quad (4.5)$$

Gidrogeologiya (ayniqsa Neft-gaz hidrogeologiyasi) fanida Darsi qonunini qo'llanilishining eng pastki chegaralari bo'yicha, ya'ni muhit o'tkazuvchanligi, gidravlik nishablik va fil'tratsiya tezligining eng kichik miqdorlari bo'yicha (shuningdek, suyuqlik qovushqoqligining eng 46ata miqdori bo'yicha) masalalarni yechish muhim ahamiyat kasb etadi. Keyingi vaqtarda tadqiqotchilar fil'tratsiya qonunining umumiy ko'rinishini tezliklar bo'yicha hisoblashni quyidagi shaklda yozish mumkin degan xulosaga kelmoqdalar:

$$I < L_H \text{ bo'lganda } v = k_f (I - i_H), \quad (4.6)$$

bunda,  $i_H$  – fil'tratsyaning boshlang'ich gradienti.

Amaliyotda suyuqlikning harakatlanishi gidravlik gradient belgilangan miqdor (mavjud ma'lumotlar bo'yicha 10-3) dan oshgandagina boshlanishi mumkin.

## 5. BOSIMNI ANIQLASH

### 5.1. Keltirilgan bosimni aniqlash

Yer qa'rida chuchuk suvlar, minerallangan suvlar va namakoblar uchraydi. Chuchuk va minerallangan suvlar hamda namakoblar bitta suvli qatlama, bitta filtratsiya oqimida uchrashi mumkin. Shuning uchun bitta filtratsiya oqimidan sizib chiqayotgan suyuqliklar tarkibi va xossalari bo'yicha har xil bo'lishi mumkin. Filtratsyaning chiziqli qonunida sizilayotgan suyuqliklarning zichligi va qovushqoqligi ularni tavsiflovchi miqdorlar sifatida xizmat qiladi. Shuningdek,

tabiiy suvlar va namakoblarning qovushqoqligi ularning minerallanganligiga to‘g‘ri proporsionalligi ma’lum. Sh unday qilib, bir xil sharoitlarda minerallangan suvlar va namakoblarning sizish tezligi chuchuk suvlarning sizish tezligidan kichik bo‘ladi. Masalan, V.N. Korsenshteynning ma’lumotlari bo‘yicha chuchuk suvlarning 20 °C temperaturadagi sizish tezligi Buxoro-Xiva neft-gazli regionidagi paleozoy yotqiziqlari namakoblarning sizish tezligidan 1,72 marta yuqori. Bu ko‘rsatkich temperatura yanada ko‘tarilganda kamayib boradi, 100–150 °C etganda bu nisbat butunlay boshqacha ko‘rinish oladi.

Bitta filtratsiya oqimidagi suyuqliklar xususiyatlarining har xilligini suyuqlikning bosimi va bosim gradientini aniqlashda hisobga olish lozim. Bosim va pezometrik balandlik qiymatlari suyuqlikning zichligiga bog‘liq..

Agar faqat chuchuk suvlar (ularning zichligi birga teng) bilan ish ko‘rilsa, u holda pezometrik balandlikni son jihatdan gidrostatik bosimga teng deb qabul qilinadi, shu bilan birga quduqdagagi statik sathlar bo‘yicha bevosita gidroizopez xaritalarini tuzish, gidravlik nishablikni aniqlash va sh.k. bajarish mumkin.

Zichligi birdan yuqori va shuningdek, uning qiymati qatlamning har xil joylarida turlicha bo‘ladigan minerallangan suvlar va namakoblarda esa umuman o‘zgacha xolat kuzatiladi. Bunday joylarda quduqlarda o‘lchangan statik sathlar bo‘yicha gidravlik nishablikni va oqim yo‘nalishini bevosita aniqlab bo‘lmaydi, chunki ushbu statik sathlarning qiymatlari, shuningdek, suyuqliklarning zichligiga ham bog‘liq bo‘ladi.

**Keltirilgan bosim.** Suyuqliklar tarkibining har xilliligi ta’sirini bartaraf etish uchun keltirilgan bosim aniqlanadi. Keltirilgan bosimni hisoblashni bir necha usullari ma’lum.

I.Ya. Yermilov bo‘yicha minerallangan suvlar va namakoblarning bosimlari chuchuk suvlarning bosimlariga qayta hisoblanadi va umumiylashtirish tekisligiga keltiriladi. Hisob-kitoblar quyidagi formula yordamida bajariladi:

$$\rho_{kel} = (h+z)\rho, \quad (5.1)$$

bunda,  $\rho_{kel}$  – keltirilgan bosim;

$h$  – quduqdagagi suvning statik sathi;

$\rho$  – quduqdagi suvning zichligi;

$z$  – quduq tubidan taqqoslash uchun tanlangan tekislikkacha bo‘lgan balandlik.

Hisoblashlarning ushbu eng sodda usulidan suvlarning minerallanganlik va zichlik qiymatlari orasidagi farq juda kichik bo‘lgan holatdagina foydalanish mumkin.

A.I.Silin-Bekchurin fikricha minerallangan suvlar va namakoblar bosimlari shartli ravishda olingan zichlikdagi suvlarning bosimiga qayta hisob-kitob qilinadi. Bu hisob-kitoblarda quduq tubining taqqoslash uchun tanlangan tekislikka nisbatan joylashishi va shu tekislikdagi suvning zichligi asosiy omil sifatida xizmat qiladi. Bu usul suv zichligini qatlamning yotish chuqurligiga funksional bog‘liqligiga asoslangan. Keltirilgan bosim chuqurlik funksiyasi ko‘rinishida quyidagicha ifodalanadi:

$$p_{\text{kes}} = p_i + \int_a^b \rho_z dz, \quad (5.2.)$$

bunda,  $p_i$  – oqim bo‘yicha o‘tkazilgan istalgan tekislikdagi o‘lchangan gidrostatik bosim;

$$\int_a^b \rho_z dz - a \text{ va } i \text{ tekisliklar orasidagi suyuqlik ustunining statik bosimi.}$$

Bu formuladan kesim mukammal gidrokimyoviy tadqiqotlar natijasida o‘rganilganda foydalanish mumkin, lekin u amalda qo‘llanilmaydi.

Keltirilgan bosimni taxminan hisoblash uchun A.I.Silin-Bekchurin tomonidan quyidagi formula taklif etilgan:

$$p_{\text{kes}} = h \rho_1 + \frac{\rho_1 + \rho_2}{2} z, \quad (5.3.)$$

bunda,  $h$  – quduqdagi statik sath;


$\rho_1, \rho_2$  – mos holda quduqdagi va taqqoslash uchun tanlangan tekislikdagi suvning zichligi;

$z$  – taqqoslash tekisligidan quduq tubigacha bo‘lgan masofa – balandlik.

(3.9) формула зичликнинг чукурлик сари то‘ғри чизикли о‘згаришини

аниқлаш учун мо’лжалланган. Оддий шароитларда бу формуланинг хатолиги бир неча фойизни ташкил этади.

Taqqoslash tekisligini to‘g‘ri tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. U quyidagi shartga javob berishi kerak: taqqoslash tekisligi kesib o‘tgan suvli qatlamni barcha nuqtalaridagi gidrostatik bosim bir xil bo‘ladi. Bu shart qatlamdagi suyuqlikning zichligi uning hamma nuqtalarida bir xil bo‘lgan tekisliklardagina bajariladi, umumiy sharoitda esa faqat suyuqlik zichligi maksimal bo‘lgan tekisliklarda bajariladi (5.1.-rasm.k., a3, a4).



5.1.-rasm. Egilgan qatlamdagi mineralallangan va chuchuk suvlar bosimlarini taqqoslash tekisligida tanlash sxemasi (A.I.Silin-Bekchurin bo‘yicha).

5.1.-rasmdan taqqoslash tekisligini tanlashda qator qiyinchiliklarga duch kelinishi ko‘rinib turibdi. Shuning uchun amaliyotda taqqoslash tekisligini tanlashda ko‘pincha maksimal zichligi aniqlangan suvli qatlamning chuqurligi olinadi. Kam o‘rganilgan rayonlarda bu usuldan foydalanish bosim gradientlari kichik bo‘lgan maydonlarda qo‘pol xatoliklarga olib kelishi mumkin.

Hozirgi vaqtida (5.3.) formuladan keltirilgan bosimlarni hisoblashda foydalaniladi. Gidravlik nishablik nisbatan yuqori bo‘lgan rayonlarda (tog‘lararo va tog‘oldi botiqlarida) taqqoslash tekisligi to‘g‘ri tanlanganda, bu formula yordamida nisbatan aniq natijalar olish mumkin; bunday sharoitlarda xatolik 2–4 % bo‘lsa, uni hisobga olmasa ham bo‘ladi.

Taqqoslash tekisligi shartli ravishda tanlanganligi sababli ularni aniqlashda xatoliklar yuzaga keladi. I.K.Zerchaninov (1960) tanlangan kesmalar bo‘yicha

quduqlardagi bosimlarni birin-ketin juft-jufti bilan taqqoslash usulini tavsiya etdi. Bu usulning asosida quyidagi tenglik yotadi:

$$P_{\text{kes}}' = (h_1 \rho_1 + z' (\rho_1 + \rho_2)/2 - h_2 \rho_2), \quad (5.4.)$$

bunda,

$P_{\text{kes}}$  – taqqoslanayotgan quduqlardagi keltirilgan bosimlar orasidagi farq;

$h_1$  va  $\rho_1$  – birinchi quduqdagi (tanlangan kesma bo'yicha) suvning statik sathi va zichligi;

$h_2$  va  $\rho_2$  – ikkinchi quduqdagi (tanlangan kesma bo'yicha) suvning statik sathi va zichligi;

$z'$  – suvli qatlamni ikkita quduqda ochilgan chuqurliklari orasidagi farq.

Bu usul A.I.Sulin-Bekchurin formulasi (5.3.) ga asoslangan bo'lsada, undan umumiy taqqoslash tekisligida foydalanimaydi.

V.V.Yagodin keltirilgan bosimlarni hisoblash usullaridan yana birini tavsiya etdi. Bu usul yordamida keltirilgan bosimlar suvlari zichligining chuqurlik ortgan sari empirik egri chiziq bo'yicha o'zgarishi hisoblanadi. Bunda zichlikning chuqurlik bo'ylab to'g'ri chiziqli ko'rinishda o'zgarishidan yuzaga keladigan xatolikni bartaraf etish imkoniyati yaratiladi.

V.V.Yagodin usuli bo'yicha keltirilgan bosim quyidagi formula yordamida hisoblanadi:


$$P_{\text{kes}} = h\rho + \int_{H_1}^{H_2} \rho_2 dz / (h/a)^{1/h} dh, \quad (5.5.)$$

yoki integral hisoblangandan so'ng

$$P_{\text{kes}} = h\rho + \frac{I}{a^{1/h}} - \frac{I}{1/h + I} (H_2^{1/h+1} - H_1^{1/h+1}). \quad (5.6.)$$

(5.5.) va (5.6.) formulalarda  $p_{\text{kes}}$  – keltirilgan bosim;  $H_1$ ,  $H_2$ ,  $h$  qiyamatlari 5.2.- rasmida ko'rsatilgan;  $a$  va  $n$  – zichlikni chuqurlik –  $H = a\rho$  bo'yicha o'zgarishi empirik egri chizig'inining logarifmik tenglamasining koeffisientlari.  $a$  va  $n$  koeffisientlari egri chiziqda tanlangan ixtiyoriy ikki nuqta bo'yicha tuzilgan ikki tenglamani yechish orqali aniqlanadi. Bundan avval zichlikning chuqurlik

bo'yicha to'g'ri chiziqli ( $H$  ni  $\rho$  ga nisbatan) o'zgarishini logarifmlab, tanlangan funksiyaning to'g'riliqiga ishonch hosil qilamiz.



**5.2.- rasm.** Bosimlarning taqqoslash tekisligiga keltirishning sxematik ko'rinishi (V.V. Yagodin bo'yicha).

V.V.Yagodin formulasining A.I.Sulin-Bekchurin formulasiga nisbatan yutuq tomoni to'g'ri chiziqli qonunga javob beruvchi  $(\rho_1+\rho_2)/2z$  ifodasini quyidagi ifoda bilan almashtirish uchun hisoblanadi:

$$\int_{H_1}^H \rho_z dz (h/a)^{1/\alpha} dh$$

Bu ifoda chuqurlik ortgan sari yerosti suvlar va namokoblar zichligining tabiiy sharoitlarga ko'ra o'zgarishi logarifm qonuniga javob beradi.

V.V. Yagodin usulidan yaxshi o'rganilgan rayonlarda batafsil tadqiqotlar o'tkazilganda foydalanish mumkin. Faqt shunday sharoitlardagina chuqurlik o'zgarishi bilan suvlar va namokoblar zichligining o'zgarish xarakterini aniqlash hamda taqqoslash tekisligini to'g'ri tanlash mumkin.

Ayrim hollarda temperatura ortishi bilan suv zichligi kamayadi, shunga ko'ra keltirilgan bosimlarni aniqlashda murakkabliklar yuzaga keladi. Ko'pincha, yer yuzasida o'lchangan suvning zichligi qatlama sharoitida o'lchangan zichligidan farq qiladi. I.M.Kruglikov keltirilgan bosimlarni aniqlashda qatlama temperaturasini hisobga olish lozimligini ta'kidlagan. Temperaturasi yuqori bo'lgan ( $100^{\circ}\text{S}$ ) va

undan yuqori) suvlarning minerallanganligi kam bo'lganda qatlamlarga va suvlarga temperaturaning ta'siri sezilarli bo'ladi. Hozirgi vaqtida quduqlar bilan katta chuqurliklardagi qatlamlar ochilganda temperaturani qayd qilish zarurdir.

M.V.Miroshnikov keltirilgan bosimlarni hisoblashda temperaturaga tuzatishlar kiritishni taklif qildi:

$$\rho_t = \rho_{t_0} + A(t_0 - t)/100, \quad (5.7.)$$

bunda,

$\rho_t$ ,  $\rho_{t_0}$  – suvning mos ravishda  $t$  va  $t_0$  temperaturadagi zichligi;

$A$  – zichlikning  $20^{\circ}\text{C}$  dagi temperaturaviy koefisienti.

E.I.Noymann va V.A.Kudryakov (1965) suvlarning keltirilgan bosimlarini hisoblash usulini tanlashdagi ba'zi bir umumiy omillarini ishlab chiqdilar. Ularning fikricha, biron-bir usulni qo'llash hisoblashlardagi xatoliklar miqdori (masalan, keltirilgan bosimni aniqlashda) suvlarning statik sathi va zichligini o'chashdagi xatoliklardan kichik bo'lganda mumkin bo'ladi. A.I. Silin-Bekchurinning sodda formulasida (5.8.)  $\Delta H$  ni hisoblashdagi xatoliklar miqdori quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$\Delta H' = \int p_s dz - z(\rho_1 + \rho_2)/2. \quad (5.8.)$$

## 6. YER OSTI SUVLARI OQIMLARI

### 6.1. Yer osti suvlari oqimining yo'nalishi, gidravlik qiyaligini va sarfinini aniqlash

Suvlarning harakat yo'nalishini va tezligini dala sharoitida to'g'ridan-to'g'ri aniqlash uchun indikatorlardan foydalilanadi. Indikatorlar maxsus quduqlarga joylashtiriladi va qo'shni quduqlarda kuzatiladi. Indikatorlar sifatida har xil bo'yoqlar (fuksin, flyuressin va b.), elektrolitlar (masalan, nashatir), radioaktiv izotoplardan foydalilanadi. Yerosti suvlarning harakatlanish tezligi tog' jinslarining granulometrik tarkibi, g'ovakligi va joyning nishabligiga bog'liq. Shuning uchun tajriba ishlarida grunt suvlarning o'rtacha harakat tezligi aniqlanadi. Uni aniqlash uchun grunt suvlari oqimining yo'nalishi bo'yicha ikkita burg' qudug'i qaziladi. Ulardan biri tajriba, ikkinchisi kuzatish qudug'i deyiladi.

Tajriba qudug'idan 10–20 litr suv olinib, unda bo'yog, tuz yoki elektrolit eritiladi, so'ngra uni tajriba qudug'iga quyib quduqdagi suvgaga aralashtiriladi va 2–4 m masofada joylashgan kuzatish qudug'idan bo'yoqli suvning kelishi kutiladi. Kuzatish qudug'ida rangli suv paydo bo'lgan vaqt  $t_2$  bilan tajriba qudug'iga suv tushirilgan vaqt  $t_1$  bilan belgilanadi. Ularning ayirmasi L (2–4 m) masofada oqib o'tgan suv tezligini beradi va mm/s, m/sut larda ifodalanadi:

$$v = \frac{L}{t_2 - t_1}, \quad (6.1.)$$


Bo'yoqlar suvda yaxshi eriydigan, ko'rindigan, cho'kmalar hosil qilmaydigan va zaharsiz bo'lishi kerak. Qum, shag'al kabi o'zidan suvni yaxshi singdiradigan jinslarda bu usul yaxshi natija beradi. Chuchuk suvli gorizontlarda bo'yoq o'miga suvda tez eriydigan tuzlardan ham foydalansa bo'ladi. U holda kuzatish quduqlaridan har 1–2 minutda laboratoriyyada tekshirish uchun suv namunalari olib turiladi.

Gidroizop'ez (gidroizobar) xaritalarida tok chiziqlarining holati belgilanadi, ya'ni yerosti suvlarining harakatlanish yo'nalishi, so'ngra gidravlik qiyalik aniqlanadi. Agar gidravlik qiyalikning qiymati oqim yo'nalishi bo'yicha o'zgarsa, u holda uning o'rtacha qiymati hisoblanadi (odatda,  $n \cdot 10^{-2} - n \cdot 10^{-4}$ ) yoki oqim maydon bo'yicha bir qancha bo'laklarga bo'linadi va hisoblashlar har bir bo'lakda alohida-alohida amalga oshiriladi.

Gidravlik qiyalikning o'lchamini, shuningdek, suyuqlikning qovushqoqlik va kollektorlarning o'tkazuvchanlik qiymatlarini (laboratoriya ma'lumotlarini va hisoblashlar natijalarini) bilgan holda fil'tratsiya tezligi (6.1.) formula orqali aniqlanadi.

Grunt suvlarining oqim sarfi deganda vaqt birligi ichida suvli gorizontning ko'ndalang kesim yuzasidan oqib o'tgan suv miqdori tushuniladi. Grunt suvlarining oqim sarfini aniqlash ancha murakkab bo'lib, hisoblash formulalari maxsus qo'llanmalarda keltirilgan. Quyida suv o'tkazmaydigan qatlamlar horizontal va qiya holda joylashgan hamda suv oqimining bir tekis uzlusiz holatlari uchun ayrim hisoblash usullarini ko'rib chiqamiz.

Bosimsiz suvlari bir tarkibli jinslarda harakatlanmoqda, deylik. Suv oqimi kichik tezlikda harakat qilib, Darsi qonuniga bo'ysunadi (6.1.-rasm, A). Oqim sarfini shu sharoit uchun aniqlashda fil'tratsiya koeffisienti, bosim gradienti, oqimning ko'ndalang kesim yuzini bilishimiz zarur.



**6.1.-rasm. Bosimsiz va bosimli suvlar oqimining harakat sxemasi**  
(Y.Ergashev bo'yicha).

Suv o'tkazmaydigan qatlamlar: A – gorizontal, B – qiya holda joylashgan; V – bosimli suvlar harakati. Agar fil'tratsiya koeffisienti qiymatinini  $K\phi$  ga teng desak, ikki quduq orasidagi bosim gradientining o'rtacha qiymati quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$Jo'p = \frac{H_1 - H_2}{L},$$

bunda,  $H_1$  va  $H_2$  – quduqlardagi suvning gidrostatik balandligi.

Grunt suvlari qalinligi oqim harakati davomida o'zgarib turadi. Uning L masofadagi o'rtacha qalinlik quyidagi formuladan topiladi:

$$Ho'p = \frac{H_1 + H_2}{2}$$

Shunday qilib, Darsi qonuniga muvofiq, bosimsiz grunt suvining oqim sarfi quyidagi formula yordamida ifodalanadi:

$$Q = K\phi \cdot B \cdot Ho'p \cdot Jo'p = K\phi \cdot B \cdot Ho'p \frac{H_1 - H_2}{L},$$

bunda,  $B$  – oqim kengligi;

K $\phi$  – fil'tratsiya koeffisienti.

Agar suv o'tkazmaydigan qatlam qiya holatda joylashgan bo'lsa (6.1.-rasm, B), hisoblashda qo'shimcha gorizontal yuza (0–0) dan foydalilanadi. Suv oqim sarfi G.N.Kamenskiy formulasi bilan hisoblanadi:

$$Q = K\phi \cdot B \frac{H_1 + H_2}{2} \cdot \frac{H_1 - H_2}{L} = K\phi \cdot B \frac{H_1 + H_2}{2} \cdot \frac{\Delta H}{L}, \quad (6.2.)$$

bunda, H1 va H2 – gorizontal yuzadan hisoblangan p'ezometrik bosim.

Agar yerosti suvlari bosimli bo'lib, suvli qatlam ikki xil tog' jinslaridan tashkil topgan bo'lsa (6.2.-rasm, B), oqim sarfi quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$Q = K\phi \cdot m \frac{H_1 - H_2}{L}, \quad (6.3.)$$

bunda, H1 va H2 – quduqlardagi bosimli suvning p'ezometrik sathi;

m – cuvli qatlamning qalinligi.

Yerosti suvlari oqimining sarfini quyidagi formula bilan ham hisoblash mumkin:

$$Q = mvF, \quad (6.4.)$$

bunda, m – foydali g'ovaklilik koeffisienti;

v – fil'tratsiyaning haqiqiy o'rtacha tezligi;

F – fil'trllovchi tog' jinslarning ko'ndalang kesim yuzasi.

## 7. NEFTGAZLI HAVZALAR DAGI SUqli ERITMALAR XARAKATLARI

### 7.1. Neftgazli havzalardagi suqli eritmalar xarakatini o'rGANISH metodlari

Tabiiy gidrogeologik havzalarni (texnogen o'zgarishlarga yo'liqmagan), ayniqsa ularning chuqur qismlarini o'rGANISHDA klassik gidrodinamika metodlari (shu jumladan gidrodinamik modellash ham) kam qo'llaniladi. Bunda suyuqliklaming non'yutonli xossalari, ya'ni N'yuton belgilagan sifatlardan chetga chiqishi; fil'tratsiya bo'ladigan kanallarning o'zgarib turishi; qattiq va suyuq fazalarning o'zaro ta'sir etib va o'zaro almashinib turishi; konvektiv va diffuzion oqimlarning tezligi bilan miq'yosining bir-biriga yaqin bo'lishi; qatlamlararo subvertikal oqimlarning vujudga kelishi va hakoziolar kuzatiladi. Oqimlar harakatlanadigan muhitning xarakteri, suyuq va qattiq fazalar orasidagi o'zaro munosabatlar va boshqalar haqidagi ma'lumotlarning yetarli emasligi masalani hal

qilish imkonini bermaydi. Shu sababdan faqat suvli eritmalarining tog' jinslari ichida siljish xususiyatlarini bilvosita usullar qo'llab aniqlash mumkin bo'ladi.

Neft-gaz havzalardagi suvli eritmalar harakatini o'rganish usullarini quyidagicha tasniflash mumkin:

1) bevosita kuzatuv usullari;

2) gidrogeodinamik parametrlarni hisoblashning zamonaviy metodlari (shu jumladan modellash ham);

3) bilvosita usullar.

Bevosita kuzatuv metodlari faqat texnogen yoki texnogen ta'sirlar natijasida o'zgargan sistemalarda yaxshi samara beradi. Bularga indikatorli metodlar, quduqlarning o'zaro ta'sir etishini kuzatish metodlari, tog' inshootlari hamda har qanday tog' inshootlarining tabiiy manbalar bilan o'zaro ta'sirini kuzatish kiradi.

Hisoblash metodlari qatlarning hozirgi vaqt dagi gidrogeologik parametrlarini aniqlashda bajarilib, oxirgi paytgacha Neft-gazli havzalardagi suvli eritmalarining harakatini o'rganishning asosiy usullari bo'lib kelgan.

Ko'pincha bosim va sathlarning o'lchash natijalari asosida gidravlik gradientlarni hamda fil'trasion oqimlarning tezligini va sarfini aniqlash metodlari ko'llaniladi. Bu metod, odatda, katta noaniqliklar keltirib chiqaradi. Buning sabablari: bir jinsli bo'limgan muhitning fil'tratsiya parametrlarini kerakli aniqlikda hisoblab bo'lmasligi; fil'tratsiyaning haqiqiy yo'llarini hamda vertikal va gorizontal yo'naliishlarning (masalan, vertikal yo'naliish kesimlar p'ezogrammasi orqali topiladi) o'zaro munosabatlarini yetarlicha aniq bo'lmaslidir. Ba'zan gidravlik gradient taxmin qilingan boshlang'ich gradientdan kichik qiymatga ega bo'ladi, bunday hollarda Darsi formulasi bo'yicha hisoblashlar o'z ma'nosini yo'qotadi.

Oxirgi o'n yilliklarda V.A.Vsevoljskiy va A.A.Dzyuba tomonidan ishlab chiqilgan hisoblash metodi – balans metodi keng qo'llanilmogda. Bunda suvli havza yoki suvli gorizontning suv balansining kirish (ta'minlanish) va sarflanish (bo'shalish) qismlari o'zaro taqqoslanadi. Neft-gazli havzalar uchun faqat suvli gorizontning bo'shalishini hisobga olish yetarlidir.

Gidrogeodinamik parametrlar o'lchovidagi va ular asosida bajarilgan hisoblashlarning noaniqligi oqimlarning harakatlanishini bilvosita usullar bilan, ya'ni ulardan qolgan izlar asosida o'rghanishni taqozo etadi. Bunday izlar qatoriga: Neft va gaz uyumlarini siljishi (gaz-suyuqlik tutash yuzalarining qiyaligi); V.P.Savchenko effektlari — gaz va Neft uyumlarining tarqalib ketishida suv oreollarini siljishi; qatlamlararo oqimlarni belgilovchi gidrogeokimyoviy va gidrogeotermal anomaliyalar; infil'tratsiya suvlарining tarqalishini va o'zgarishini ko'rsatuvchi gorizontal (lateral) gidrogeokimyoviy zonallik.

Yuqorida qayd etilgan ko'rsatkichlardan biri uyumlarning siljishi bo'lib, ba'zi hisoblarni bajarishga imkon beradi, masalan, gidravlik gradient Xabbert formulasi yordamida aniqlanishi mumkin:

$$\operatorname{tg} \theta = \frac{\rho_c}{\rho_c - \rho_n} \frac{dh}{dl} = \frac{dz}{dx}, \quad (7.1.)$$

bunda,  $\theta$  — Neft-suv tutash yuzasi va gorizontal yuza orasidagi burchak;

$dz/dx$  — Neft-suv tutash yuzasining qiyaligi;

$dh/dl$  — p'ezometrik yuzaning qiyaligi (gidravlik gradient);

$\rho_c$ ,  $\rho_n$  — mos holda suv va neftning zichliklari ( $\rho_n$  o'miga pr , ya'ni Neft zichligining o'miga gaz zichligi qo'yilsa, gaz-suv tutash yuzasi uchun formula bo'ladi). Boshqa ko'rsatkichlar yordamida faqat sifat jihatidan xulosa chiqariladi. Suvli eritmalarning harakati haqidagi muayyan ma'lumotlar seysmogidrogeologik kuzatuvlardan olinadi (zilzila paytida gidravlik gradientlar ikki-uch barobar ortishi mumkin).

## 8. YER OSTI SUVLARINING GEOTERMIYASI

### 8.1. Yer osti suvlarning geotermik hisoblash bochqichlari

Yer qa'ridagi jinslarda issiqlik oqimining harakatlanishida, issiqlik almashinuvida va issiqlikning taqsimlanishida yerosti suvlari muhim rol o'ynaydi. Shunga ko'ra, yerosti suvlari temperaturasini o'rghanish ma'lumotlaridan ularning harakatlanish yo'llarini belgilashda foydalilanadi.

Yerosti suvlarning temperaturasi o'zgaruvchan bo'lib, sayyoramizning shimoliy — doimo muzloq qismida manfiy, ekvatorga yaqin zonalarida musbat

bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi hududida (Buxoro-Xiva Neft-gazli regionida) 3000–3500 m chuqurlikda suvning temperaturasi 100–120 °C ekanligi aniqlangan. Hudud havosining o'rtacha yillik temperaturasi qiymatidan suvning temperatura qiymati yuqori bo'lgan tabiiy suvlar issiq (termal) suvlar deb ataladi. Suvning temperaturasi 30 °S dan yuqori bo'lsa, ya'ni ekvatorning o'rtacha yillik temperaturasidan yuqori bo'lgan suvlar mutlaq termal suvlar deyiladi.

Yerosti suvlarining temperaturasi ekzogen (iqlimiy) va endogen (geotermik) omillarga bog'liq bo'ladi. Temperaturaning mavsumiy o'zgarishi, odatda, yuzaki va grunt suvlarida sodir bo'ladi, neytral (doimiy temperaturali) zonadagi suvlarda esa yerosti suvlarining temperaturasi o'zgarmaydi va hududning yillik o'rtacha temperaturasiga teng bo'ladi. Neytral zona yer yuzasidan bir necha o'n metr chuqurlikkacha, odatda, 12 m dan 35 m gacha yetadi.

Neytral zonaning pastki chegarasidan boshlab yerosti suvlarining temperaturasi chuqurlik sari Yerning ichki issiqligi ta'sirida ortib boradi. Ekzogen va endogen omillaming birgalikdagi ta'siri yer qa'rida geotermik zonallikni yuzaga keltiradi. Yerosti suvlarining issiqlik rejimini o'rganishda asosiy geotermik parametr sifatida geotermik gradient va geotermik bosqich tushunchalaridan foydalilanildi.

Neytral zonaning pastki chegarasidan boshlab, temperaturaning har 100 m chuqurlikda ortishi geotermik gradient deb ataladi. Uning o'zgarishi yer yuzasining rel'efi, joyning geologik tuzilishi, tog' jinslarining yotish sharoiti, fizik kimyoviy xususiyatlari, gidrogeologik sharoitlari va boshqa ko'pgina omillarga bog'liq. Bu miqdor yer yuzasining turli joyi va chuqurligida har xil bo'ladi. Geotermik gradient quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$\Gamma = (t_2 - t_1) / (h_2 - h_1) \quad (8.1)$$

bunda  $t_1$ ,  $t_2$  – mos holda,  $h_1$  va  $h_2$  chuqurliklardagi jinslarda aniqlangan temperatura. Neytral zonadan Yeming markazi tomon chuqurlashgan sari temperaturaning 1°C oshishi geotermik bosqich deb ataladi. Bu miqdor ham yerning turli joyi va chuqurliklarida har xil bo'ladi va 5 metrdan 150 m gacha o'zgaradi, masalan, Moskvada 39,3 m, Parijda 28,2 m, Donbassda 28,0 m, Bokuda

28,0 m, Toshkentda 27,5 m. O.K. Lange ma'lumotiga ko'ra, Shimoliy Kaspiy dengizi bo'yida qazilgan quduqda chuqurlik bo'yicha temperatura quyidagicha o'zgarib borgan: 500 m chuqurlikda 42,2 °C, 1000 m – 52,2 °C, 1500 m – 69,9 °C, 2000 m – 80,5 °C, 2500 m – 94,4 °C, 3000 m – 108,3 °C.

Geotermik bosqich quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$G = (h_2 - h_1) / (t_2 - t_1). \quad (8.2)$$

Yuz metr intervalga hisoblangan geotermik gradient va geotermik bosqich quyidagi nisbat bilan o'zaro bog'liqdir:

$$\Gamma 100 = 100/G \quad (8.3)$$


Buxoro-Xiva Neft-gazli regionida burg'ilangan quduqlardan olingan 2000 ta namunada issiqlik rejimini aniqlash maqsadida temperatura o'lchangan. O'Ichov natijalari bo'yicha temperaturaning chuqurlik bo'yicha o'zgarishi 7.1-rasmda berilgan (V.N. Korsenshteyn, 1964). Grafikka ko'ra, temperatura chuqurlik sari deyarli to'g'ri chiziq bo'yicha o'zgargan. Olingan dalillar tahliliga ko'ra quyidagi hulosaga kelish mumkin: 1. Temperatura 100 m chuqurlikkacha 20–25°C ga, 2950 m chuqurlikkacha 117-122 °C ga ortgan.

2. Chuqurlik bo'yicha ayrim intervallarda temperaturaning o'rtacha miqdorini o'sishida pasayish kuzatiladi.

3. Turli chuqurliklar kesimida temperaturaning o'zgarish chegaralari belgilandi (8.1-жадвал). Grafikda temperaturaning chuqurlik bo'yicha o'zgarishiga ko'ra, 100–2950 m chuqurlik oraliq'idagi o'rtacha geotermik bosqich 29,4 m/°C ga teng. Chuqurlik sari temperaturaning grafikdagi o'sishi 100–2000 m oraliqda 25°C dan 92°C gacha o'sishi kuzatiladi. Geotermik bosqich 28,4 m/°C ga teng. Quduq kesimida temperaturaning o'zgarishi

8.1. - jadval

Kesim chuqurligi, m	Temperaturaning o'zgarish oraliq'i, °C
500	34-44
1000	54-64
1500	72-79
2000	89-97
2500	103-105
3000	120-122



**8.1- rasm.** Buxoro-Xiva Neft-gazli regionida temperaturaning chuqurlik bo'yicha o'zgarishi (V.N.Korsenshteyn bo'yicha).

M.K.Kalinkoning ma'lumotiga ko'ra, 6000 m chuqurlikkacha temperaturaning o'sish sur'ati quyidagicha sodir bo'ladi: qalqonlarda (er yuzasiga chiqqan tokembriy davrigacha hosil bo'lgan qattiq, granitlashgan metamorfik jinslarda) kam tezlikda ortib boradi, qadimgi platformalarda geotermik gradient, odatda, har 100 m da  $2,5^{\circ}\text{C}$ , al'p burmalanishining tog' oralig'i va tog'oldi botiqlarida geotermik gradient  $4^{\circ}\text{C}/100 \text{ m}$  ga, epipaleozoy plitalari havzalarida geotermik gradient  $5^{\circ}\text{C}/100 \text{ m}$  tezlikda ortadi. Bu qonuniyat boshqa tadqiqtchilar (K.F.Bogorodiskiy, B.F.Mavriskiy, 1971) tomonidan ham isbotlangan.

Geotermik parametrlar miqdori ko'pgina omillarga, birinchi navbatda tog' jinslarining termik xususiyatlariga bog'liq bo'lib, tog' jinslarining solishtirma issiqlik o'tkazuvchanlik xususiyati har xil tarkibli jinslarda turlicha bo'ladi, masalan, glina jinslarda past, qumtosh, qum, ohaktosh, mergel, metamorfik va magmatik yotqiziqlarda yuqori bo'ladi.

Geotermik gradient miqdorini bilgan holda, ekstrapolyasiya metodi bilan temperaturasi o'lchanmagan gorizontlardagi temperaturaning qiymatini quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin:

$$t_H = t_1 + (H_1 - H) \Gamma_0 \cdot p , \quad (8.4)$$

bunda  $t_H$  – H chuqurlikdagi temperatura miqdori;

$t_1$  –  $H_1$  chuqurlikdagi avval o‘lchangan temperatura;

$\Gamma_{op}$  – o‘rtacha geotermik gradient.

Geotermik rejimga yerosti suvlari ta’sir ko‘rsatadi, shu sababli jinslarning termik xususiyatlari ularning suvga to‘yinganlik darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Jinslarning solishtirma issiqlik o‘tkazuvchanligi va temperatura o‘tkazuvchanligi ularning suvga to‘yinganlik darajasiga qarab ortib boradi.

Yerosti suvlaringin geotermik rejimga ta’siri ular harakatlanganda issiqlikning qayta taqsimlanishidan yuzaga keladi. Qayta taqsimlanishining mohiyati quyidagilardan iborat: birinchi holatda – qizigan suvlar temperaturasi past bo‘lgan uchastkalar tomon harakatlanadi, ikkinchi holatda – buning aksi bo‘lib, nisbatan sovuq suvlar temperaturasi yuqori bo‘lgan muhit ichiga kirib boradi.

Birinchi holatdagi suvlar chuqur egilmalarda harakatlanadi, keyin esa egilmalar atrofidagi gumbazlar va antiklinoriylar (uzunligi, odatda, 100 km va undan ko‘p bo‘lgan murakkab burmali strukturalar) tomon – yuqoriga ko‘tariladi, bunda ko‘tarishlar balandligi bir necha kilometrga yetadi (yuqoridagi gorizontlarga suv darzliklar bo‘ylab ko‘tariladi). Bunday holatlar gumbaz va antiklinoriylar chegarasida geotermik gradientlarning anomal yuqori qiymatlarini yuzaga kelishiga olib keladi, masalan, bunday hodisalar Buxoro-Xiva va Kavkazoldi Neft-gazli regionlarida uchraydi. Ikkinci holatlarda muz bilan qoplangan baland tog‘lik zonalardan suvlarning qatlamlar ichiga kirib kelishidan qatlamlarda temperatura pasayib ketadi.

Yerosti suvlari oqimining sarfi va harakatlanish tezligi qanchalik katta bo‘lsa, ularning geotermik rejimga ta’siri shunchalik yuqori bo‘ladi.

V.N.Korsenshteyn (1964) Buxoro-Xiva regionining geotermik bosqichining o‘zgarishini o‘rganish orqali quyidagi xulosaga keldi:

1. Buxoro-Xiva Neft-gazli regionida geotermik bosqich 13,7 dan 83,4 m/ $^{\circ}\text{C}$  gacha o‘zgaradi.
2. Geotermik bosqichning o‘zgarish oralig‘i asosan 20–30 m / $^{\circ}\text{C}$  ga teng.

3. Geotermik bosqichning o'zgarishi 1000 m chuqurlikkacha 20–30 m oraliqda sodir bo'ladi, 1000 m dan chuqurlikda uning sezilarli ortishi kuzatiladi, 1000–1250 m va 1250–1500 m chuqurlikda 35–45 m /°C gacha ko'payadi.

4. Rayonning shimoli-g'arbiy qismida 750–1000 m oraliqda anomal yuqori bosqich kuzatiladi, uning miqdori 30 m /°C yetadi.

5. Anomal past geotermik bosqich (14–17 m /°C) 100–250 va 250–500 m oraliqda Oqjar koni rayonida kuzatiladi.

6. Anomal yuqori geotermik bosqich (58,6–83,4 m /°C) Olot-Kemachi-Zekri rayonida aniqlangan. Chuqur gorizontlarda geotermik bosqichning ortishi jinslar zichligining ko'payishi va ularning issiqlik o'tkazuvchanligining pasayishi bilan bog'liq. Anomal yuqori bosqich (30 m /°C) Rometan-Gazli rayonida 750–1000 m oraliqda kuzatiladi, uning hosil bo'lishi yuqori mel davri IX gorizontiga Zarafshon daryosining sovuq suvlarini fil'tratsiyalanib kirib kelishi bilan bog'liq.

7. Maksimal geotermik bosqich Qorako'l egikligida Olot-Kemachi-Zekri rayonida 2000–2250 m oraliqdagi chuqurlikka to'g'ri keladi, bunda geologik kesimning turli litologik-fasial jinslardan, ko'proq issiqlik o'tkazuvchanligi past bo'lgan tuzli yotqiziqlardan tarkib topganligi geotermik bosqichni keskin pasaytiradi.

Qatlarning ma'lum bir uchastkasida geotermik sharoitni yuzaga kelishidagi yerosti suvlarining rolini taxminan baholashda quyidagi issiqlik balansi tenglamasidan foydalanish mumkin:

$$Q = Q_1 - Q_2 - Q_3 , \quad (8.5)$$

bunda  $Q$  – yerosti suvlari oqimi bilan keltirilgan ortiqcha issiqlik;

$Q_1$  – yerosti suvlari oqimining maksimal temperaturali zonadan olgan issiqlik miqdori;

$Q_2$  – o'r ganilayotgan uchastkadan o'tgandan so'ng suv oqimiga o'tgan issiqlik miqdori;

$Q_3$  – yerosti suvlari oqimining maksimal temperaturali zonadan o'r ganilayotgan uchastkagacha harakatlanganda radiasiya hisobiga yo'qotgan issiqlik miqdori.

(7.5) formulaga kiruvchi miqdorlar quyidagicha aniqlanadi: Q1 – maksimal temperaturali zonadagi temperatura qiymati oqim sarfi ko‘paytmasiga teng; Q2 – o‘rganilayotgan uchastkadan o‘tgandan keyingi oqim sarfini temperatura qiymati ko‘paytmasiga teng. Issiqlikni radiasiya hisobiga yo‘qotishi quyidagi formula bilan taxminan aniqlanadi:

$$Q = \frac{\lambda(t_2 - t_1)}{\tau} S, \quad (8.6)$$

bunda  $t_2 - t_1$  – qizigan qatlam va yer yuzasidagi temperaturalarning farqi;

$\lambda$  – qoplam jinslarning issiqlik o‘tkazish koeffisienti;

$\ell$  – qoplam jinslar qalinligi;


$S$  – issiqlik yo‘qotilishi hisoblangan maydon;

$\tau$  – vaqt.

Ushbu metoddan V.N. Korsenshteyn Stavropol gazli zonasini uchun issiqlik balansini hisoblashda foydalangan.

Quduqlarda elektrli va simobli termometrlar bilan o‘lchangan temperatura dalillari geotermik tadqiqotlar uchun boshlang‘ich ma’lumotlar hisoblanadi. Uzoq vaqt to‘xtatib qo‘yilgan quduqlardan olingan o‘lchov natijalari ishonchli bo‘ladi. Quduqlarda bajariladigan termometrik ishlarning metodikasi va texnologiyasi maxsus qo‘llanmalarda keltirilgan.

Quduqlarda o‘tkazilgan termometrik o‘lchov natijalari o‘rganilib, tahlil qilinib turli xarita va sxemalar tuziladi, bunday ma’lumotlar, shuningdek, gidrogeologik kesimlarga ham tushiriladi. Geoizoterma xaritalari (bir xil temperaturali nuqtalarni xaritada yoki kesmada birlashtiruvchi chiziqlar) va geotermik gradientlar xaritalari (teng qiymatli gradientlar chiziqlari tushirilgan xarita) tuziladi. Xaritalar ma’lum bir suvli gorizontlar va komplekslar uchun, shuningdek, tanlangan gipsometrik balandliklar kesimi uchun ham tuzilishi mumkin (8.2-rasm).



**8.2- rasm.** Buxoro-Xiva Neft-gazli regionida geotermik bosqich miqdorini taqsimlanish sxemasi  
(V.N.Korsenshteyn bo'yicha): 1 – geotermik rejim o'r ganilgan quduqlar (suratda – quduq nomeri, maxrajda – geotermik bosqich miqdori).

## 9. YER OSTI SUVLARIDA IOD VA NODIR ELEMENTLAR

### 9.1. Yer osti suvlardan iod va nodir elementlarning bashoratlari resurslarini hisoblash (kruk koni misolida)

Yer ka'ridagi suvlardan (ma'danli suvlardan, namakoblar, chuchuk suvlardan) katta amaliy ahamiyatga ega bo'lganligi uchun foydali qazilmalar qatoriga kiritiladi. Namakoblar va ma'danli suvlardan sanoat ahamiyatiga, bal'neologik (shifobahshlik) ahamiyatiga; chuchuk suvlardan esa — maishiy, sanoat va qishloq xo'jaligida suvtaminoti uchun ahamiyatga ega. Masalan, yerosti namakoblarining tarkibida sanoat uchun muhim bo'lga ko'pgina moddalar bor. Hozirgi paytda bulardan faqat ba'zilarigina qisman olinib, ishlatilmoqda. Bunday namakoblarning resurslari esa juda katta.

Yuqorida qayd etilgan suvlarning hamma turlari Neft va gaz havzalarida mavjud. Neft va gaz havzalaridan uglevodorod gazlarini chiqarib olishda ular bilan

birga chiqadigan yo'lakay chuchuk qatlari suvlari hamda texnogen kondensasion suvlarning o'ziga xos o'rni bor. Ushbu suvlarni ikki sinfga ajratish mumkin. Birinchisi, gaz va neftlarni qazib chiqarish jarayonida ulardan ajralib chiqadigan yo'lakay suvlari. Ikkinchisi, Neft va gaz havzalarida mavjud bo'lgan suvli qatlamlar, gorizontlar va komplekslardagi suvlari.

Birinchi sinfga mansub suvlarning miqyosi haqida tasavvurga ega bo'lish uchun quyida bir misolni keltiramiz. Gazning temperaturasi 200–250°C va bosimi 80–100 MPa ga teng bo'lgan zonadan 90–100°C temperaturaga va 30–50 MPa bosimga ega bo'lgan zonaga siljib o'tishida 1 m<sup>3</sup> gazdan 28–53 gramm suv va 1 m<sup>3</sup> neftdan 10 kilogrammgacha suv ajralib chiqadi. Gaz tarkibidan ajraladigan suv kondensasiya jarayonida bug'dan hosil bo'lgani uchun kondensasion suv deyiladi. Neft ichidan ajraladigan suv esa solyusion suv nomini olgan. Bu atama fanga V.V.Kolodiy tomonidan kiritilgan. Konlarning zaxirasini hisoblashda ajraladigan suvlarning taqrifiy miqdorini aniqlash mumkin.

Eksperimental dalillar va konlardagi kuzatuvlar kondensasion va solyusion suvlarning minerallanganligi past (1g/l gacha) ekanligini qo'rsatdi. Ular gidrokarbonat-ion, uglerod dioksidi va uchuvchan organik moddalar bilan to'yangan. Demak, bunday suvlarni kerakli tozalashlardan so'ng, chuchuk suv sifatida, hech bo'lmasganda sanoat tarmoqlarida ishlatalish mumkin. Chuchuk suv tanqisligi muammosi mavjud bo'lgan va yildan yilga bu muammo keskinlashayotgan hozirgi paytda ushbu (kondensasion va solyusion) suvlarni nestnobud qilmasdan ularga chuchuk suvlarning qo'shimcha manbasi sifatida qarash va ularni ishlatalish borasida tadqiqotlar o'tkazish davr talabiga kiradi.

Ikkinci sinfga mansub, ya'ni Neft va gaz havzalarida mavjud bo'lgan suvli qatlamlar, gorizontlar va komplekslardagi suvlardan unumli foydalanish muammosini tahlil qilib ko'rsak, bu masalaga kompleks yondoshish zarur bo'ladi. Chunki bu suvlardagi foydali jihatlar xilma xildir. Masalan, ularda juda ko'p miqdorda erigan uglevodorod gazlari mavjud.

Neft-gaz havzalaridagi qatlari suvlarda erigan uglevodorod gazlari juda ko'p miqdorda bo'ladi. Masalan, Volga-Ural havzasidagi paleozoy yotqiziqlari

qatlam suvlarida 1 m<sup>3</sup> ekanligini qo'rsatdi. Ular gidrokarbonat-ion, uglerod dioksidi va uchuvchan organik moddalar bilan to'yingan. Demak, bunday suvlarni kerakli tozalashlardan so'ng, chuchuk suv sifatida, hech bo'limganda sanoat tarmoqlarida ishlatish mumkin. Chuchuk suv tanqisligi muammosi mavjud bo'lgan va yildan yilga bu muammo keskinlashayotgan hozirgi paytda ushu (kondensasion va solyusion) suvlami nest-nobud qilmasdan ularga chuchuk suvlarning qo'shimcha manbasi sifatida qarash va ularni ishlatish borasida tadqiqotlar o'tkazish davr talabiga kiradi.

Ikkinchi sinfga mansub, ya'nii Neft va gaz havzalarida mavjud bo'lgan suvli qatlamlar, gorizontlar va komplekslardagi suvlardan unumli foydalanish muammosini tahlil qilib ko'rsak, bu masalaga kompleks yondoshish zarur bo'ladi. Chunki bu suvlardagi foydali jihatlar xilma xildir. Masalan, ularda juda ko'p miqdorda erigan uglevodorod gazlari mavjud.

Neft-gaz havzalaridagi qatlam suvlarida erigan uglevodorod gazlari juda ko'p miqdorda bo'ladi. Masalan, Volga-Ural havzasidagi paleozoy yotqiziqlari qatlam suvlarida 1,3 m<sup>3</sup> gacha uglevodorod gazi erigan holatda uchraydi. L.M.Zor'kin, V.N.Korsenshteyn, Ye.V.Stadnik va boshqalarning tadqiqotlariga ko'ra, G'arbiy Sibir' megahavzasida gazga to'yinganlik 2–3 m<sup>3</sup>/m<sup>3</sup> (ba'zan undan ham yuqori) bo'ladi. O'rta Kaspiy havzasida qatlam suvlaring gazga to'yinganligi juda yuqori bo'lib, 4,5 m<sup>3</sup>/m<sup>3</sup> gacha yetadi. Maksimal gazga to'yinganlik Azov-Kuban' havzasida – 8 m<sup>3</sup>/m<sup>3</sup>. Respublikamizdag'i Buxoro-Xiva Neft va gaz havzasining suvlarida erigan uglevodorod gazlarining miqdori mavjud konlardagi gazlarning sanoat zaxiralaridan bir necha marta ortib ketadi. Bu hisob-kitoblarga asosan 3–4 km chuqurlikkacha bo'lgan resurslar kiritilgan. Katta chuqurliklarda esa suvlarning mineralanganligi, temperaturasi va bosimi ortishi bilan ulardagi erigan gaz hajmi ko'payib boradi.

Masalan, Ye.S.Barkan va boshqalarning (1984) hisoblari bo'yicha 1000 m chuqurlikda va 40–50 °C temperaturada natriy xlорidining miqdori 200 g/l, qatlam bosimining (pk) uglerod gazi bosimiga rug nisbati pk / pyr = 1,5 bo'lsa, suvning gaz sig'imini yuqori chegarasi 10 m<sup>3</sup>/m<sup>3</sup> bo'ladi; chuqurlik 7000 m va

temperatura 200 0C bo‘lganda esa natriy xlорidining miqdori 300 g/l, pк / pyr =2 bo‘lib, suvning gaz sig‘imini yuqori chegarasi 35m3/m3 ga yetadi.

Amerikalik tadqiqotchilar P.Djoys, B.Xays, E.Gir va b. larning hisoblashi bo‘yicha gaz omili 5 m3/ m3 dan va quduqlarning debiti sutkasiga bir necha ming kubometrdan kam bo‘lmaganda suvlardan gazni ajratib olish iqtisodiy jihatdan foydali bo‘ladi.

Ko‘pgina tadqiqotchilarning fikricha suvda erigan gazlar uglevodorod hom ashvosining manbai bo‘lishi mumkin. Yaponiyada hozirgi paytda qazib olinadigan gazlarning 30% ni erigan gazlar tashkil etadi.

Erigan gazlarning qatlam suvlardan ajratib olish muammosi doimo mavjud bo‘lib, bu jarayon ko‘p qiyinchiliklar tug‘diradi. Lekin, shunga qaramay qatlam suvlardan gazni ajratib olish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan bir hisoblanadi. Shuni aytib o‘tish joizki, uglevorod gazlariga to‘yingan suvlarga boy havzalar sanoat uchun kerakli qimmatbaho kimyoiy elementlar bilan boyigan hamda bal‘neologik hususiyatiga ega bo‘lgan termal suvlar havzalari bilan mos tushadi. Shunga ko‘ra, Neft va gaz havzalaridagi uglevodorod xom ashvosiga boy bo‘lgan qatlam suvlarini chiqarib olish va ularga kompleks ishlov berish iqtisodiy jihatdan istiqbolli hisoblanadi. Ayrim tadqiqotchilarning hisob-kitoblariga ko‘ra, Yeming cho‘kindi qobig‘idagi suvda erigan gazlarning umumiy resurslari 1016 – 1018 m3 ga teng.

Neft va gaz havzalaridagi xlорidli namakoblarda yuqori konsentratsiyada qimmatbaho metallar (litiy, seziy, stronsiy, rubidiy, uran, molibden va sh.k.) va boshqa elementlar (yod, brom, bor va b.) mavjud bo‘lib, ular xalq xo‘jaligida katta ahamiyatga ega. Ushbu namakoblar bir qator metallarning manbai hisoblanadi. L.S.Balashov, N.F.Efremochkin va G.K.Pavlenko bunday suvlarini ishlatishtning bir qator afzalliklarini ta‘kidlaganlar:

- zaxiralarning ulkanligi;
- suv chiqarish inshootlarini qurish uchun mablag‘ning yo‘qligi (ko‘pincha boshqa maqsadlar uchun burg‘ilangan quduqlardan foydalilanadi);

- mahsulotlarni katta chiqarliklar va maydonlardan chiqarib olish imkoniyatining mavjudligi;
- foydali qazilmaning yaxlit ko'rinishda bo'lishi (bir vaqtning o'zida bir necha qimmatli elementlarning yuqori konsentratsiyada uchrashi);
- bir qator tuzlarni boshqa elementlar bilan birga (natriy, kaliy, magniy, kal'siy xloridlari va b.) olish imkoniyatini mavjudligi;
- ishlab turgan sanoat ob'ektlaridan (masalan, Neft va gaz, yod-brom, kaliy qazib chiqarishdan) chiqindi sifatida chiqadigan suvlarni ishlatalish imkoniyati.

9.1-jadvalda Neft va gaz havzalari suvlarida mavjud bo'lgan 7 ta element bo'yicha dalillar keltirilgan.

**Ba'zi qimmatbaho elementlarning yerosti suvlaridagi miqdori, mg/kg**

#### 9.1-jadval

Element	Litofferadagi suvli eritmalarda elementlarning miqdori		O'zbekiston Neft va gaz havzalaridagi xloridlari eritmalarda elementlarning miqdori
	maksimal	sanoat ahamiyatiga ega minimal miqdor	
Litiy	500	10	5-20 (1000 gacha)
Kaliy	40000	1000	500-300
Rubidiy	200	3	1-5 (200 gacha)
Seziy	20	0,5	0,1-0,5 (200 gacha)
Stronsiy	30000	300	200-2000
Brom	10000	300	150-2000
Yod	100	10	5-20

Jadvaldan ko'rinish turibdiki, ayrim elementlarning kondisiya miqdori yuqori bo'lib, ulardan sanoat miqyosida foydalanish mumkin.

Sanoat ahamiyatiga molik suv va namakob deganda, tarkibidagi foydali komponentlar miqdoriga ko'ra, gidrogeologik va texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarni hisobga olgan holda, ularni yer qa'ridan chiqarib olish va qayta ishlash foydali bo'lishi tushuniladi.

O'zbekistonning artezian suv havzalarida sanoat miqyosidagi yod va boshqa nodir elementlarning bashoratli resurslari olimlardan A.S.Xasanov, S.A.Boqiev, V.S.Shevlova, L.A.Kalabugina (1987) tomonidan hisoblangan (9.2-jadval).

## Yod va nodir elementlarning bashoratli resurslari

### 9.2- jadval

Bashoratli resurslar, mJ / km <sup>2</sup>	Bashoratli resurslar, Uyil						
	J	Br	Rb	Cs	Sr	B203	Ge
Ustiyurt Platformasi							
949523	2553,97	76286,79	1109,63	31770,4	2304,53	21,17	0,0992
Euxoro-Qarshi artezian havzasini							
280970	2029,14	28526,73	2814	37,654	30974,29	21574,14	0,465
Suroxondaryo artezian havzasini							
70157	485,35	5736,59	3,85	3,94	820,1	1102,85	-
Ferg'ana artemis havzasini							
16784	119,49	131,7	0,432	-	374,297	106,249	-
Oral-Qizilqum vali							
234600	9,4	892	-	4,99	7,99	834	274,4
Jami	5428,9	116052	363,8	70,754	70539,77	23554,52	0,6044
1387105							

Quyida Kruk konidagi suvlarning tahlil natijalari keltiriladi (9.3-jadval). Jadvaldan Kruk konidagi qatlama suvlarda yod va bromning miqdori 9.1-jadvalda keltirilgan miqdorlardan ancha yuqoriroqligi ko'rindi. S.A.Boqievning (2012) tadqiqotlarida yod olish uchun istiqbolli bo'lgan bir qator konlar keltiriladi (Kruk, Umid, Shimoliy O'rtabuloq, Jarchi, Go'rtepa va b.). Hozirgi paytda yod tanqisligi natijasida qalqonsimon bezning faoliyati buzilishidan butun dunyoda bir qator kasalliklar ko'payib borishini hisobga olib, ushbu elementni qatlama suvlardan ajratib olish zarur va dolzarb vazifalardan biridir.

Kruk konidan olingan qatlama, haydalayotgan va yo'lakay suvlarning tarkibidagi elementlar miqdorining solishtirma jadvali, mg/l  
(S.A.Boqiev bo'yicha, 2012)

### 9.3-jadval

Ned quydadan olingan qatlama suvi	Devrona ko'tidan olingan haydalayotgan suv	Ned quydadan Ned bilan hurga chimgan yo'lakay suv	
$M_{99} \frac{Cl_{99}}{(Na + K)_{86}} \frac{Cl_{98}}{(Na+K)_{86}} \frac{Cl_{98}}{(Na+K)_{86}}$	$SO_4^{64} Cl^{33}$ $Na_{54} Mg_{28} Ca_{18}$	$M_{11} \frac{Cl_{17} SO_4^4}{(Na + K)_{75} Mg_{61} Ca_{11}}$	
Yod Brom Bar Rubidiy Stroncii Sezy Barriy Molibden Kumush Voflum Torti Urani	28,54 374,87 39,7 1,16 157,9 0,386 1,34 0,167 0,009 2,189 0,005 0,045	Ra'x Ra'x 4,6 0,0039 21,08 0,000338 0,31 20,291 0,034 0,387 0,004 28,306	3,17 52,31 13,46 0,247 18,6 0,047 0,09 0,778 0,58 3,54 0,009 0,16

Yod – galogenlar guruhiga mansub kimyoviy element bo'lib, atom og'irligi 126,92. Rangi to'q kulrang, kristallari plastinkali, metaldekkal yaltiraydi, zichligi 4,93, erish temperaturasi 114 °C, qaynash temperaturasi 184 °C. Yod qizdirilganda suyuq holatga o'tmay birdaniga binafsha rang bug'ga aylanadi. Kimyoviy reaksiyalarda yod ko'pgina moddalar bilan birikadi. Tabiiy sharoitda natriy, kaliy, kal'siy va magniylarning yodli tuzlari ko'rinishida Yer po'stida keng tarqalgan. Yod Neft konlari, dengiz, ko'l va daryo suvlarida uchraydi, asosan Neft va gaz konlaridagi yerosti suvlaridan, dengiz suv o'tlarining kullaridan va b.dan olinadi.

Neft va gazli qatlamlardagi deyarli hamma suvlar va namakoblar shifobahsh xususiyatlarga ega. Neft va gaz konlari uchun xos bo'lgan yodli, bromli, radiyli va boshqa shifobahsh mineral suv va namakoblar ma'lumdir. Ba'zida bir suvning o'zi bir nechta shifo beruvchi xususiyatlarga ega bo'ladi. Masalan, cho'kindi jinslarning suv va namakoblari davolovchi omillar sifatida yod, brom va hokazolarning yuqori miqdorli konsentratsiyalariga ega bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, shifobahsh suvlar bir vaqtning o'zida sanoat ahamiyatiga molik bo'lishi (ya'ni, tarkibida qimmatbaho elementlar bo'lishi), termal (ya'ni, issiqlik manbai sifatida ishlataladigan) bo'lishi va tarkibida metan gazi yuqori miqdorda erigan bo'lishi mumkin. Demak, yer qa'rida mavjud bo'lgan hamma suvlar va namakoblar tarkibida qimmatbaho va nodir elementlar majmui mavjud bo'lganligi sababli ularni razvedka qilish hamda xalq xo'jaligida foydalananish zarur.

## 10. GIDROGEOLOGIK XARITALAR

### 10.1. Gidrogeologik xaritalar tuzish

Gidrogeologik xaritalar deganda tog' jinslarida yerosti suvlarining tarqalish sharoitini, ularning tuz va gaz tarkibini, jinsning (suvli gorizontning, suvli kompleksning) suvga mo'lligini va boshqa omillarni xaritada ifodalash tushuniladi. Xarita mazmuni uning maqsadi va mashtabiga qarab belgilanadi. Neft va gaz hidrogeologiyasi amaliyotida har bir suvli gorizont va kompleks uchun alohida hidrogeologik xarita tuziladi. Shuningdek, har gorizont (kompleks) uchun

gidrokimyoviy, gidrodinamik, gidrotermik va sh.k xaratalar majmui tuzilib, ulardan Neft-gazlilikni bashoratlashda foydalaniladi.

Gidrogeologik xaritalar masshtabiga ko'ra: obzor (1:1000000 va undan kichik), mayda masshtabli (1:500000–1:1000000), o'rta masshtabli (1:100000–1:200000), yirik masshtabli (1:25000–1:50000), o'ta yirik masshtabli (1:10000 va undan yirik) turlarga bo'linadi.

Obzor xaritalar yirik geologik va geografik regionlarning (o'lka, oblast', respublika yoki yer shari) gidrogeologik sharoitlarining vujudga kelishi, yerosti suvlarini tarqalishining asosiy qonuniyatları va ularning ayrim elementlarining vaqt davomida o'zgarishi to'g'risida ma'lumot beradi.

Mayda masshtabli gidrogeologik xaritalar u yoki bu xududning gidrogeologik sharoitlarini ifodalaydi. Ularda asosiy suvli majmualarning tarqalishi, yerosti suvlarining hosil bo'lishi va tavsifi ifodalanadi.

O'rta masshtabli gidrogeologik xaritalarda ayrim rayonlarning gidrogeologik sharoitlari o'z aksini topadi. Xarita yerosti suvlaridan foydalanish va keyingi tadqiqot ishlarining birinchi navbatda bajariladigan uchastkalarini tanlash imkonini beradi.

Yirik masshtabli gidrogeologik xaritalar maydoni nisbatan kichik rayonlarning gidrogeologik sharoitlarini ifodalaydi. Bunday xaritalarning aniqlik darajasi yuqori bo'lganligi uchun ular asosida amaliy gidrogeologik masalalarni yechish, mufassal tadqiqotlarni rejalashtirish mumkin.

O'ta yirik masshtabli xaritalar uchastkalarning gidrogeologik sharoitlarini o'zida to'liq aks ettirib shaxta, kar'er, to'g'on, suv olish inshooti va b. inshootlarni loyihalash uchun asos bo'laoladi.

Gidrogeologik xaritalar shartli belgilar, gidrogeologik kesmalar (ko'ndalang va bo'ylama yo'naliishlardagi), geologik-gidrogeologik kolonka va tushuntirish bayonnomasidan tarkib topadi. Tushuntirish bayonnomasiga tirkaladigan ilovalarda gidrogeologik xaritada ko'rsatilgan buloq, quduq, burg' quduq va b. inshootlar katalogi tavsifi beriladi.

Neft va gaz konlari gidrogeolgiyasini o'rganishda ayrim suvli qatlamlar, gorizont va majmualarni har tomonlama tasniflash maqsadida quyidagi xaritalar: gidroizop'ez, izominer, gazga to'yinganlik, gaz tarkibi, ayrim ionlar nisbati, geoizoterm, issiqlik oqimi va b. lar tuziladi.

Tuzilgan xarita gidrogeologik kesma va hidrogeologik kesim bilan to'ldiriladi. Kesmada suvli gorizont (kompleks) va suv o'tkazmaydigan qatlamlarning yotish sharoitlari va litologik-fasial tuzilishi ifodalanadi. Shuningdek, unda yerosti suvlarining kimyoviy tarkibi, mineralallanganligi, grunt va bosimli suvlarining sathi, artezian suvlar bosimi hamda yerosti suvlarining harakat yo'nalishi, yer yuzasidagi suvlar, ustki va ostki qatlamlar bilan ularning hidravlik bog'liqligi to'g'risidagi ma'lumotlar o'z aksini topadi.

Gidrogeologik kesim (kolonka) o'rganilayotgan maydonda qazilgan har bir quduq bo'yicha tuziladi. Quduq kolonkasi burg'ilash chog'ida olingan namunalar hamda karotaj egri chiziqlarining interpretasiyasi asosida tuziladi. Unda geologik kesimning litologik-stratigrafik xususiyatlari, Neft-gazsuvli va suv o'tkazmaydigan qatlamlarning qalinligi, yotish chuqurligi, yerosti suvlarining kimyoviy tarkibi, mineralallanganligi, bosimi, sathi, jinslarning yoshi, suv namoyonlangan intervallar va b. ifodalanadi.

Gidrogeologik xaritalarni tuzishdagi asosiy muammolardan biri – ularga tushiriladigan ko'rsatkichlarning ko'p xilligidir. Bir nechta suvli kompleks va gorizontlar mavjudligi ham qiyinchilik tug'diradi. Shu sabablarga ko'ra, hidrogeologlar o'rganilayotgan rayon uchun bir qator parallel xaritalar seriyasini tuzadilar. Suvli gorizontlar va komplekslarning ko'p qavatliliginin hisobga olgan holda hamda ularning tuzilishini to'laroq ifodalash maqsadida har xil chuqurlikdagi gipsometrik belgili gorizontal yuzalar uchun qirqim bo'yicha xaritalar tuzish (10.1-rasm) yoki yer yuzasidan boshlab ikkinchi, uchinchi va h.k. bo'lib joylashgan gorizontlar xaritalarini tuzish kerak bo'ladi (10.2-rasm).


Agar yer yuzasidan ikkinchi bo'lib joylashgan gorizontning maydoni katta bo'lsa, ularni M.E.Al'tovskiy, M.V.Churinov va boshqa tadqiqotchilar ushbu gorizontlar tarqalgan uchastkalarni eng yoshrog'iga berilgan rang bilan bo'yash

kerakligini taklif etdilar. Chuqurroqdagi gorizontlar maydoni yuqoridagilardan kichikroq bo'lganda esa xaritadagi ustki gorizont o'z rangi bilan bo'yalib, ostki gorizontlar uning ichida, rangli kontur va ichkariga yo'nalgan rangli strelkalar bilan ko'rsatiladi. Suvli gorizontlarning gidrogeologik tavsifi to'laroq bo'lishi uchun u yoki bu parametrlami ifodalovchi parallel xaritalar al'bomini tuzish lozim.

Neft va gaz uyumlarini izlash, razvedka qilish va o'zlashtirishda bajariladigan gidrogeologik tadqiqotlar o'ziga xos mazmunga ega bo'ladi.

Izlov ishlaring ayrim bosqichlarida gidrogeokimyoviy s'jomkalar bajarish va mavjud gidrogeologik dalillarni o'rganish bo'yicha tematik ishlar bajarilishi mumkin.


Gidrogeologik rayonlashtirish Neft va gaz izlashda gidrogeologik tadqiqotlar, geologik va orogidrografik dalillaridan foydalanib amalga oshiriladi, natijada yerosti suv havzalari, gidrogeologik region, oblast' va rayonlar ajratiladi.



**10.1-rasm.** Yerosti suv havzalarini «fikran qirqib ko'rish» metodi bilan ifodalash sxemasi

(A.M Ovchinnikov bo'yicha):

1 – tokembriy davri suvto'sar yotqiziqlari; 2 – devon davri yotqiziqlaridagi suvli gorizontlar; 3 – karbon davri yotqiziqlari-dagi suvli gorizontlar; 4 – perm' davri yotqiziqlaridagi suvli gorizontlar.



**10.2-rasm.** Zonalligi yaxshi ifodalangan

yerosti suv havzalarining turli gipso-metrik

balandliklari uchun tuzilgan qirqim-xarita

sxemasi (A.M. Ovchiin-nikov bo'yicha):

1 – hidrokarbonatli suvlar; 2 – sul'fali suvlar;

3 – xloridli suvlar.

Neft va gaz konlarining gidrogeologiyasini o'rganishda har xil suvli kompleks va gorizontlar uchun bir qator gidrogeologik xaritalar tuziladi. Har bir qayd qilingan ob'ekt uchun gidroizop'ez xaritasi va turli gidrogeokimyoiy xaritalar (minerallanganlik, asosiy ionlarning taqsimlanishi, ularning o'zaro nisbati, gazga to'yinganligi, gaz tarkibi va h.k.) tuziladi. Odatda, hamma parametrlar xaritaga izoliniyalar (izoximlar, izominerlar, izoxlorlar, izokonlar va sh.k.) ko'rinishida tushiriladi. Izoliniyalar orasidagi zonalarni har xil rang yoki shtrixovkalar bilan ajratish tavsiya etiladi.

## **11. QUDUQLARNING KESIMIDA GIDROGEOLOGIK KO'RSATKICHLAR**

### **11.1. Quduqlarning kesimini gidrogeologik o'rganish**

Suvli komplekslami razvedka qilishning asosiy usuli – quduqlarni burg'ilash va suvli gorizontlarni ochishdan iborat. Burg'ilangan quduqlardan keyinchalik suvlarni yer yuziga chiqarib olishda ham foydalanish mumkin. Unchalik chuqur bo'limgan gorizontlarni (grunt suvlarini) ochishda turli kichik burg'ilash uskunalari, katta chuqurliklardagi bosimli suvlarni izlashda esa maxsus burg'ilash uskunalari ishlataladi. Suvli komplekslarni o'rganishda Neft va gaz uyumlarini izlash va razvedka qilish uchun burg'ilangan quduqlardan ham foydalaniladi.

Grunt suvlarini razvedka qilishda suv sathining chuqurligi o'lchanib, olingan ma'lumotlar asosida gidroizogips xaritalari tuziladi. Grunt suvlarini oqimining yo'nalishi va tezligi kuzatiladi. Buning uchun maxsus tajriba quduqlardan indikatorlar yuborilib, yonidagi kuzatuv quduqlarida ularning paydo bo'lishi aniqlanadi. Indikator sifatida bo'yollar, elektrolitlar, radioaktiv izotoplari ishlataladi.

Burg'ilashning natijalariga asoslanib, gidrogeologik kesim tuziladi, suvli gorizontlarning yotish chuqurligi va qalinligi aniqlanadi. Quduqlarda bajariladigan geofizik tadqiqotlar o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Elektrorazvedka usullari kesimning litologiyasidan tashqari, chuchuk va minerallangan suvli gorizontlarning mavjudligi va joyini aniqlashga imkon beradi. Chuchuk suvli gorizontlar qarshiliklar hamda tabiiy potensiallarning egori chiziqlarida

maksimumlar bilan ifodalansa, sho'r suvli va namakobli gorizontlar esa qarshiliklar egri chiziqlarida minimum bilan hamda tabiiy potensiallarning egri chiziqlarida maksimum bilan akslanadi. Termometriya bilan gamma-karotaj usullarni qo'llash ham yaxshi natijalar beradi.

Neytronlar bilan faollashtirish usuli yordamida quduqlardagi suvlarning kimyoiy tarkibini aniqlash mumkin. Yadro-magnit rezonans usuli yordamida suvli jinslarning foydali g'ovakliligi va o'tkazuvchanligi taqriban aniqlanadi.

Bosimli suvlar uchun burg'ilangan razvedka quduqlarida statik sath, quduq og'zidagi bosim, temperaturalar aniqlanib, tahlil uchun suv namunalari olinadi.

Favvoralanuvchi artezian quduqlarda sathni aniqlash uchun quduq og'ziga qo'shimcha quvurlar ulanadi yoki quduq og'ziga o'rnatilgan manometrlar bilan bosim o'lchanadi. Favvoraning balandligi va quvurlarning diametriga qarab quduq debiti aniqlanadi. Gilli eritma bilan burg'ilangan quduqlarda favvoralanish kuzatilmasa statik sathni o'lchashdan avval quduq toza suv bilan yuvilib, suv quduqdan kompressorlar yoki nasoslar yordamida chiqariladi. Quduqlardagi sathni o'lchash uchun har xil sath o'lchagichlar ishlataladi.

Burg'ilash paytida suv namoyonlanishi kuzatib boriladi. Kuzatuvning asosiy ko'rinishi — yuvuvchi suyuqlikni nazorat qilishdan iborat. Quduq og'zida suyuqlikning qovushqoqligi o'lchab boriladi. Qovushqoqlikning vaqt davomida o'zgarishini kuzatish hamda yuvuvchi suyuqlik zardobini tahlil qilish orqali suvli gorizotlarning mavjudligini aniqlash mumkin.

## 12. SUVLARDA ERIGAN GAZLAR

### 12.1. Suvlarda erigan gazlarning to'yinish bo'yicha bosim

Yerosti suvlarda erigan gazlarning to'yinish bosimi Neft-gazlarni izlashdagi barcha gidrogeologik ko'rsatkichlar ichida eng ahamiyatlisi bo'lib, gaz uyumlari mavjudligining ishonchli ko'rsatkichi hisoblanadi. Shu sababli erigan gazlarning to'yinish bosimini o'rganish ahamiyatlidir.

Suvli kompleksdagi erigan gazlarning to'yinish bosimi miqdoridan gidrostatik (gidrodinamik) bosimlar miqdori farqini aniqlash zarur, ya'ni  $\Delta p = pc - pr$ ,

bunda erigan gazlar elastikligining yetishmasligi ifodalanadi. Agar erigan gazlarning to'yinish bosimi ( $p_r$ ) gidrostatik bosimga ( $p_c$ ) teng (yoki biroz katta) bo'lsa ( $p_r \geq p_c$ ), u holda barcha tutqichlarda gaz uyumlari mavjud bo'ladi. Demak, bu gaz uyumlarining mavjudligini bildiruvchi belgi hisoblanadi. Bunday gaz uyumlari Buxoro-Xiva Neft-gazli regionidagi Alan gaz konida mel yotqiziqlarida aniqlangan.

Agar suvli kompleksda erigan gazlarning to'yinish bosimi gidrostatik bosimdan ancha kichik bo'lsa ( $p_r < p_c$ ), u holda suvlar gazga to'yinmagan bo'ladi. Ko'pgina maydonlarda yirik gaz uyumlari mavjud bo'lsada, suvlarning gazga to'yinmaganligi kuzatiladi.

Qatlam suvleri gaz bilan to'yinganda gaz uyumlari hosil bo'ladi va uning hajmi ortadi, suv gazga yaxshi to'yinmagan bo'lsa, gaz uyumlarining buzilishi (erishi, oksidlanishi va sh.k.) kuzatiladi. Lekin ko'pgina hollarda suv gazga to'yinmaganda ham yirik gaz uyumlari saqlanib qolganligi ma'lum. Masalan, V.N. Korsenshteyn (1962) tomonidan G'arbiy O'zbekistondagi yuqori mel yotqiziqlarida shunday konlar mavjudligi qayd qilingan.

Suvlarning tarkibidagi erigan gazlarning tahlili (suv namunalarini gазsizlantirishdan olingan gaz aralashmalarining tahlili) natijasida erigan ayrim gazlarning miqdori, so'ngra hisoblash yo'li bilan ularning elastikligi aniqlanadi. Suvda erigan gazlarning elastikligini hisoblashda ikki hol mavjud: 1) gazlarning tarkibi, asosan, bir komponentli va bosimi 15 MPa dan kam; 2) gazlarning tarkibi murakkab (masalan, 65 % metan, 35 % azot) va bosimi 15 MPa dan yuqori. Birinchi holda hisoblashlarni Genri-Dal'tonlarning qonuniga asoslangan oddiy usullar bilan amalga oshirish mumkin:

$$p_r = \frac{V_r}{k}, \quad (12.1)$$

bunda  $p_r$  – erigan gazlarning elastikligi;

$V_r$  – suvning gazga umumiyligi to'yinganligi;

$k$  – ushbu gazning suvda erish koeffisienti.

Murakkab holatlarda hisoblashlar A.Yu.Namiot va M.M. Bondarevalar (1963) ishlab chiqqan usullarda bajariladi.

Quduq tubidan olingen namunalardagi erigan gazlar tarkibi asliga yaqinroq bo'ladi. Suv quduq tubidan quduq og'ziga etgunicha, undan erigan gazlarning asosiy qismi ajralib chiqadi, ya'ni gazning dastlabki tarkibi o'zgaradi. Quduq stvoldida erkin gazlar mavjud bo'lsa, suvning gatsizlanish jaryoni faollashadi, natijada erigan gazlarning kimyoviy tarkibi yanada ko'proq o'zgaradi, suvda gaz miqdori qanchalik ko'p bo'lsa, gatsizlanish jarayoni ham shunchalik sekinroq o'tadi.

Sulfidlar va serovodorodlarni aniqlash ishlari (yod bilan oksidlash usuli bilan aniqlanganda) faqat namuna olingen joyda o'tkazilganda ishonchli bo'lishi mumkin. Bunda ham serovodorodning ko'p qismi suvdan gaz fazasiga o'tadi. Umumiy ishqorlanish darajasini aniqlashda oltingugurt ni sulfidi va serovodorodli qismlarga ajratish ishonchli bo'limganligi sababli undan foydalanilmaydi.

Suvlarning gatsizlanish jarayonida, ayniqsa qattiq (xlorid-kalsiyli) suvlarda, ishqorlar miqdori pasayib ketadi. Ishqorli (gidrokarbonat-natriyli) suvlarda ishqorlanish darajasining o'zgarishi kamroq seziladi, ammo kalsiyning miqdori sezilarli darajada o'zgaradi. Ishqorlanish kamayishi bilan kalsiyning miqdori ham kamayib boradi, uning miqdori suvda oz bo'lganligidan bunday kamayish birdaniga sezilib qoladi ( $1-3 \text{ mg-ekv/l}$ ).

Bosim pasayishida yuz beradigan gatsizlanishdan tashqari, suvlarning tarkibiga quduqdagi sement ham ta'sir etadi, ayniqsa quduqda sementalash ishlari bajarilgandan keyin namuna olingen bo'lsa, bunday o'zgarishlar yaqqol seziladi.

Odatda, sementning tarkibida katta miqdordagi ortiqcha kalsiy gidrooksidi mavjud bo'lib, u kuchsiz kislotalarning anionlari bilan reaksiyaga kirishib, kalsiyning bir qator erimaydigan tuzlarini: karbonat, fosfat, silikat va h.k. hosil qiladi. Natijada, ishqorlanish darajasi kamayadi.

Bundan tashqari, kalsiy gidrooksidi suvdagi magniy bilan ham reaksiyaga kirishadi va bunda magniy gidrooksidining cho'kindisi hosil bo'ladi. Natijada, ba'zi quduqlarda o'tkazilgan har xil tahlillarda suvdagi magniy miqdori o'zgarib

turishi va odatda, uning kamayishi kuzatiladi, magniy kamayishi bilan mos ravishda ishqorlanish ham kamayadi. Cement kam minerallangan gidrokarbonat-natriyli va xlorid-magniyli suvlarga sezilarli ta'sir etadi. Xlorid-kalsiyli namakoblarga uning ta'siri sezilsiz.

Quvur orti bo'shlig'ida sementlash ishlari sifatsiz bajarilsa, har xil qatlamlarning suvlari aralashib ketishi mumkin. Agar har xil tipdag'i suvlari aralashib ketsa, u holda kalsiy karbonati cho'kindisi hosil bo'lib, ularning ishqorligi va qattiqligi kamayadi. Natijada omixta suvda natriyning xloridlari va sulfatlarining miqdori 100% ga yaqinlashib, mineralanishi o'xshash bo'lgan qatlam suvlarinikidan oshib ketadi. Bir tipli qatlam suvlarining aralashib ketishini aniqlash qiyinroqdir.

Minerallanishi har xil bo'lgan gidrokarbonat-natriyli va xlorid-magniyli suvlarning omixtasida qatlam suvlariga nisbatan ishqorlanish kamayadi. Yuqori darajada gazlangan suvlarning umumiy mineralanishi ularni bug'lanishi va kondensatsiyalanishidan o'zgarishi mumkin. Ammo bosimning pasayishi suvning kuchliroq bug'lanishiga temperaturaning pasayishi uni gaz fazasidan ko'proq kondensatsiyalanishiga sabab bo'ladi. Amalda bu jarayonlarni hisobga olib bo'lmaydi. Quduqlarda ikkala ormilning ta'siri kuzatiladi, lekin qaysi biri ustunroq bo'lishini aniqlash qiyin.

Quduqlarda erlift ishlatilsa, havo suvdagi hamma engil oksidlanuvchi ion-tuz komponentlarini oksidlaydi. Ikki valentli temir birinchi navbatda gidrooksidga o'tadi. Sulfidli oltingugurt va serovodorod, asosan, oltingugurtdan oldin, qisman esa sulfatlardan oldinroq oksidlanadi. Natijada sulfatsiz suvlarda ham sulfidlarning oksidlanishi natijasida sulfatlar paydo bo'lishi mumkin.


Gidrokarbonat-natriyli suvlarda yod havo ta'sirida oksidlanmaydi, ammo xlorid-kalsiyli namakoblarda bunday oksidlanish ro'y berib, bulardagi yod miqdori kamayishi mumkin. Suv namunasi havo kiradigan sharoitda saqlansa unda ham ushbu jarayonlar ro'y beradi, lekin bu jarayonlarning tezligi kamroq bo'ladi, bir necha haftadan so'ng oksidlanish erlift beradigan samaraga etadi. Oksidlanish

ehtimoli bo'lgan suvlardagi temir miqdorini aniqlash ishonchli natijalar bermaydi va olingan dalillarni boshqa suvlarniki bilan taqqoslash mumkin emas.

Sh unday qilib, namunaning olinish joyi, quduqning holati va uni ekspluatatsiya qilish usuliga qarab qatlam suvlari tahlilining natijalari anche farqlanishi mumkin. Suvlarning ion-tuz tarkibini topishdagi aniqlik tahlil metodikasiga ham bog'liq.

Neft va gaz konlari suvlarining asosiy ionlaridan tashqari, ko'pincha qo'shimcha ravishda, brom, yod, bor va ba'zida sulfidli oltingugurt miqdori ham aniqlanadi. Temir va marganets miqdorini aniqlash, ularning havoda oson oksidlanishi hamda mustahkamlovchi quvurlarning korroziyasi sababidan ulami suvga qo'shilishi mumkinligidan ishochsizroqdir. Suvlardagi organik moddalar miqdorini aniqlashda bir qator kamchiliklar mavjud bo'lib, xatolarga olib keladi.

Suvda erigan gazlarning to'yinish (elastik) bosimini  $r_{to'}$  bevosita aniqlashda 1,5–2 km chiqurliklar uchun I.K.Zerchaninov taklif etgan usul qo'llaniladi. Buning uchun chiqurlik namunaolgilchilari yordamida quduq stvolining 4–5 joyidan namuna olib suvning gazga to'yinganligi aniqlanadi. Olingan dalillar bo'yicha gazga to'yinganlikning chiqurlik bo'yicha o'zgarish grafiklari chiziladi. Grafiklar ikki xil bo'lishi mumkin (12.1-rasm).



**12.1-rasm.** Suvning gazga to'yinishini quduq chiqurligi bo'yicha o'zgarish grafigi (I.K.Zerchaninov bo'yicha).

I-grafik quduq stvolidagi suvning gazga to'yinganligini doimo oshib borishini ko'rsatadi, ya'ni to'yinish bosimi quduq tubidagi bosimga teng yoki undan kattaroqdir. Demak, qatlardagi suv gazga to'yingan yoki ortiqcha to'yingan.

II-grafik gazga to'yinish ma'lum chuqurlikkacha ortib borishini, undan pastda esa o'zgarmas bo'lishini ifodalaydi. Chiziqning sinish nuqtasi quduqdagi suv ustunining bosimi suvda erigan gazning to'yinish bosimiga teng bo'lgan joyni qo'rsatadi. Ushbu chuqurlikni grafikdan aniqlab, statik sath va quduqdagi suvning zichligini bilgan holda to'yinish bosimini aniqlash mumkin:

$$r_{to'y} = (N_{to'y} - N_{st})\rho_s / 100, \quad (8.2)$$

bunda  $N_{st}$  – statik sathning chuqurligi;

$N_{to'y}$  – chiziqning sinish nuqtasini chuqurligi;

$\rho_s$  – quduqdagi suvning zichligi.

### 13. YER OSTI SUVLARIDA DAVRIYLIK

#### 13.1. Yer osti suvlarning yoshini aniqlash

Litosfera suvlarining shakllanish sharoitlarini o'rghanishda ularning absolyut (mutlaq) yoshini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Hozirda mavjud bo'lgan usullar buni aniqlashda avvalo suvdagi geliy va argon miqdorini o'rghanishga asoslangan. Geliy radioaktiv parchalanish mahsuli bo'lgani uchun, uning miqdori yerosti suvlarining tog' jinsi ichida bo'lgan vaqtiga bog'liq. Yerosti suvlarining absolyut yoshini aniqlash uchun quyidagi formulalar ko'proq qo'llaniladi: erkin gaz uchun (V.P.Savchenko),

$$\tau = (\text{He/Ar})77,1 \cdot 106 \text{ yil}; \quad (13.1)$$

erkin gaz uchun (A.L.Kozlov),

$$\tau = (\text{He/Ar})25 \cdot 106 \text{ yil}; \quad (13.2)$$


erigan gaz uchun (A.L.Kozlov),

$$\tau = (\text{He/Ar})115 \cdot 106 \text{ yil}. \quad (13.3)$$

Keltirilgan formulalarda argonning miqdori radiogen argon ulushini hisobga olmay ishlataladi, natijada hisoblashlarda xatolarga yo'l qo'yiladi. Argonning

umumiy hajmida radiogen argon miqdorini aniqlash usuli Z.N.Nesmelova, K.S.Soldatova, M.N.Mitin tomonidan ishlab chiqilib, maxsus qo'llanmalarda keltirilgan.

F.A.Alekseev, L.V.Gorbushina, A.M.Ovchinnikov va V.G.Timinskiyalar tajriba sifatida geliy-argon usulida tog' jinslarida radioaktiv elementlar taqsimlanishini va geliyning paleozoy erasi intruziv jinslaridan mezozoy erasi suvli cho'kindi yotqiziqlariga diffuziyalanib oqib o'tishini hisobga olgan holda Toshkent artezian havzasi suvlaringin yoshini aniqlashdi. Shu usul bilan mel davri yotqiziqlaridagi suvlarning yoshi aniqlandi. Suv namunalari infil'tratsiya zonasidan boshlab, havza ichi tomon ketma-ket burg'ilangan quduqlardan olindi. Tuzilgan maxsus xaritada (13.1-rasm) suvlarning yoshi (mln. yillarda) har bir quduqda ko'rsatildi va izoliniyalarda ifodalandi.



**13.1.- rasm.** Toshkent artezian havzasidagi suvlarda deyteriya (D)ning taqsimlanishi (L.V. Gorbushina va b. bo'yicha): 1 – quduqlar (sur'atida – quduq nomeri, maxrajida – suvning yoshini, yillarda, D ning konsentratsiyasiga, nisbiy birliklarda, nisbati); 2 – suvning yoshi izoliniyalari (mln.yil'); 3 – D ning konsentratsiyasi izoliniyalari (nisbiy birliklarda).

Toshkent artezian havzasidagi suvlarning yoshi 6·103 yildan — 4,7·106 yilgacha o'zgaradi. Suvlarning yoshi infil'tratsiya zonasidan uzoqlashgan sari ortib boradi va bu olingen natijalarning to'g'riliqidan darak beradi.

L.V.Gorbushina va V.G.Timinskiy gaz to'plamlarini va ularni o'z ichiga qamrab olgan litosfera suvli eritmalarining yoshini aniqlash uchun quyidagi formulalarni tavsiya etishdi:

$$\tau = \text{He}/[(11 \cdot 10^{-8} U + 2,4 \cdot 10^{-8} Th)(1 - D)Kajr\rho/n], \quad (13.4.)$$

bunda He – geliyning suvdagi konsentratsiyasi, sm<sup>3</sup>/sm<sup>3</sup>;

U,Th – tog' jinsidagi uran va toriy miqdori, g/g;

Kajr – tog' jinslarining qattiq qismidan geliyning ajralish koefisienti;

D – suv eritmasidan geliyning chiqib ketish koefisienti;

$\rho$  – tog' jinslarining zichligi;

n – tog' jinslarining g'ovakliligi;

$$\tau = (3,9 \cdot 10^{-4}/N)(\text{He}/\text{Ar}), \quad (13.5.)$$

bunda N = (12·10<sup>-8</sup> K<sub>p</sub> + 3,13·10<sup>-8</sup>)Kajr<sub>p</sub>/n;

K<sub>p</sub> – tog' jinslaridagi uran va toriyning radioaktiv muvozanat koefisienti;

3,9·10<sup>-4</sup> – atmogen argonning suvdagi konsentratsiyasi, sm<sup>3</sup>/sm<sup>3</sup>;

12·10<sup>-8</sup> – 1 g urandan bir yilda hosil bo'ladigan geliy miqdori;

3,13·10<sup>-8</sup> – 1 g toriydan bir yilda hosil bo'ladigan geliy miqdori.

Yerosti suvlarning yoshini hisoblashda qo'llaniladigan geliy-argon metodlari to'g'ri natijalar beradi.

Neft-gazlilik istiqbolini baholashda Yerosti suvlarning vaqt davomida bo'shalishini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Uning yordamida Yer qa'rining gidrogeologik ochiqligini, uglevodorodlami neft-gaz-suvli komplekslardan oqib chiqish ehtimolini, uyumlarning qayta shakllanishini hamda gidrogeologik rivojlanish tarixining bosqichlarida neft-gaz uyumlarining saqlanish darajasi haqida xulosa chiqarish mumkin bo'ladi.

Gidrogeologik rivojlanish tarixining elizion boqichlarini paleogidrogeologik tiklash asosida neft va gazning hosil bo'lish hamda yig'ilish zonalarini Yer qa'rida joylashishini belgilash mumkin. Bunda cho'kindi havzalaridagi qatlamlarning egilgan, chuqurlashgan, cho'kindilar yig'iladigan joylari (paleopezomaksimumlar)

*neft va gaz hosil bo'lish zonalari* sifatida, nisbatan ko'tarilgan joylari esa (paleopezominimumlar — ularda bosim pastroq bo'lib, flyuidlar ular tomon harakatlanadi) *neft va gaz yig'ilish zonalari* sifatida talqin etiladi.

Gidrogeologik tarix davrlarini belgilagan holda har bir kompleksning rivojlanish bosqichlari uchun davrlar bo'yicha gidrogeodinamik sharoitlarini tiklab, neft va gaz hosil bo'lish hamda neft va gaz yig'ilish zonalarining avvalgi joylarini saqlanib qolginganligi yoki vaqt davomida ulami yonlama (lateral) yo'nalishda siljiganligi aniqlanadi.

Paleogidrogeologik tiklashlar cho'kindi havzaning geologik va gidrogeologik tadqiq qilishning tarkibiy qismi hisoblanib, ular o'rganilayotgan hududning ayrim qismlarini neft-gazga istiqbolliliginini qiyosiy baholashga imkon beradi. 13.1-jadvalda uglevodorod konlarini izlashda bajariladigan paleogidrogeologik tadqiqotlarning bosqichlari keltirilgan.

### **Uglevodorod uyumlarini izlashda bajariladigan paleogidrogeologik tiklashlar sxemasi (A.A.Karsev va b. bo'yicha)**

13.1-jadval

Tadqiqotlarning asosiy bosqichlari	Neft va gaz uyumlarining shakdlanish va saqlanish sharoitlarini aniqlash	Neft-gazga istiqbollilikni sifat jihatidan baholash	Neft-gazga istiqbollilikni miqdoriy baholash
Gidrogeologik tarixni davrlarga bo'lish	Gidrogeologik sikllarni aniqlab elizion va infiltratsion bosqichlarning davomiyligini topish	Gidrogeologik sikllarning elizion va infiltratsion bosqichlarning davomiylik bo'yicha nisbati	Neft-gazga istiqbollilikni miqdoriy baholash
Paleogidrogeodinamik tiklashlar	Tabiiy suv bosimli sistemalar tiplarini ajratib ularning cho'kindi havzadagi rivojini tahlil etish	Elizion bosqichlardagi paleopezominimum va paleopezomaksimumlarni ajratish. Elizion va infiltratsion bosqichlarda flyuidlar migratsiyasi sharoitlarini tiklash. Suvlarning bo'shalish miyosini baholash	ESASh va ISASh larni hisoblash
Paleogidrogeokimyoiy tiklashlar	Suvlarning minerallanishi, tarkibi, suvda erigan gazlarning va h.k. o'zgarishini aniqlash	Suvli komplekslardagi sedimentogen va infiltratsion suvlarning nisbati	Suvlardagi uglevodorodlar va oksidlovchilar miqdorini aniqlash

Paleogidrogeo-termik tiklashlar	Temperatura, geotermik gradient va h.k. o'zgarishini aniqlash	Uglevodorodlarning fazaviy holatini bashoratlash	
Paleogidrogeologik dalillarni uyg'unlashtirib, xulosa chiqarish	«»	Neft-gaz hosil bo'lish hamda neft-gaz yig'ilish zonalaring nisbati (vaqt bo'yicha va makonda). Neft-gazga istiqbollilikni baholash, istiqbollilikning turli darajasi bo'yicha hududlarni ajratish. Izlov va razvedka ishlari uchun ob'ektlarni tavsija etish	Neft-gaz hosil bo'lish va buzilish balanslarini hisoblash

## 14. NEFTSUV TUTASH YUZALARI BO'YICHA BOG'LIQLIK

### 14.1. Neft suv tutash yuzasining qiyaligi va p'ezometrik satx orasidagi bog'liqlikni aniqlash

Suvli muhitda Neft-gaz uyumlari barpo bo'ladi va buziladi. Yerosti suvlari va ularda erigan ayrim moddalar uyumlarning butligini buzuvchi asosiy omillar deb hisoblanadi. Yerosti suvlari ta'sirida Neft-gaz uyumlari va konlari mexanik, fizik-kimyoviy, kimyoviy va biokimyoviy yo'llar bilan buziladi. Uyumlarning mexanik yo'l bilan buzilishi qatlamlarda harakatlanayotgan suvlar Neft va gaz zaxiralarini muallaq holatda ko'p fazali oqimlar tarkibida oqizib ketishidan sodir bo'ladi. Uyumlarning fizik-kimyoviy buzilishi undagi flyuidlarning gidrogeologik sharoitlari o'zgarishi bilan bog'liq holatda suvda erishi va oqizib ketilish bilan amalga oshadi. Neft-gaz uyumlarining kimyoviy yo'l bilan buzilishi uglevodorodlarning suvda erigan moddalar, asosan, kislород va sul'fatlar ta'sirida oksidlanishi hamda parchalanishida sodir bo'ladi. Biokimyoviy buzilishlar bakteriyalar ta'sirida yuz beradi. Uglevodorodlar mexanik buzilishda harakatlanayotgan suv ichida va qo'p fazali oqimlar tarkibida oqib ketadi. Fizik-kimyoviy buzilishda fizik sharoitlarning o'zgarishi sababili uyumlardagi moddalar suvda eriydi. Kimyoviy buzilishda uyumlar tarkibidagi uglevodorodlar suvlarda erigan moddalar, asosan, kislород va sul'fatlar ta'sirida oksidlanadi. Va nihoyat, bakteriyalar ishtiropi bu jarayonga biokimyoviy ko'rinish beradi.

Neft va gaz uymularining mexanik (gidravlik) buzilishi uyumdag'i Neft-suv yoki gaz-suv tutash yuzalarida qiyalik, ya'ni gidravlik qiyalik paydo bo'lishi bilan boshlanadi. Ushbu tutash yuzalarning qiyaligini gidravlik qiyalik bilan bog'liqligini bir qo'pgina tadqiqotchilar takidlashgan. Gaz-suv va Neft-suv tutash yuzalarning gorizontal holatda bo'lishi xususiy holat bo'lib, ular faqat harakatsiz suvlarda uchraydi.

M.Xabbert bo'yicha, Neft-suv yoki gaz-suv tutash yuzalarining gidravlik qiyalikka bog'liqligi quyidagi formula yordamida ifodalanadi:

$$\operatorname{tg} \theta = \frac{\rho_c}{\rho_c - \rho_s} \frac{dh}{dl} = \frac{dz}{dx} \quad (14.1)$$

bunda  $\theta$  – Neft-suv tutash yuzasi va gorizontal yuza orasidagi burchak;

$$\frac{dz}{dx}$$

– Neft-suv tutash yuzasining qiyaligi;

$$\frac{dh}{dl}$$

– p'ezometrik yuzanining qiyaligi;

$\rho_c$  – suv zichligi;


$\rho_s$  – Neft zichligi (on o'miga gaz zichligini  $\rho_g$  qo'yib gaz-suv tutash yuzasi qiyamatini hisoblash mumkin).

Gidravlik qiyalikning bog'liqligi 13.1-formula va 13.1-rasmida ifodalangan.

(13.1) formulani boshqa ko'rinishda yozish ham mumkin:

$$\operatorname{tg} \theta = \frac{\rho_c}{\rho_c - \rho_i} \cdot i, \quad (14.2)$$


bunda  $i$  – gidravlik qiyalik.



**14.1-rasm.** Neft-suv tutash yuzasining qiyaligi va p'ezometrik sath orasidagi bog'liqlik (A.I.Levorsen bo'yicha, o'zgartirishlar bilan):  
1 – gaz; 2 – Neft; 3 – suv; 4 – suv harakatining yo'nalishi.

Shunday qilib, Neft-suv (gaz-suv) tutash yuzasining qiyaligi gidravlik qiyalikka to'g'ri proporsional bo'lib, uning qiymati tutashuvchi suyuqliklar zichligining farqiga bog'liq bo'ladi.

14.2-rasmdagi grafiklardan ko'rinish turibdiki, og'ir (zichroq) neftlarda Neft-suv tutash yuzasining qiyaligi yengil (zichligi kamroq) Neft va gazlarnikidan ancha kattaroqdir.



**14.2-rasm.** Neft-suv tutash yuzasining qiyaligini gidravlik qiyalik va Neft va gaz zichligiga bog'liqligi (A.I.Levorsen bo'yicha, o'zgartirishlar bilan).

Egri chiziqlardagi raqamlar – Neft va gazlarning zichligi, g/sm<sup>3</sup>.

Agar suvning nisbiy zichligi birga, neftniki 0,8 ga (qatlam sharoitida tez-tez uchraydigan qiymat), gazniki (quruq) 0,001 ga teng deb olsak, u holda (14.2)

$$\text{tg}\theta = \frac{1}{1 - 0,001} \cdot i$$

formuladan, gaz uyumi uchun bo'ladi.

Gaz zichligi qiymati nisbatan juda kichik bo'lgani uchun uni hisobga olmasa ham bo'ladi:

$$\text{tg}\theta_i = i \quad \text{tg}\theta = i \text{ bo'ladi}, \quad (14.3)$$

(10.2) formulaga Neft uyumi uchun  $\rho_H = 0,8$  qiymatini qo'ysak:


$$\text{tg}\theta_i = 5i \quad \text{bo'ladi.} \quad \text{tg}\theta_e = 5i = 5\text{tg}\theta_r, \quad (14.4)$$

Demak, Neft va gaz zichligining tanlangan qiymatlari (suv zichligi 1,0, Neft zichligi 0,8, gaz zichligi 0,001 bo'lganda) bir xil giravlik qiyaligidagi Neft-suv tutash yuzasining qiyaligi gaz-suv tutash yuzasinkidan 5 marta kattaroq bo'ladi. Lekin yog'li gazlar uchun, ayniqsa bosim yuqori bo'lganda, bu nisbat qiymati juda kichik (2-3 orasida) bo'ladi.

Gaz-suv va Neft-suv tutash yuzalari qiyaliklari suv harakatining yo'nalishini ko'rsatuvchi mezon hisoblanadi.

Gumbazsimon tutqichlarda Neft-suv (gaz-suv) tutash yuzasining qiyaligi tutqich qanonining qiyaligidan tikroq bo'lsa Neft (gaz) tutqichdan to'liq yuvilib ketib, uyum g'oyib bo'ladi. Bu uyuming suv ta'sirida mexanik buzilishidir.

Uyuming suv ta'sirida mexanik yo'l bilan buzilib – yuvilib ketmasligining sharti  $\theta < \alpha$  tengsizlik bo'lib, bunda  $\alpha$  – tutqich qanonidagi qatlamning og'ish burchagi (i yo'nalish bo'yicha);  $\theta$  – Neft-suv (gaz-suv) tutash yuzasining qiyalik burchagi. Bunday holatda uyum saqlanib qoladi. 14.3-rasmida uyumlarning suvning mexanik ta'siridan saqlanib qolish va buzilib ketish sharoitlari ifodalangan. Bunday holat gumbaz turidagi tutqichlar uchun ahamiyatlidir.



**14.3-rasm.** Neft uyumlarini suvning mexanik ta'sirida saqlanib qolish (a) va buzilib ketish (b) sharoitlari sxemasi.

**14.3-rasm.** Neft uyumlarini suvning mexanik ta'sirida saqlanib qolish (a) va buzilib ketish (b) sharoitlari sxemasi).

Gaz va Neft uyumlarining yuvilishidan to'liq saqlanib qolishi uchun qatlamlarning minimal qiyalik burchagi ( $\rho_c = 1$ ,  $\rho_h = 0,8$ ,  $\rho_r = 0,001$ )

#### 14.1-jadval

Gidravlik qiyalik	Qatlamlarning og'ish burchagi		Gidravlik qiyalik	Qatlamlarning og'ish burchagi	
	gazli uyumlar (quruq gaz)	neftli uyumlar		gaz uyumlari (quruq gaz)	Neft uyumlari
0,0001	0° 00'18"	0°01'30"	0,01	0° 30'	2° 30'
0,001	0° 03'	0° 15'	0,1	6°	3°

14.1-jadval bo'yicha, Neft-gaz komplekslarida, odatda, uchraydigan gidravlik gradientlarda, quruq gaz uyumlari deyarli hamma tutqichlarda saqlanib qolishi mumkin; neftli uyumlar esa gidravlik gradientlar 0,005–0,01 bo'lishidan boshlab (qatlam qanotlarining og'ishi 1° dan kichik bo'lgan) tutqichlardan yuvilib ketadi. Neft uyumlari gidravlik buzilishga 'gaz uyumlariga nisbatan chidamsizroqdir. Nisbiy zichligi 1,2 bo'lgan namakoblar va yengil neftlar uchun minimal og'ish burchaklari 2,5 marta kichik; og'ir Neft va chuchuk suvlarda esa taxminan 2 marta katta bo'ladi.

Fizik-kimyoiy buzilish gazzlarning yeroti suvlarida erishidan sodir bo'ladi. Gidrostatik bosimning ortishi va temperaturaning 100–120°C gacha ko'tarilishi uyumdagi metanning suvda erishini keskin orttiradi, natijada uyum butunlay erib, suv bilan oqib ketishi mumkin. V.N.Korsenshteyn (1961) fikricha, temperatura 120°C dan ortganda gaz uyumlari butunlay buzilib yo'q bo'lib ketadi.

Neft uyumlaridagi uglevodorodlar suvda metan va uning gomologlariga nisbatan yomon eriydi. Shu sababli ularning fizik-kimyoviy buzilishi ham sokinlik bilan kechadi. Bu jarayon kam o'rganilgan. Uyumlarning ayrim joylarida neftning ba'zi komponentlarining erishi ham kuzatiladi.

Kimyoviy buzilish Neft-gaz va gaz uyumlaridagi uglevodorodlarning yerostি suvlarida erigan kislород va sul'fatlar ta'sirida oksidlanishidan sodir bo'ladi. Bu jarayon biokimyoviy buzilish bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bunda bakteriyalar uglevodorodlarni "eb" yuboradi. Shu sababli Neft va gaz uyumlarining ushbu ko'rinishlardagi buzilishini birgalikda o'rganish zarur.

Uglevodorodlarning aerob (o'zining yashashi uchun erkin kislородга muhtoj organizmlar ta'sirida) oksidlanishi suvda erigan kislород hisobiga amalga oshadi. Erigan kislород yerostи suvlarida 500–600 m chuqurlikda (balki undan ham chuqurroqda) uchrashi va uning miqdori milligrammning yuzdan biridan 4–5 mg/l gacha yetishi ma'lum. Bu gidrogeologik sharoitlar, infil'trasion suvlarning harakat tezligi, jinslarning sul'fidlar va organik moddalarga to'yinganligiga bog'liqdir. Lekin, Neft va gaz uyumlariga yondoshgan suvlarda ko'pincha kislород bo'lmaydi. Demak, infil'trasiya zonalaridan uzoqda joylashgan uyumlarga kislород yetib borishi uchun, infil'trasion suv almashuvining tezligi juda yuqori bo'lishi yoki infil'trasion bosqich juda uzoq vaqt davom etishi, suvli kompleksdagi hamma oksidlanuvchi minerallar va suv komponentlari oksidlanib bo'lishi kerak. Erigan kislород birinchi o'rinda infil'trasiya zonalariga yaqin joylashgan uyumlarga ta'sir etadi.

Uglevodorodlarning sul'fatlar bilan oksidlanishi katta ahamiyatga ega, chunki litosferadagi suv va namakoblarning aksariyatida u yoki bu miqdorda sul'fatlar mavjud.

Uglevodorodlarning oksidlanishi uchun zarur bo'lgan sul'fatlarning miqdori A.L. Kozlov va V.I. Sokolovlar tomonidan hisoblangan. Unga ko'ra, 1 g SN<sub>4</sub> ni oksidlash uchun 6 g SO<sub>4</sub><sup>2-</sup> ioni kerak bo'ladi. Demak, 1 g C<sub>15</sub>H<sub>32</sub> (pentadekan) uglevodorodni oksidlash uchun 0,5 g SO<sub>4</sub><sup>2-</sup>, 1 mlrd. m<sup>3</sup> gaz (metan)ni to'liq oksidlanishi uchun 6 mln. tonna SO<sub>4</sub><sup>2-</sup>, 1 mln. tonna neftni (shartli ravishda

Neft faqat bitta pentadekandan tuzilgan deb qabul qilsak) oksidlash uchun 0,5 mln. tonna  $\text{SO}_4^{2-}$  ioni zarur bo'ladi.

Harakatlanayotgan yerosti suvlarida erigan holatdagi sul'fatlar mavjud bo'lib, ularning dinamik zaxiralari suvda erigan miqdoriga va suvlarning siljish tezligiga bog'liq. Gaz uyumini erigan sul'fatlar bilan to'liq oksidlanishi (tok) quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$\tau_{\text{ок}} = 6k_{\text{ок}} \frac{Q_r}{u_c Fm_{\text{ок}}}, \quad (14.5)$$

bunda uc – yerosti suv oqimi tezligi;

F – gaz-suv tutash yuzasining maydoni;

mok – suvdagi oksidlovchi (sul'fat)lar miqdori;

Qr – uyumdagi gaz zaxirasi;

kok – oksidlanish koeffisienti.

Neft uyumlarining oksidlanishi (14.5) formula bilan hisoblanganda (barcha Neft pentadekandan iborat deb olinib) 6 soni o'miga 0,5 koeffisient qo'yiladi, kok koeffisienti ham Neft tarkibiga ko'ra o'zgaradi, uning qiymati birdan ortiq bo'ladi. Gaz uyumlarining sul'fatlar bilan oksidlanishi Neft uyumlarnikiga nisbatan biroz chegaralangandir.

Uglevodorodlarning biokimyoiy oksidlanish sharoitlari hali yetarlicha o'rganilmagan. Desul'fator-bakteriyalar temperatura 90–95°C hamda suvlarning minerallanishi taqriban 300 g/l dan ortsa va pH < 5 dan pasaysa rivojlanmaydi degan ma'lumotlар bor.

Temperatura omili ayniqsa katta ahamiyatga ega. Gaz (metan) uyumlarini sul'fatlar bilan abiogen oksidlanishi mumkin emasligi hisobga olinsa, temperatura 95°C dan ortganda, ular bunday nurash turidan himoyalanganligi ma'lum bo'ladi. Neft uyumlari esa yuqori temperaturalarda ham sul'fatlar hisobiga oksidlanishi mumkin, temperatura ortishi bilan abiogen oksidlanish jarayoni ham jadallahadi.

Oksidlanish jarayoniga uyumlar shakli va Neft-suv (gaz-suv) tutash yuzalarining shakli qanday ta'sir etishiga kelsak, oksidlanish jarayoni, asosan, uglevodorodlarning suv bilan tutashgan joyida ro'y berishi kuzatiladi. Demak,

Neft-suv (gaz-suv) tutash yuzasi maydoni uyum hajmiga nisbatan qanchalik katta bo'lsa, oksidlanish tezligi shunchalik katta bo'ladi. Albatta, «suvda suzib yuruvchi» uyumlar va oraliq suvli, kichik qatlamlari qiyiqlanadigan uyumlarning oksidlanishi chekka suvlari bor uyumlardan ko'ra tezroq kechadi; pastqam uyumlar baland uyumlardan tezroq oksidlanadi.

Neft-suv tutash yuzalaridagi o'ta zikh Neft va asfal'tsimon moddalar (bitum)ning oksidlanishi hamda uglevodorodlarning to'liq oksidlanmasligi natijasida paydo bo'ladigan hosilalar Neft uyumining buzilib ketishiga yoki Neft uyumining kimyoviy qayta shakllanishiga sabab bo'lishi mumkin. Neft-suv tutash yuzasida qalinligi bir necha metrga yetadigan o'ta zikh Neft yoki asfal'tsimon, siljimaydigan bitumlar qati (hoshiyasi) ko'pgina joylarda uchraydi. Oksidlanish natijasida uyumlarda qayta hosil bo'lgan flyuidlar uyumning boshqa qismalaridagi neftlarni oksidlanishiga to'siq bo'lib, halaqit beradi. Bunday sharoitlarda oksidlanish jaryonining uyumning qolgan qismiga ta'siri yaxshi o'rganilmagan. Ammo, tabiatda oksidlanish natijasida to'liq qayta o'zgargan Neft uyumlari mavjud.

Oksidlanish natijasida Neft uyumidagi hamma moddalar to'liq o'zgarib smola, organik kislota va boshqa kislorodli birikmalarga aylanganligini va uni Neft uyumi sifatida yo'q bo'lib ketganligini hamda qattiq bitum uyumi hosil qilganligini ko'rish mumkin.

Metan oksidlanganida uyumda hech qanday oraliq mahsulotlar va ulardan tarkib topgan hoshiyalar paydo bo'lmaydi. Metan va unga yaqin gomologlar oksidlanganda gaz uyumi karbon kislotasi bilan boyishi mumkin, ammo bu gazning eruvchanligi uglevodorodlarnikidan keskin ortishi sababli, uning miqdorini hisobga olmasa ham bo'ladi. Gaz uyumlarining kimyoviy o'zgarishidan boshqa moddadan iborat uyum hosil bo'lmaydi (azot qoldig'i yig'ilishi mumkin bo'lsa ham), oksidlanish natijasida gaz uyumi to'liq buziladi.

## **15. KONLARDAGI QATLAM SUVLARI SATXLARI**

### **15.1. Konlardagi qatlam suvlarning satxlarini aniqlash**

Suvli gorizontlarni sinash gidrogeologik tadqiqotlarning muhim qismi hisoblanadi. Gidrogeologik sinash ishlari suvli gorizontlarning mahsuldorligi, suv sarfi va statik sathini aniqlash hamda yerosti suvlari va namakoblarini kimyoviy tahlil qilish maqsadida namunalar olish uchun bajariladi. Suvli gorizontlarni sinash natijasida yerosti suvlari va namakoblar zaxiralarini baholash, ulardan foydalanish loyihasini tuzish hamda Neft-gaz izlash va Neft-gaz qazib chiqarish masalalarini hal qilish uchun zarur bo‘ladigan gidrogeologik parametrlari (qatlam bosimi, suvda erigan gaz miqdori, temperaturasi, jinslarning suvlanganligi, o‘tkazuvchanligi, p’ezoo‘tkazuvchanligi va b.) aniqlanadi.

Favvoralanadigan suv quduqlaridagi sath quduq og‘ziga o‘rnatilgan namunali manometrlar yordamida o‘lchanadi. Favvoraning balandligi va suv chiqayotgan quvurlarning diametri orqali suv debitini hisoblash mumkin. Suv yer yuzasiga favvoralanib chiqmagan hollarda quduqdagi bosimli suvlar nasoslar va kompressorlar yordamida chiqariladi.

Suvli gorizontlarni dastlabki sinash quvurlarga o‘rnatilgan qatlam sinagichlar va kabelda quduqqa tushiriladigan sinagichlar yordamida amalga oshiriladi. Amaliyotda birinchi turdagи sinagichlardan keng foydaliladi. Ular mustahkamlash quvurlari tushirilmagan, gil eritmasidan tozalanmagan quduqlarda qisqa vaqt davomida sinash ishlarini bajarish imkonini beradi. Bunday dastlabki sinash ishlari quduq stvolini chuqurlashtirishlar oralig‘idagi tanaffuslar vaqtida o‘tkazilganligi sababli qatlamning to‘liq qalinligi (masalan, suvlarning kimyoviy tarkibi) bo‘yicha aniq ma'lumotlar olib bo‘lmaydi.


Hozirgi vaqtida suvli gorizontlarni sinash burg‘ilash ishlari tugallangan, quvurlar bilan mustahkamlangan, gil eritmalardan yuvib tozalangan quduqlardan suv chiqarish orqali amalga oshiriladi. Suv chiqarishning dastlabki va tajriba usullari ajratiladi.

Dastlabki suv chiqarish yerosti suvlari va namakoblarning dastlabki izlov va razvedka bosqichida ayrim quduqlarda amalga oshiriladi. Bunda suvning statik

sathi vaqt tanqisligi sababli ikki bosqichda pasaytiriladi. Mufassal razvedka ishlarini bajarishda quduqlar kustida (bitta markaziy quduq va bir nechta kuzatuv quduqlaridan) foydalanib tajriba suv chiqarish o'tkaziladi. Suv asosan markaziy quduqdan nasos, kompressor yoki chuqurlik nasosi yordamida chiqariladi, kuzatuv quduqlarida esa suv sathining o'zgarishi o'lchab kuzatib boriladi. Tajriba suv chiqarishda suv sathi uch bosqichda pasaytiriladi. Suv chiqarish qisqa vaqtli (3 brigada-smena) va uzoq vaqtli (9 brigada-smena) bo'ladi. Tajriba suv chiqarishda bir-biriga yaqin joylashgan quduqlardagi o'zaro ta'sirlar kuzatib boriladi.

Suv chiqarish quduqlaridan chiqayotgan suv zichligi o'zgarmas holga kelgandan so'ng suv sarfi o'lchanadi. Bu maqsadda hajmi oldindan ma'lum bo'lgan idishda quduqdan chiqarilayotgan suyuqlik sarfi – hajmi vaqt davomida (1 s, 1 minut, 1 soat) aniqlanadi. Agar quduqda bir vaqtda bir nechta gorizontlar sinalayotgan bo'lsa va har bir gorizontning mahsuldarligini alohida aniqlash zarur bo'lsa, u holda chuqurlik sarfo'lchagichidan foydalaniladi.

Suv chiqarish vaqtida quduqdagi suv sathi sezilarli pasayadi, statik sathni aniqlash uchun quduqdan suv chiqarish to'xtatilib, suv sathining ko'tarilishi kuzatib boriladi. Kuzatuvlar suv sathi qiymati oxirgi uch o'lchovda bir xil bo'lganda to'xtatiladi va sath barqarorlashgan deb hisoblanadi. Olingan ma'lumotlar bo'yicha suv sathining tiklanish grafigi tuziladi (8.3-rasm). Agar suv oqimi sarfi kichik bo'lsa, suv sathi quduqda juda sekin ko'tariladi, suv sarfi katta bo'lsa, buning aksi kuzatiladi.



**15.1-rasm. Quduqlarda suv sathi tiklanishining egri chizig'i (Yu.P.Gattenberger bo'yicha). Sathning statik holatga kelishi: a) tez, b) sekin, v) sath statik holatgacha tiklanmagan.**

Quduqdagi suvning statik sathi qanchalik uzoq muddat kuzatilsa, uning aniqligi shuncha oshadi. Quduqdagi keltirilgan bosimni aniqlash uchun statik sath bilan birga quduqdagi suvning zichligi va temperaturasi ham aniqlanadi.

Yerosti suvlari, Neft va boshqa suyuqliklarning quduqdan tortib chiqarilayotganda pasaygan sathi dinamik sath deb ataladi. Sathning pasaygan qiymati statik yoki p'ezometrik sath bilan dinamik sathlar farqi ( $S$ ) orqali topiladi. Dinamik sath markaziy quduqdan  $0,3\text{--}0,5$  m masofada qazilgan kuzatuvin qudug'i yordamida o'lchanadi. Dinamik sath o'lchovlari yordamida solishtirma debit aniqlanadi.

Burg' qudug'inining solishtirma sarfi ( $q$ ) deganda bosimli yoki bosimsiz suv sathi  $1 \text{ m}$  ga pasaytirilganda burg' qudug'i beradigan suv (Neft, gaz) hajmi ( $\text{l/s}$ ) tushuniladi. Demak,

$$q = \frac{Q}{S}, \quad (15.1)$$

bunda  $q$  – solishtirma sarf ( $\text{l/s}$ );

$Q$  – burg' qudug'inining sarfi ( $\text{l/s}$ );

$S$  – burg' qudug'idagi suv sathining pasaygan qiymati,  $\text{m}$ .

Agar quduqning solishtirma suv sarfi  $2 \text{ l/s}$  (yoki  $7,2 \text{ m}^3/\text{soat}$ ) dan oshsa, quduq mo'l suvli hisoblanadi. Solishtirma suv sarfi miqdoriga qarab quduqlarning suv bera olish imkoniyatlari to'g'risida fikr yuritish mumkin. Masalan, № 1 va № 2 quduqlarda suv sarfi bir xil, ya'ni  $Q_1 = Q_2 = 10 \text{ m}^3/\text{sut}$  bo'lsin. Lekin ularning solishtirma suv sarfi har xil bo'lishi mumkin. Agar suv chiqarish paytda birinchi quduqda suv sathi  $4 \text{ m}$  ga, ikkinchi quduqda  $10 \text{ m}$  ga pasaygan bo'lsa, solishtirma suv sarfi  $2,5$  va  $1,0 \text{ m}^3/\text{sutka}$  bo'ladi. Demak, birinchi quduqning suv bera olish imkoniyati yaxshi ekanligi ma'lum bo'ladi.

Favvoralanuvchi quduqlardagi suv bosimi namunali manometrlar yordamida o'lchanadi. Quduq og'zidagi bosimni avtomatik ravishda qayd etish uchun Kornelyuk-Yakovlevning quduq og'zi manometri (Yakor-II)dan foydalilanadi. Suvlar quduq og'ziga o'matilgan jo'mraklar orqali chiqarilib, ularning miqdori o'lchanadi. Agar quduqdagi suv bosimli bo'lsada yer yuzasigacha yetib

kelaolmasa, u holda bunday suvlar nasoslar va erliftlar yordamida chiqarilib, sinash ishlari olib boriladi.

Burg'ilash vaqtida ochilgan qatlamlarni sinash quvur bilan mustahkamlangan va mustahkamlanmagan quduqlarda bajariladi. Mustahkamlanmagan quduqlarda dastlabki sinash qatlam sinagichlari bilan amalga oshiriladi. Sinov uskuna to'plami (SUT) deb nomlangan qatlam sinagichlar keng qo'llanadi. Bular quduqqa burg'ilash quvurlari yordamida tushiriladi. SUT ni qo'llashning afzalliklari quyidagilardan iborat: sinash ishlarini bajarishga kam vaqt sarflanishi hamda quduqni quvurlar bilan mustahkamlash va gil eritmasidan tozalash kerak emasligi. Ammo qatlam sinagichlari, asosan, qatlamning sifat tomonidangina tavsiflashga, ya'ni qatlamning gaz, Neft yoki suvga to'yinganligini aniqlashga imkon beradi.

Batafsil ma'lumotlar mustahkamlangan quduqlarni tadqiq ztish natijasida olinadi. Mustahkamlangan quduqlarda quvur orti bo'shlig'ining sementlanishi natijasida yopilib qolgan qatlamlar ham sinaladi. Bunday qatlamni ochish uchun mustahkamlash quvuri va cement halqasi perforator yordamida teshiladi. Quduqni gil eritmasidan tozalash burg'ilash kolonnasi yoki nasos-kompressor quvurlari yordamida suv bilan yuvib amalga oshiriladi.

Qatlamni faollashtirish va flyuid oqimini chaqirish (harakatga keltirish) uchun quduqdagi suyuqlik ustunining bosimi pasaytiriladi. Bunda qatlam bosimi quduqdagi bosimdan ortiqroq bo'lsa, qatlamdagi suyuqlik quduq tomon oqim hosil qilib harakatlanadi.

Odatda, quduqdagi suv sathi svablash yoki kompressor usullarini qo'llab pasaytiriladi. Svablashda teskari klapanli porshen' (svab – quvur) ishlataladi. Quvur suyuqlik sathidan pastroqqa botirilayotganda klapan ochilib, suv porshen' ustidagi bo'shliq – quvurni bermalol to'ldiradi. Quvur yuqoriga ko'tarilganda klapan yopiladi, porshen' ustidagi suyuqlik yuqoriga – yer yuzasiga chiqariladi.

Kompressorli usulda quduqdagi suyuqlik havo bosimi ta'sirida yer yuzasiga chiqariladi. Bunda quduqqa ikkita quvur tushiriladi. Birinchesidan kompressor orqali quduqqa havo haydaladi. Quduqdagi suv havo bilan aralashganda suvning

zichligi kamayadi va u ikkinchi quvur orqali quduqdan yer yuzasiga chiqadi. Qatlam suvining gазsizlanmasligi uchun quduqda suv ustuni qoldiriladi, uning bosimi suvda erigan gazlarning to‘yinish bosimidan yuqoriroq bo‘lishi zarur. Agar qatlamdan chiqayotgan oqim 1m<sup>3</sup>/sutka dan kam bo‘lsa, qatlam suvsiz hisoblanadi.

Qatlamdan suv chiqarish uning ion-tuz tarkibi barqarorlashgunicha davom etadi. Amalda suv tarkibining barqarorligi xlor ionlari miqdori, zichlik va rN ga qarab belgilanadi. Bu parametrlar bevosita quduq oldida aniqlanadi. Agar ketma-ket olingan uch namunada zichlik, rN va xlor miqdori o‘zgarmasa, suv tarkibi barqaror hisoblanadi. Namunalar olish orasida quduq ustuni hajmining 1/3 qismidan kam bo‘lmagan miqdorda suv chiqariladi.

Suvli qatlamning mahsulorligini qatlamdan suv chiqarish jarayonida sathning pasaygan miqdori yoki quduq to‘xtatilgach, sath tiklanishining tezligi bo‘yicha chamlasa bo‘ladi.

Barqarorlashgan oqimni aniqlash uchun bir necha sutka davomida bir xil dinamik sathni saqlab suv chiqarib turiladi. O‘lchov idishining hajmi va to‘lishi vaqtinani aniqlanib suv debiti topiladi. Favvoralanadigan quduqlarda debit o‘lchov idishi yoki sarfo‘lchagichlar yordamida aniqlanadi. Favvoralanadigan quduqlar, odatda, bir nechta rejim bilan suyuqlikni muayyan chiqarib olish metodi bo‘yicha tadqiq qilinadi. Oqib chiqayotgan suv sarfi shaybalar yoki quduq og‘zidagi surma klapanlar bilan boshqariladi. Har bir rejimda quduqning ishlash vaqtini ikki sutkadan kam bo‘lmasligi zarur. Quduq og‘zidagi ortiqcha bosim namunali manometr bilan o‘lchanadi. Oqib chiqayotgan suvning temperaturasi 30–35 0C dan ortsa, suyuqlikni bir maromda chiqarib olish metodini ishlatish uchun, har bir rejimda quduq og‘zidagi bosim o‘lchab borilishi kerak. Depressiya kichik bo‘lsa, LGM-4 differensial manometr ishlatiladi. Barqarorlashgan oqim o‘lchangandan keyin statik sath va qatlamdagi suv bosimini aniqlash uchun quduq to‘xtatiladi.

Sathning tiklanishi po‘kak, satho‘lchagich, p’ezograf, exolot va chuqurlik manometlari bilan o‘lchab boriladi, bosim esa MGP manometri yordamida blankaga yoziladi. Sath juda sekin tiklanganda quduqqa tarkibi o‘zinikiga mos

bo'lgan qo'shimcha suv quyilib, jarayon tezlashtiriladi. Qo'shimcha quyiladigan suvning miqdori qo'shni quduqlardagi statik sathning holatiga qarab belgilanadi.

Favvoralanadigan quduqlarda quduq og'zidagi bosimning tiklanishi quduq og'ziga qo'shimcha quvurlar ulanib yoki namunali manometrlar o'rnatilib aniqlanadi. Bunday o'lchovlarni o'tkazish jarayonida yopiq favvoralanadigan quduqlar og'zida ko'pincha suvdan ajralib chiqqan gazlar yig'ilib qolishini nazarda tutish lozim. Ularni vaqtı-vaqtı bilan manometr ostida joylashgan chiqaruvchi ventil orqali chiqarib tashlash zarur. Yana shuni hisobga olish kerakki, oqib chiqayotgan suvning temperaturasi 25–30 °C dan ortsa, to'xtatilgan quduq og'zidagi bosim statik bosimdan yuqoriroq bo'ladi, keyinchalik esa pasayib statik bosimga yaqinlashadi. Favvoralanadigan quduqlardagi bosimning tiklanish davrida quduq tubi bosimining tiklanish usuli qo'llaniladi. Odatda, quduq tubiga DGM-4 differensial manometri tushirilib, quduq yopiladi.



Agar quduqlar stvoli bo'yicha suvning zichligi o'zgarib tursa, u holda qatlAMDAGI bosim o'lchanmaydi. Zichlik o'zgarmas bo'lganida hamda Neft bilan suv aralashmasi oqimi olinganda manometrlardan foydalaniлади.

Sath barqarorlashgandan keyin qatlam suvining gazga to'yinganligi o'lchanib, gaz erigan suvlarning namunasi namunaolgich yordamida olinadi. Bosimi atmosfera bosimi darajasigacha pasayganidan keyin namunaolgichdagи suvdan ajrab chiqqan gaz I.K.Zerchaninov taklif etgan usul bilan olinishi mumkin.

Quduqdagi suv sathini o'lhash. Chuqurligi 300 metrgacha bo'lgan quduqlarda suv sathini o'lhash uchun paqqildoq, hushtak chaluvchi, po'kak va boshqa moslamalar ishlataladi. Katta chuqurliklar uchun elektrli satho'lchagichdan foydalaniлади. U ikki o'zakli kabelning ikkita izolyasiya qilingan kontaktidan iborat. Suv yuzasiga yetkach, kontaktlar elektr zanjirini ulaydi va yuqoriga signal boradi (qo'ng'iroq chalinadi, lampochka yonadi). Quvurlar bilan mustahkamlangan quduqlarda quvur bitta kontakt vazifasini bajaradi. Suv sathi o'zgarishini uzlusiz o'lhash va yozish uchun quduqlarda p'ezograf va limnograflar ishlataladi.

Keng qo'llanadigan V.P.Yakovlev p'ezografi (15.2-rasm) quduqning og'ziga mustahkamlanadi. Diametri 150 mm dan kichik bo'lgan mustahkamlash quvurlari ishlatilganda, p'ezograf quduq og'zidan yuqoriroqda o'rnatiladi. Ushbu uskuna sath o'zgarishini katta aniqlik bilan avtomatik ravishda yozib, sath tebranishining qayd qilish mashtabini 1:1 dan 1:100 gacha o'zgartirish mumkin bo'ladi.

Neft va gaz gidrogeologiyasida I.M.Ivanovning suvga botiriladigan p'ezograflari ham ishlatiladi. Ular quduq ichida suvning statik sathidan 5–20 m pastroqqa botiriladi. Asbob (15.3.-rasm) korpus, po'kak va yozish uskunasidan iborat. P'ezografning ish prinsipi shundaki, quduqqa tushirilgach, suv fil'tr orqali o'tib, korpusning bir qismini to'ldiradi. Shunda, uskuna ichidagi siqilgan havo tashqaridagi suv bosimi bilan muvozanat hosil qilgunicha, po'kak balandlikka ko'tariladi. Quduqdagi suv sathi o'zgarsa, uskunadagi suv sathi ham o'zgaradi. Po'kakning vertikal siljishlarini yozuv uskunasi qayd etib boradi.



**15.2.-rasm. Quduq og'zida o'rna-tilgan**

V.P.Yakovlev p'ezografi:


1 – osilgan rama; 2 – asos; 3 – baraban; 4 – ustunlar; 5 – pero; 6 – shkif; 7 – sim; 8 – po'kak; 9 – kontr yuk; 10 – quduq og'zi qopqog'i.

**15.3.-rasm. I.M.Ivanovning PPI-2 p'ezografi:**

1 – qopqoq; 2 – shtiflti karetka; 3 – silindr; 4 – po'kak; 5 – qo'shimcha kamera; 6 – poynak (uchlik); 7 – fil'tr; 8 – tutish kallagi; 9 – trubkali shtok.

P.I.Kosolapovning elektr sath o'chagichi sath o'zgarishini katta aniqlik (0,02 – 0,5 mm) da o'chaydi. Po'kakning suv sathida tebranishi mexanik elektromotor yordamida uzatilib, qayd qilinadi. Bu asbob atmosfera bosimining o'zgarishi ta'sirida ro'y beradigan suv sathining mikrotebranishlarini ham yozish imkoniyatiga ega.

Quduqqdan suv namunasining olishni eng sodda usuli – jelonka usulidir. Qatlam bosimini saqlagan holda katta chuqurliklardan suv namunalari chuqurlik namunaolgichlari bilan bajariladi. «Kaster» firmasining PD-3M namunaolgichi mashhurroqdir.




**15.4.-rasm** «Kaster» firmasining namuna olgichi.

(zoldirli) yopish uskunasi (2), dasturlanadigan soatlari mexanizm (1), suruvchi shtanganing shtoki (9), shtokdag'i tayanch (5), kamera (4), diafragma (10), zichlovchi halqa (3). Kamera ichidagi bosim bilan orqa klapanning prujinasi (6) beradigan bosim tashqi bosimga teng bo'lsa, klapan yopilib, uskunani germetiklaydi (V.P.Il'chenko, B.P.Akulichhev, Yu.G.Girin va boshqalar, 1992).

15.4.-rasmda flyuid namunalarini 100 metrdan iqrarroqdan olishga mo'ljallangan uskuna ko'rsatilgan. kuna yer yuzasida germetiklanadi. Namuna olish nerasi belgilangan vaqt o'tishi bilan ochiladi. Bu vaqt utli mexanizm yordamida belgilanadi. Uskuna bosim MPa va temperatura 3000C bo'lganda yaxshi ishlaydi. kuna 100 m dan (minimum) 5000 m gacha aksimum) bo'lgan chuqurlikda ishlay oladi. Namuna sh kamerasining hajmi 250 ml dan 1000 ml gacha jmi 500 sm<sup>3</sup> bo'lgan namuna olish kamerasining chamlari: uzunligi 1780 mm, diametri 32 mm, massasi : kg. Namunaolgichning asosiy qismlari (15.5.-rasm): qaruv klapani (8), juftlangan orqa klapan (7), mexanik

Suvga qazilgan quduqlarda qatlam bosimi hisoblash yo'li bilan hamda statik sathning holati va suv zichligi bo'yicha aniqlanadi. Qatlamning bosimini bevosita aniqlash chiqurlik manometrlari bilan bajariladi. Qiymatlarni uzliksiz yozadigan (o'ziyozar MGG-1 va MGG-2U) manometrlar eng ko'p ishlataladi. Ushbu uskunalarining asosiy xizmat qiluvchi qismi — ichi bo'sh ko'p o'ramli geliks prujinasidir. Geliksning ichki bo'shlig'iiga ta'sir etuvchi bosim ortishi bilan prujina ham ochilib boradi. Ochilish burchagi ta'sir etayotgan bosimga proporsionaldir (15.6.-rasm). Katta chiqurliklar uchun «Kaster» firmasining MGN -2 manometri tavsija etiladi.

Quduqlar to'xtatilgandan keyin, ularning o'zaro ta'siri o'rganilib, quduq tubidagi bosimning tiklanishi qayd qilinadi, buning uchun, ba'zida I.M.Ivanovning DGM-4 o'zi yozar differensial manometri ishlataladi (15.6-rasm).



**15.5.-rasm** O'zi yozar geliksli chiqurlik manometri - MGG - 1:  
1 – korpus; 2 – teshik; 3 – sil'fon; 4 – kapillyar; 5 – geliksli prujina; 6 – o'zak; 7 – o'q; 8 – peroli mil; 9 – karetka; 10 – yuruvchi vint; 11 – soat mexanizmi.

**15.6.-rasm** I.M.Ivanovning o'zi yozar differensial chiqurlik manometri - DGM-4:  
1, 2 – havoli kameralar; 3 – porshen'; 4 – shtanga; 5 – qayd etish uskunasi; 6 – baraban; 7 – soat mexanizmi; 8 – klapan.

Quduqdagi suvning temperaturasi maksimal termometrlar bilan o'lchanadi. Bularning ishlashi kamerasidagi simobning hajmini temperatura ta'sirida o'zgarishiga asoslanadi. Termometrnii quduqqa tushirish uchun mahsus

izolyasiyalovchi gil'zalardan foydalilanildi. PD-03 va PD-3M manometrlari va namunaolqichlarining termometrlar uchun mo'ljallangan kameralari bor. Hozirgi vaqtida avtomatik ravishda yozadigan har xil termograflar ham ishlatalmoqda.

Suvda erigan gaz namunasini olishda havo teperaturasi va barometrik bosimni aniqlash uchun termometr va aneroid-barometrlar ishlataladi. Atmosfera bosimining o'zgarishini o'zi yozar barograflar qayd etadi.

## 16. NEFTGAZ SUVLI QATLAMLARNING REJIMI

### 16.1. Neftgaz suvli qatlamlarning rejimini miqdoriy hisoblash

Neft-gazlilik istiqbolini miqdoriy baholash imkoniyati birinchi marta V.N. Korsenshteyn (1964) tomonidan tavsiya etildi. Yerosti suvlari tadqiqoti ma'lumotlaridan foydalaniib, gazning (mlrd.m<sup>3</sup>) va neftning (mln.t) bashorat zaxiralarini hisoblashda quyidagi formuladan foydalanishni taklif etdi:

$$Q = K \cdot S \cdot h \cdot m \cdot q, \quad (16.1)$$

bunda S – svvbosimli sistemadagi suv oqimining maydoni, km<sup>2</sup>;

h – jins-kollektorlarning foydali qalinligi, km;

m – suvli jinslarning g'ovaklilik koeffisienti, birlik ulushda;

q – suvli komplekslarning gazga o'rtacha to'yinganligi, 1km<sup>3</sup> suvni gazga to'yinishi (km<sup>3</sup>);

K – svvbosimli sistemanı Neft-gaz beraolish koeffisienti.

Neft-gaz beraolish koeffisientining (K) miqdori suvning minerallanganligi, temperaturasi, uglevodorod va boshqa gazlar tarkibi, suv dinamikasi, kollektorlar sig'imi va ularning suv to'sar qatlam bilan nisbati, uglevodorodlarning to'planish shiddati va tutqichlar sig'imiga bog'liq. V.N. Korsenshteynnning ma'lumotiga ko'ra K ning miqdori 0,01 dan 0,1 gacha o'zgaradi.

(16.1) formuladagi K ning noaniqligidan tashqari, bu formula faqat hozirgi zamondagi gidrogeologik sharoitlarni tavsiflaydi. Lekin Neft va gaz zaxiralarining uzoq geologik o'tmishda hosil bo'lganligini hisobga olsak, u vaqtagi sharoitlar hozirgisidan keskin farqlanadi.

Neft va gazning bashorat zaxiralarini Neft-gaz to'planish va Neft-gaz buzilish balansini hisobga olgan holda baholash metodikasini paleogidrogeologik tahlil natijasida A.A. Karsev va S.B. Vaginlar (2001) ishlab chiqdilar. A.A. Karsev Neft va gazning bashorat zaxiralarini aniqlash uchun quyidagi formulani taklif etdi:

$$Q = Eq - 0,1 I \text{Cok} + V1q1 - V2q2 , \quad (16.2)$$

bunda  $Q$  – uyumdagি Neft va gazning umumiyligini miqdori;

$E$  – elizion suv almashinishda qatnashgan suvning miqdori;

$q$  – elizion suv almashinishda qatnashgan hamda boshqa komplekslardan kirib kelgan uglevodorodlar va boshqa Neft-gaz hosil qiluvchi komponentlar miqdori;

$I$  – infil'trasion suv almashinishda qatnashgan suvlar hajmi;

$\text{Cok}$  – infil'trasion suv almashinishda qatnashgan suvlardagi sul'fat (oksidlovchi)lar miqdori;

$V1$  – suvli kompleksiga boshqa komplekslardan kelib qo'shilgan (boshqa qatlamlardan sirqib kelgan) suvlar hajmi;

$V2$  – bo'shalish suvlar hajmi;

$0,1$  – miqdoriy ko'effisient uglevodorodlarning oksidlanish sharoitini ifodalaydi.

$E$  miqdori quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$E = Vr \cdot \Delta m_r + Vn \cdot \Delta m_n ,$$

bunda  $Vn$  – ushbu suvli kompleksdagi kollektoring suvgaga ta'minlangan hajmi;

$m_n$  – qumtoshlar g'ovakliligi;

$Vr$  – ushbu suvli kompleksdagi glinaning hajmi;

$\Delta m_r$  – glinaning g'ovakliliginini ushbu etap davomiyligida o'zgarishi.

$Vr$  – miqdori quyidagicha aniqlanadi:

$$Vr = Shr , \quad (16.3)$$

bunda  $S$  – suvli kompleksning tarqalish maydoni, km;

$h$  – glina qatlami qalinligi.

I miqdori quyidagicha aniqlanadi:

$$I = E \cdot u \cdot t_i$$

(16.4.)

bunda  $u$  – qadimgi oqim tezligi, uning qiymati o'xshash zamonaviy havzadagi oqim tezligidan olinadi, m/yil;

$t_i$  – ushbu infil'trasion etapning davomiyligi, mln.yil.

Cok va q miqdorlarini aniqlash va asoslash ancha murakkab. V1 va V2 lar miqdorini aniqlash ham faqat ayrim hollardagina mumkin bo'ladi.

Neft va gazning G'arbiy Sibir Neft-gazli qatlamlari uchun hisoblangan bashorat zaxiralari boshqa usullar bilan hisoblangan qiymatlariga mos kelgan (A.A.Karsev, 1969).

## 17. ER OSTI SUVLARIDA NEFT VA GAZ UYUMLARI

### 17.1. Neft va gaz uyumlarining mavjudligini aniqlash

Neft va gaz uyumlarining mavjudlgini (xosil bulish sharoitlari) kursatkichlariga kuyidagilarni kiritish mumkin:

1) xududning gidrogeologik rivojlanish tarixida elizion boskichning absolyut va nisbiy davomiyligi;

2) elizion suv almashinish sur'ati ko'rsatkichi.

Xududning Neft va gazga istikbolliligini baxolash uchun bunday ko'rsatkichlarning axamiyati kuyidagilardan iborat: gidrogeologik rivojlanish tarixi davomida elizion boskich va elizion suv almashinish sur'ati ko'rsatkichining davomiyligi kancha katta bo'lsa, Neft-gaz to'planishida shuncha ko'p moddalar ishtirok etadi, demak Neft va gazlarning zaxirasi xam katta bo'ladi.

Elizion suv almashinish sur'ati ko'rsatkichi birinchi marta Sharkiy Kavkazoldi va Farbiy Kaspiyoldida tarkalgan kuyi mel davri yotkizikdarining Neft-gazliligini baxolashda qo'llanildi. Natijada shu nomdagi xarita tuzilib, unda janubiy, o'rta va shimoliy zonalar ajratildi. To'plangan ma'lumotlarning tahliliga tayanib, Neft va gaz to'planishida eng kulay va kulay bo'lмаган gidrogeologik sharoitlar anikdandi. Shuningdek, ushbu ko'rsatkich bo'yicha neft-gazga istikbolliligi yukori, o'rtacha va kam bo'lgan zonalar belgilandi.

Qatlama neft bilan birga joylashgan suvlardan unga ta'sir etib, neftning sifat va miqdoriy jixatdan o'zgarishiga sabab bo'ladi. Ba'zan neft va gaz uyumlari buzilib ketadi. Ma'lumki, bir neft-gazli region chegarasida joylashgan neft yoki gaz konida turli-tuman gidrogeologik, gidrokimiyoviy va gidrodinamik sharoitlar mavjud bo'lishi hamda bitta kon kesimidagi suvlardan turli gazlar bilan to'yangan va har xil temperaturali bo'lishi mumkin. Neft-gazli regionlarning geologik tuzilishining murakkabligi, turli tektonik strukturalar va har xil fatsial-litologik sharoitlarning mavjudligi turli gidrokimiyoviy va gidrodinamik sharoitlarni yuzaga keltiradi.

Neft qatlarning turli uchastkalarining yuqori qismlarida to'planadi, gazlar esa erigan holatda u yoki bu darajada sedimentatsion suvlarni to'yintiradi. Geologik vaqt davomida neft va gazlar qatlarning cho'ziqligi bo'yicha katta masofada to'planishi mumkin.

Neft va gaz katta chuqurlikdagi qatlardan suvlarinining turg'un rejimida, cho'kindi jinslarning g'ovakli, darzli yoki kovakli joylarida tarqoq yoki kichik to'plamlar ko'rinishida saqlanib turishiga qulay sharoitlar sabab bo'ladi.

Neft va gaz uyumlarining shakllanishi uchun shunday sharoitlar yuzaga kelishi kerakki, toki bunda qatlardan bo'yicha yoki yonbosh tomondan migratsiya sodir bo'lishi lozim. Neft va gaz uyumlarining shakllanishi orogen harakatlar natijasida hamda neft va gaz to'planishi uchun qulay strukturalarning barpo bo'lishi boshlanganda sodir bo'ladi. Bunda sedimentatsion suvlardan bilan to'lgan g'ovakli va darzli kollektorlarda neft va gaz qatlarning yuqoriga ko'tarilgan qismi tomon siljiydi, natijada antiklinal strukturalarning gumbaz qismlarini hamda qiyiqlanib yuqoriga ko'tarilgan g'ovakli va darzli jinslarning gipsometrik baland qismlarini to'ldiradi.

Ma'lumki, turli geologik zamonlarda yer qa'rida orogen harakatlar sodir bo'ladi, shunga ko'ra turli vaqtarda neft va gaz uyumlari ham har xil ko'rinishda shakllanadi. Demak, qadimgi yotqiziqlarda hosil bo'lgan neft va gaz uyumlari keyingi tektonik harakatlar natijasida strukturalarning o'zgarishi va murakkablashishidan, ayrim hollarda yangi strukturalarning shakllanishi va ulami qayta takrorlanishi natijasida o'zgarib ketishi mumkin. Shunga o'xshash hodisalar platforma sharoitlarida ham paydo bo'ladi. Bunda, gorizontal yo'nalishdagi

tebranma harakatlar natijasida neft va gaz siljib, struktura tuzilishi qulayroq bo'lgan uchastkalarga o'tadi. Neft va gaz to'planishi qulay bo'lgan strukturalar shakllariga hamda kollektorlarning litologik tarkibiga ko'ra, turli turdag'i neft va gaz uyumlari ajratiladi.

Neft va gazning strukturaviy-litologik uyumlarining hosil bo'lishi, asosan, tog' jinslarining litologik tarkibi, qalinligi, fizik xususiyatlari (g'ovaklilik, darzlilik, o'tkazuvchanlik va sh.k.) va gil materialning taqsimlanish xarakteriga bog'liq. Ba'zan jinslarining litologik tarkibiga bog'liq holda neft va gaz uyumlari burmalaming qanotlarida, periklinal qismlarida shakllanadi va strukturalarning gipsometrik past sathlarida, go'yoki osilib turgandek bo'lib joylashadi.

Antiklinal va strukturaviy-litologik uyumlar yer qa'rida ko'p tarqalgan bo'lsada, bulardan tashqari, tutash yuzali uyumlar, monoklinal tuzilmali uyumlar, sinklinal tuzilmali (rifogen) uyumlar, litologik to'silgan uyumlar, tektonik to'silgan uyumlar, blokli uyumlar, osma uyumlar, litologik chegaralangan uyumlar, stratigrafik nomuvofiqliklar bilan bog'liq uyumlar va sh.k. uyumlar ham uchraydi.

Shakllangan bunday neft va gaz uyumlari turg'un-harakatsiz sedimentatsion suvlar bilan o'ralgan bo'lib, mavjud gidrogeologik sharoitlar ularning uzoq vaqt saqlanib turishini ta'minlaydi.

Neft va gaz uyumlarining hosil bo'lishini bir necha bosqichlarga bo'lish mumkin. *Birinchi bosqich* uzoq vaqt davom etgan bo'lib, neft hosil qiluvchi svitada uglevodorodlar va boshqa neft komponentlari (mikroneft) paydo bo'ladi va ular ma'lum qulay sharoit yuzaga kelganda kollektor jinslariga siljiydi. Tarkibida tarpoq organik modda bo'lgan glina jinslar yaxshi neft yarata oluvchi jins hisoblanadi. Sh u bosqichda hosil bo'lgan uglevodorod uyumlarining saqlanishi qulay hidrogeologik sharoitlarga to'g'ri keladi.

Birinchi bosqich davomida mavjud bo'lgan sedimentatsion suvlar juda ham sekin harakatlanib, neft va gaz uyumlarining to'liq shakllanishini ta'minlaydi.

Neft va gaz uyumlari vaqt davomida sezilarli o'zgarishlarga duch keladi. Yangi orogen fazalar yoki gorizontal tebranma harakatlarning yuzaga kelishidan ko'pgina strukturalar yuqoriga ko'tarilishi hamda keyinchalik eroziya jarayonlari ta'sirida ular ochilishi va yuvilishi mumkin. Ba'zan diz'yunktiv dislokatsiyalar ta'sirida neft va gaz uyumlari yer yuzasiga chiqib qoladi. Keyinchalik ular yuvilib,

buzilib ketadi. Bunday joylar yerosti suvlarining ta'minlanish oblastiga aylanadi. Suvlar qatlamlar ichiga shimilib, gidravlik qiyalik katta bo'lganligi sababli, tez harakatlana boshlaydi. Odatda, ular ta'minlanish oblastidan drenajlanish uchastkasi tomon harakatlanadi.

Neft va gaz ayrim mikroskopik tomchi hamda pufakchalar ko'rinishida sedimentatsion suvlar bilan birga glina jinslardan siqib chiqarilib, qum, qumtosh, ohaktosh va boshqa jinslardan tashkil topgan kollektorlarga singib kiradi va bo'shalish oblasti tomon harakatlanadi. Lekin qiyiqlangan qatlamlarda yoki yoriqlar bilan murakkablashgan tektonik bloklarda yerosti suvlari deyarli harakatlana olmasada, neft va gaz uyumlarining hosil bo'lishiga qulay sharoit yaratadi.

Sh uningdek, burmalarning periklinal chekkalarida, yoriqlar bilan kesilgan antiklinallarning qanotlarida, nadvigosti bloklarida shakllangan neft va gaz uyumlarining hosil bo'lishini *ikkinchi bosqichga* kiritish mumkin. Chunki ular yoriqlar paydo bo'lgandan keyin shakllanadi.

Geologik kesimning u yoki bu intervallarida qatlam suvlarining bo'lishi yoki bo'lmasligi neft va gaz uyumlarining hosil bo'lishiga turliha sharoitlar yaratadi. Yerosti suvlari harakatlanmaydigan yoki juda qiyin harakatlanadigan uchastka va maydonlar eng qulay sharoitlar hisoblanadi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki, neft va gaz uyumlari bir vaqtda paydo bo'lmasdan, balki bir necha bosqichlarda shakllanadi. Shunga ko'ra, uyumlarni nafaqat strukturalarning gumbaz qismidan izlamasdan, balki ularning qanotlari va yoriq bilan ajratilgan qismlaridan ham razvedka qilish zarur.

## **17.2. Neft va gazlarning saqlanish sharoitlarini ko'rsatkichlari**

Neft va gazning saqlanish va buzilish sharoitlari ko'rsatkichlariga gidrodinamik, gidrokimyoviy va paleogidrogeologik ko'rsatkichlar kiradi.

Shu bilan birga neft va gaz uyumlarini mexanik, fizik-kimyoviy, kimyoviy va biokimyoviy buzilishlari xam aniklangan bo'lib, buzilishning xar bir ko'rinishia mos keladigan umumgidrogeologik ko'rsatkichlar ham belgilanadi. Lekin bunday ko'rinishdagи ko'rsatkichlar gidrokimyoviy, gidrodinamik va shu kabi ko'rsatkichlar bilan mos kelmaydi. Chunki, suvlarning yukori darajada

minerallanganligi fakat qulay kimyoviy ko'rsatkich sifatida qaralmay, balki uyumlarning saklanishida qulay kimyoviy gidravlik sharoitlaming qiyosiy ko'rsatkichi xam bo'lishi mumkin.

Gidrodinamik va umumgidrogeologik ko'rsatkichlar neft va gaz uyumlarining suv ta'sirida mexanik buzilishidan saqlanishining eng anik gidrogeologik ko'rsatkichi bo'lib, ular asosan gidravlik qiyalik mikdoriga asoslanadi. Gumbazsimon tutkichlardagi uyumlarda suv xarakatlanib tursa kayd kilingan gidravlik kiyaliklarda u saklanib kololmaydi. Agar gidrogeologik xavzaning bosim xosil bo'lismosh zonasasi bilan bo'shalish zonasasi oraliq'idagi masofa katta bo'lsa, lskin infiltratsiya (ta'minlanish) zonasining gipsometrik balandligi yukori bo'lmasa, suvlarning xarakatlanishi juda sekin bo'lib, neft-gaz to'planishi uchun qulay sharoit yuzaga keladi.

Gidrogeokimyoviy ko'rsatkichlar. Neft-gaz va ular uyumlarining sakdanish sharoitining gidrogeokimyoviy (gidrogeologik) kursatkichlari keng qo'llaniladi. Bunday ko'rsatkichlar uyumlarining kimyoviy buzilishlardan saqlanish sharoitlari bo'yicha, boshkalari esa - fizik-kimyoviy buzilishdan saklanish sharoitlari bo'yicha, uchinchilari esa - yuvilishdan sakdanish sharoitlari bo'yicha fikr yuritish imkonini beradi.

Suvning sul'fatsizligi va suvda molekulyar kislороднинг bo'lmasligi neft va gazning saklanishini qulay kimyoviy sharoitining ko'rsatkichi bo'la oladi. Suvning minerallanganligini yuqoriligi, tarkibida xloridlarning ko'pligi, ayniksa Sulin tasnifi bo'yicha xlorid-kaltsiyli tipdagи suvlarning bo'lishi, brom mikdorining ko'pligi va xlor-brom koeffitsienti mikdorining pasligi, geliy mikdoripig yuqoriligi va boshqalar neft va gaz uyumlarini saqlanish sharoitlarining gidrokimyoviy ko'rsatkichlari qatoriga kiradi.

Paleogidrogeologik ko'rsatkichlar. Xozirgi vaqtida neft va gaz uyumlarini qulay sharoitlarda saklanib turishiga qadim zamonlardagi gidrogeologik omillar ta'sirida uyumlarning buzilish boskichlari sabab bo'lishi mumkin. Bu jarayon paleogeografik ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi. Neft va gaz uyumlarining

saklanish (buzilish) sharoitlarining paleogeografik ko'rsatkichlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1.xududning gidrogeologik rivojlanish tarixida infiltratsion boskichning absolyut va nisbiy davomiyligi;

2.uyumlar xosil bo'lgandai keyin vujudga kelgai infiltratsion suv almashinish sur'ati;

3.uyumning mavjudlik vakti (yoshi)ni uyumning to'lik oksidlanishiga ketgan muddat mikdoriga nisbati.

Uglevodorodlarning saqlanishi uchun eng kulay paleogeografik sharoitlariga kuyidagilar kiradi:

a)neft-gazli yotkiziklarda ular xosil bo'lgandan to xozirgi vaktgacha sedimentatsion suvlarning bo'lishi;

b)shu yotkiziklarda uyumlar xosil bo'lgandan xozirgi vaktgacha kadimgi infiltratsion suvlarning saklanib qolishi.

Suvli muhitda neft-gaz uyumlari barpo bo'ladi va buziladi. Yerosti suvlari va ularda erigan ayrim moddalar uyumlarning butligini buzuvchi asosiy omillar deb hisoblanadi. Yerosti suvlari ta'sirida neft-gaz uyumlari va konlari mexanik, fizik-kimyoviy, kimyoviy va biokimyoviy yo'llar bilan buziladi. Uyumlarning mexanik yo'l bilan buzilishi qatlamlarda harakatlanayotgan suvlar neft va gaz zaxiralarini muallaq holatda ko'p fazali oqimlar tarkibida oqizib ketishidan sodir bo'ladi. Uyumlarning fizik-kimyoviy buzilishi undagi flyuidlarning hidrogeologik sharoitlari o'zgarishi bilan bog'liq holatda suvda erishi va oqizib ketilish bilan amalga oshadi. Neft-gaz uyumlarining kimyoviy yo'l bilan buzilishi uglevodorodlarning suvda erigan moddalar, asosan, kislород va sulfatlar ta'sirida oksidlanishi hamda parchalanishida sodir bo'ladi. Biokimyoviy buzilishlar bakteriyalar ta'sirida yuz beradi. Uglevodorodlar mexanik buzilishda harakatlanayotgan suv ichida va qo'p fazali oqimlar tarkibida oqib ketadi. Fizik-kimyoviy buzilishda fizik sharoitlarning o'zgarishi sababili uyumlardagi moddalar suvda eriydi. Kimyoviy buzilishda uyumlar tarkibidagi uglevodorodlar suvlarda

erigan moddalar, asosan, kislorod va sulfatlar ta'sirida oksidlanadi. Va nihoyat, bakteriyalar ishtiroki bu jarayonga biokimyoviy ko'rinish beradi.

*Neft va gaz uyumlarining mexanik (gidravlik) buzilishi* uyumdagi neft-suv yoki gaz-suv tutash yuzalarida qiyalik, ya'ni gidravlik qiyalik paydo bo'lishi bilan boshlanadi. Ushbu tutash yuzalarning qiyaligini gidravlik qiyalik bilan bog'liqligini bir qo'pgina tadqiqotchilar takidlashgan. Gaz-suv va neft-suv tutash yuzalarning gorizontal holatda bo'lishi xususiy holat bo'lib, ular faqat harakatsiz suvlarda uchraydi.

M.Xabbert bo'yicha, neft-suv yoki gaz-suv tutash yuzalarining gidravlik qiyalikka bog'liqligi quyidagi formula yordamida ifodalanadi:

$$\operatorname{tg} \theta = \frac{\rho_c}{\rho_c - \rho_s} \cdot \frac{dh}{d\lambda} = \frac{dz}{dx}, \quad (17.1)$$

bunda  $\theta$  – neft-suv tutash yuzasi va gorizontal yuza orasidagi burchak;


$\frac{dz}{dx}$  – neft-suv tutash yuzasining qiyaligi;

$\frac{dh}{d\lambda}$  – pezometrik yuzaning qiyaligi;

$\rho_s$  – suv zichligi;

$\rho_n$  – neft zichligi ( $\rho_n$  o'mniga gaz zichligini  $\rho_g$  qo'yib gaz-suv tutash yuzasi qiymatini hisoblash mumkin).

Gidravlik qiyalikning bog'liqligi 17.1-formula va 17.1-rasmida ifodalangan



**17.1-rasm.** Neft-suv tutash yuzasining qiyaligi va pezometrik sath orasidagi bog'liqlik

(A.I.Levorsen bo'yicha, o'zgartirishlar bilan):

1 – gaz; 2 – neft; 3 – suv; 4 – suv harakatining yo'naliishi.


(17.1) formulani boshqa ko'rinishda yozish ham mumkin:

$$\operatorname{tg} \theta = \frac{\rho_c}{\rho_c - \rho_w} \cdot i , \quad (17.2)$$

bunda  $i$  – gidravlik qiyalik.

Shunday qilib, neft-suv (gaz-suv) tutash yuzasining qiyaligi gidravlik qiyalikka to'g'ri proporsional bo'lib, uning qiymati tutashuvchi suyuqliklar zichligining farqiga bog'liq bo'ladi.

17.2-rasmdagi grafiklardan ko'rinish turibdiki, og'ir (zichroq) neftlarda neft-suv tutash yuzasining qiyaligi engil (zichligi kamroq) neft va gazlarnikidan ancha kattaroqdir.



**17.2-rasm.** Neft-suv tutash yuzasining qiyaligini gidravlik qiyalik va neft va gaz zichligiga bog'liqligi (A.I.Levorsen bo'yicha, o'zgartirishlar bilan).  
Egri chiziqlardagi raqamlar – neft va gazlarning zichligi, g/sm<sup>3</sup>.

Agar suvning nisbiy zichligi birga, neftniki 0,8 ga (qatlam sharoitida tez-tez uchraydigan qiymat), gazniki (quruq) 0,001 ga teng deb olsak, u holda (17.2) formuladan, gaz uyumi uchun  $\operatorname{tg}\theta = \frac{1}{1 - 0,001} \cdot i$  bo'ladi.

Gaz zichligi qiymati nisbatan juda kichik bo'lgani uchun uni hisobga olmasa ham bo'ladi:

$$\operatorname{tg}\theta_1 = i \quad \text{bo'ladi.} \quad (17.3)$$

(17.2) formulaga neft uyumi uchun  $\rho_n = 0,8$  qiymatini qo'ysak:


$$\operatorname{tg}\theta_1 = 5i \quad \text{bo'ladi.} \quad (17.4)$$

Demak, neft va gaz zichligining tanlangan qiymatlari (suv zichligi 1,0, neft zichligi 0,8, gaz zichligi 0,001 bo'lganda) bir xil giravlik qiyaligidagi neft-suv tutash yuzasining qiyaligi gaz-suv tutash yuzasinkidan 5 marta kattaroq bo'ladi. Lekin yog'li gazlar uchun, ayniqsa bosim yuqori bo'lganda, bu nisbat qiymati juda kichik (2–3 orasida) bo'ladi.

Gaz-suv va neft-suv tutash yuzalari qiyaliklari suv harakatining yo'nalishini ko'rsatuvchi mezon hisoblanadi.

Gumbazsimon tutqichlarda neft-suv (gaz-suv) tutash yuzasining qiyaligi tutqich qanotining qiyaligidan tikroq bo'lsa neft (gaz) tutqichdan to'liq yuvilib ketib, uyum g'oyib bo'ladi. Bu uyumning suv ta'sirida *mexanik* buzilishidir.

Uyumning suv ta'sirida mexanik yo'l bilan buzilib – yuvilib ketmasligining sharti  $\theta < \alpha$  tengsizlik bo'lib, bunda  $\alpha$  – tutqich qanotidagi qatlamning og'ish burchagi (*i* yo'naliш bo'yicha);  $\theta$  – neft-suv (gaz-suv) tutash yuzasining qiyalik burchagi. Bunday holatda uyum saqlanib qoladi. 10.3-rasmda uyumlarning suvning mexanik ta'siridan saqlanib qolish va buzilib ketish sharoitlari ifodalangan. Bunday holat gumbaz turidagi tutqichlar uchun ahamiyatlidir.



**17.3-rasm.** Neft uyumlarini suvning mexanik ta'sirida saqlanib qolish (a) va buzilib ketish (b) sharoitlari sxemasi.

(17.3) va (17.4) formulalardan foydalanim, gaz va neft uyumlarining harakatlanayotgan suv ta'sirida buzilmay, saqlanib qolishining minimal og'ish burchaklari va maksimal gidravlik qiyaliklarining taqribiy qiymatlarini hisoblash mumkin (17.1-jadval).

**Gaz va neft uyumlarining yuvilishidan to'liq saqlanib qolishi uchun qatamlarning minimal qiyalik burchagi**

$$(\rho_s = 1, \rho_n = 0.8, \rho_g = 0,001)$$

### 17.1-jadval

Gidravlik qiyalik	Qatamlarning og'ish burchagi		Gidravlik qiyalik	Qatamlarning og'ish burchagi	
	gazli uyumlar (quruq gaz)	neftli uyumlar		gaz uyumlari (quruq gaz)	neft uyumlari
0,0001	0° 00'18"	0°01'30"	0,01	0° 30'	2° 30'
0,001	0° 03'	0° 15'	0,1	6°	3°

17.1-jadval bo'yicha, neft-gaz komplekslarda, odatda, uchraydigan gidravlik gradientlarda, quruq gaz uyumlari deyarli hamma tutqichlarda saqlanib qolishi mumkin; neftli uyumlar esa gidravlik gradientlar 0,005–0,01 bo'l shidan boshlab (qatlam qanotlarining og'ishi  $1^{\circ}$  dan kichik bo'lган) tutqichlardan yuvilib ketadi. Neft uyumlari gidravlik buzilishga gaz uyumlariga nisbatan chidamsizroqdir. Nisbiy zichligi 1,2 bo'lган namakoblar va engil neftlar uchun minimal og'ish burchaklari 2,5 marta kichik; og'ir neft va chuchuk suvlarda esa taxminan 2 marta katta bo'ladi.

*Fizik-kimyoviy buzilish* gazlarning yerosti suvlarida erishidan sodir bo'ladi. Gidrostatik bosimning ortishi va temperaturaning 100-120°C gacha ko'tarilishi uyumdag'i metanning suvda erishini keskin orttiradi, natijada uyum butunlay erib, suv bilan oqib ketishi mumkin. V.N.Korsenshteyn (1961) fikricha, temperatura 120°C dan ortganda gaz uyumlari butunlay buzilib yo'q bo'lib ketadi. Neft uyumlaridagi uglevodorodlar suvda metan va uning gomologlariga nisbatan yomon eriydi. Shu sababli ularning fizik-kimyoviy buzilishi ham sokinlik bilan kechadi. Bu jarayon kam o'r ganilgan. Uyumlarning ayrim joylarida neftning ba'zi komponentlarining erishi ham kuzatiladi.

*Kimyoviy buzilish* neft-gaz va gaz uyumlaridagi uglevodorodlarning yerosti suvlarida erigan kislород va sulfatlar ta'sirida oksidlanishidan sodir bo'ladi. Bu jarayon *biokimyoviy buzilish* bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bunda bakteriyalar uglevodorodlarni "eb" yuboradi. Shu sababli neft va gaz uyumlarining ushbu ko'rinishlardagi buzilishini birgalikda o'r ganish zarur.

Uglevodorodlarning aerob (o'zining yashashi uchun erkin kislородга muhtoj organizmlar ta'sirida) oksidlanishi suvda erigan kislород hisobiga amalgalashadi. Erigan kislород yerosti suvlarida 500–600 m chuqurlikda (balki undan ham chuqurroqda) uchrashi va uning miqdori milligrammning yuzdan biridan 4–5 mg/l gacha etishi ma'lum. Bu gidrogeologik sharoitlar, infiltratsion suvlarning harakat tezligi, jinslarning sulfidlar va organik moddalarga to'yinganligiga bog'liqdir. Lekin, neft va gaz uyumlariga yondoshgan suvlarda ko'pincha kislород bo'lmaydi. Demak, infiltratsiya zonalaridan uzoqda joylashgan uyumlarga kislород etib

borishi uchun, infiltratsion suv almashuvining tezligi juda yuqori bo'lishi yoki infiltratsion bosqich juda uzoq vaqt davom etishi, suvli kompleksdagi hamma oksidlanuvchi minerallar va suv komponentlari oksidlanib bo'lishi kerak. Erigan kislород birinchi o'rinda infiltratsiya zonalariga yaqin joylashgan uyumlarga ta'sir etadi.

Uglevodorodlarning sulfatlar bilan oksidlanishi katta ahamiyatga ega, chunki litosferadagi suv va namakoblarning aksariyatida u yoki bu miqdorda sulfatlar mavjud.

Uglevodorodlarning oksidlanishi uchun zarur bo'lgan sulfatlarning miqdori A.L. Kozlov va V.I. Sokolovlar tomonidan hisoblangan. Unga ko'ra, 1 g  $\text{SN}_4$  ni oksidlash uchun 6 g  $\text{SO}_4^{2-}$  ioni kerak bo'ladi. Demak, 1 g  $\text{S}_{15}\text{N}_{32}$  (pentadekan) uglevodorodni oksidlash uchun 0,5 g  $\text{SO}_4^{2-}$ , 1 mld.  $\text{m}^3$  gaz (metan)ni to'liq oksidlanishi uchun 6 mln. tonna  $\text{SO}_4^{2-}$ , 1 mln. tonna neftni (shartli ravishda neft faqat bitta pentadekandan tuzilgan deb qabul qilsak) oksidlash uchun 0,5 mln. tonna  $\text{SO}_4^{2-}$  ioni zarur bo'ladi.

Harakatlanayotgan yerosti suvlarida erigan holatdagi sulfatlar mavjud bo'lib, ularning dinamik zaxiralari suvda erigan miqdoriga va suvlarning siljish tezligiga bog'liq. Gaz uyumini erigan sulfatlar bilan to'liq oksidlanishi ( $\tau_{ok}$ ) quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$\tau_{ok} = \frac{Q_g}{u_s F m_{ok}}, \quad (17.5)$$

bunda  $u_s$  – yerosti suv oqimi tezligi;

$F$  – gaz-suv tutash yuzasining maydoni;

$m_{ok}$  – suvdagi oksidlovchi (sulfat)lar miqdori;

$Q_g$  – uyumdagi gaz zaxirasi;

$k_{ok}$  – oksidlanish koeffitsienti.

Neft uyumlarining oksidlanishi (10.5) formula bilan hisoblanganda (barcha neft pentadekandan iborat deb olinib) 6 soni o'miga 0,5 koeffitsient qo'yiladi,  $k_{ok}$  koeffitsienti ham neft tarkibiga ko'ra o'zgaradi, uning qiymati birdan ortiq bo'ladi.

Gaz uyumlarining sulfatlar bilan oksidlanishi neft uyumlarmikiga nisbatan biroz chegaralangandir.

Uglevodorodlarning biokimyoiy oksidlanish sharoitlari hali etaricha o'rganilmagan. Desulfator-bakteriyalar temperatura 90–95°C hamda suvlarning minerallanishi taqriban 300 g/l dan ortsa va rN < 5 dan pasaysa rivojlanmaydi degan ma'lumotlar bor.

Temperatura omili ayniqsa katta ahamiyatga ega. Gaz (metan) uyumlarini sulfatlar bilan abiogen oksidlanishi mumkin emasligi hisobga olinsa, temperatura 95°C dan ortganda, ular bunday nurash turidan himoyalanganligi ma'lum bo'ladi. Neft uyumlari esa yuqori temperaturalarda ham sulfatlar hisobiga oksidlanishi mumkin, temperatura ortishi bilan abiogen oksidlanish jarayoni ham jadallahadi.

Oksidlanish jarayoniga uyumlar shakli va neft-suv (gaz-suv) tutash yuzalarining shakli qanday ta'sir etishiga kelsak, oksidlanish jarayoni, asosan, uglevodorodlarning suv bilan tutashgan joyida ro'y berishi kuzatiladi. Demak, neft-suv (gaz-suv) tutash yuzasi maydoni uyum hajmiga nisbatan qanchalik katta bo'lsa, oksidlanish tezligi shunchalik katta bo'ladi. Albatta, «suvda suzib yuruvchi» uyumlar va oraliq suvli, kichik qatlamlari qiyiqlanadigan uyumlarning oksidlanishi chekka suvlari bor uyumlardan ko'ra tezroq kechadi; pastqam uyumlar baland uyumlardan tezroq oksidlanadi.

Neft-suv tutash yuzalaridagi o'ta zinch neft va asfaltsimon moddalar (bitum)ning oksidlanishi hamda uglevodorodlarning to'liq oksidlanmasligi natijasida paydo bo'ladigan hosililar neft uyumining buzilib ketishiga yoki neft uyumining kimyoiy qayta shakllanishiga sabab bo'lishi mumkin. Neft-suv tutash yuzasida qalinligi bir necha metrga etadigan o'ta zinch neft yoki asfaltsimon, siljimaydigan bitumlar qati (hoshiyasi) ko'pgina joylarda uchraydi. Oksidlanish natijasida uyumlarda qayta hosil bo'lgan flyuidlar uyumning boshqa qismlaridagi neftlarni oksidlanishiga to'siq bo'lib, halaqit beradi. Bunday sharoitlarda oksidlanish jaryonining uyumning qolgan qismiga ta'siri yaxshi o'rganilmagan. Ammo, tabiatda oksidlanish natijasida to'liq qayta o'zgargan neft uyumlari mavjud.

Oksidlanish natijasida neft uyumidagi hamma moddalar to'liq o'zgarib smola, organik kislota va boshqa kislordi birikmalarga aylanganligini va uni neft uyumi sifatida yo'q bo'lib ketganligini hamda qattiq bitum uyumi hosil qilganligini ko'rish mumkin.

Metan oksidlanganida uyumda hech qanday oraliq mahsulotlar va ulardan tarkib topgan hoshiyalar paydo bo'lmaydi. Metan va unga yaqin gomologlar oksidlanguanda gaz uyumi karbon kislotosi bilan boyishi mumkin, ammo bu gazning eruvchanligi uglevodorodlarnikidan keskin ortishi sababli, uning miqdorini hisobga olmasa ham bo'ladi. Gaz uyumlarining kimyoviy o'zgarishidan boshqa moddadan iborat uyum hosil bo'lmaydi (azot qoldig'i yig'ilishi mumkin bo'lsa ham), oksidlanish natijasida gaz uyumi to'liq buziladi.

Neft va gaz uyumlarining hosil bo'lish, yig'ilish va buzilish hodisalari litogenezning turli bosqichlarida ro'y berib, har bir bosqich o'ziga xos gidrogeologik sharoitlarda o'tadi. Litogenezning turli bosqichlarida litosferadagi suvli eritmalar uglevodorodlarning hosil bo'lishida, «etilish»ida hamda emigratsiya, to'planish, saqlanish va buzilish jarayonlarida turli ko'rinishda ishtirok etadi.

*Sedimentogenet* jarayonida litosferaning suvli eritmalarini suv havzalarining tubida ma'lum bir organik va mineral komponentlarning (bular keyinchalik cho'kindilarning uglevodorodlar hosil qilish potensialini ta'minlashi mumkin) yig'ilishida muhim rol o'ynaydi. Masalan, dengiz tubida termal namakoblarning bo'shalishi va ular cho'kindilarda organik moddalarining yig'ilishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

*Diagenez* jarayonida balchiqli suvli eritmalar gidrogeologik muhit vazifasini o'tashi mumkin. Cho'kindilar bilan ko'milgan organik moddalar biokimyoviy o'zgarishlarga duchor bo'ladi. Balchiqli eritmalarining dengiz tubi suvlari bilan aralashish shiddatiga qarab cho'kindilardagi organik moddalarining biokimyoviy qayta o'zgarish darajasi o'zgaradi. Bunday jarayonlar moddalarni cho'kindilarga, so'ngra cho'kindilarni tog' jinsiga aylanishiga, jinslarning uglevodorodlar hosil

qilish potensialiga hamda kelajakda uglevodorodlarning hosil bo'lish va to'planish jarayonlariga jiddiy ta'sir etadi.

*Katagenez* jarayoni cho'kindi jinslarda diagenez bosqichidan keyin, metamorfizmdan oldin sodir bo'ladi. Bularga cho'kindi jinslarning yerning chuqur qismiga tushib metaformizmga uchrashigacha bo'lgan davrdagi o'zgarishlari yoki yer yuzasining ayrim qismlarini ko'tarilishida gipergenez boshlanguncha bo'ladigan o'zgarishlarni kiritish mumkin. Qayd qilingan jarayonlar flyuidlar (gaz, suv, neft) bilan birgalikda, ularning o'zaro ta'siridan sodir bo'ladi. Shu sababli dastlab jins g'ovaklarida, so'ngra cho'kindilar ichidagi flyuidlar tarkibi keskin o'zgaradi.

*Protokatagenez* kichik bosqichida zichlashayotgan gillar va boshqa jinslardagi suvli eritmalar organik moddalarning termokatalik o'zgarishiga olib keladi. Bunday jinslarda uglevodorodlar hosil bo'lishi uchun borgan sari sharoitlar etilib boradi. Jinslardan suvlarning chiqib ketishi va ularda namlikning kamayishi neft hosil bo'lishining asosiy fazasini yaqinlashtiradi. Glina jinslar zichlanganda ulardan siqib chiqarilgan suvlar o'zi bilan organik moddalarning bir qismini olib chiqib, kollektorlarga kirib boradi va jinslarning neft-gaz hosil qilish potensialini kuchaytiradi.

*Mezokatagenez* kichik bosqichi bilan neft hosil bo'lishning asosiy fazasi bog'liq bo'lib, bundagi gidrogeologik sharoitlarning ahamiyati juda muhimdir. Bunda gilli minerallar (avvalo montmorillonit)dan ularning kristall panjaralaridagi suvlarning ajralib chiqishi o'ta muhim hisoblanadi. Shu suvlar va ulardan hosil bo'lgan eritmalar uglevodorodlarni o'zida saqlovchi va ularni eltuvchi muhit bo'lib xizmat qiladi. Suvli eritmalarning yer qa'rida tarqalishi, ularning tarkibida jinslardan siqib chiqarilgan suvlarning ko'p bo'lishi neft hosil qiluvchi asosiy zona bilan mos keladi.

*Apokatageneznинг* kichik bosqichida ham neft, asosan, gaz to'planishiga gidrogeologik omillar ma'lum darajada ta'sir etadi. Jinslardan siqib chiqarilayotgan suvlar avvalgilaridan kamroq miqdorda hosil bo'layotgan bo'lsa ham, gaz hosil qiluvchi jinslardan metanning shiddatli ko'chishida bunday suvlar

asosiy muhit va qisman uni ko'chiruvchi omil vazifasini o'taydi. Bunday muhit qatlam sharoitlarida erigan gaz fazasi (gaz ajralmasi)ni hosil bo'lish zonasiga mos keladi.

Apokatagenezning keyingi jarayonlari uglevodorodlarning buzilishi bilan bog'liq. Suvdagi moddalarning kimyoviy faolligi ham metan (balki boshqa uglevodorodlarni ham) parchalanishi va karbonat angidrid gazining hosil bo'lishiga olib keladi.

*Metagenez* va *gipergenez* bosqichlarida uglevodorodlarning to'planish miyosi kam bo'ladi, chunki jinslarning neft-gaz hosil qilish imkoniyatlari tugab bo'lgan yoki bunday imkoniyatlarning amalga oshuvi (neft-gaz to'planishi ham bunga kiradi) uchun sharoitlar (ayniqsa gidrogeologik) qulay bo'lmaydi. *Gipergenez* bosqichida cho'kindi jins qatamlariga tashqi qobiqlardan infiltratsiyalanayotgan (kirib kelayotgan) suvlarning miqdori (avvalgi bosqichlarda shimilgan suvlarnikidan) ko'p bo'lib, buning ta'sirida qatlam temperaturasi pasayadi va oksidlovchi moddalar qatlamga kirib keladi. Bunday gidrogeologik sharoit neft-gaz hosil bo'lish jarayonlarining kechishiga to'sqinlik qiladi, uglevodorodlarning parchalanishi va ularning uyumlarini buzilishiga olib keladi.

Demak, gipergenez bosqichida gidrogeologik omil uglevodorodlarning hosil bo'lishia, to'planishi va saqlanishiga salbiy ta'sir etadi. Uglevodorodlar parchalanadi, ammo oldin paydo bo'lgan to'plamlar qayta shakllanib, qattiq bitumlarga aylanishi ham ehtimoldan holi emas.

### **17.3. Neft va gaz tutqichlarini mavjudlik ko'rsatkichlari**

Neft va gaz izlash ishlari majmuida neft va gaz tutkichlariiing mavjudlik ko'rsatkichi axamiyatlidir. Odatta, neft va gaz tutqichlari neft-gazli katamlardagi suvlarning bo'shalish zonalari bilan boglik bo'ladi. Bunday bog'liqlik, neft va gaz tutkichlariiing mavjudligi gidrogeologik ko'rsatkichlariga asos qilib olinadi. Bularning o'ziga xos tomopi shundaki, tadkikotlar neft-gazli komplekslarning ustki kismida joylashgan suvli gorizontlarni o'rganishga

yo'naltiriladi. Avval kayd kilingan barcha gidrogeologik ko'rsatkichlar esa neft-gazli komplekslarning ichidagi suvlarni bevosita o'rganishga qaratilgan edi.

Ushbu guruxga quyidagi ko'rsatkichlar mansub:

gidrodinamik va umumgidrogeologik;

gidrokimyoviy;

gidrogeotermik.

Yukorida joylashgan gorizontlardagi suvlар bosimli bo'lib. ularning suv bilan ta'minlanishi pastda joylashgan suvli komplekslar xisobiga sodir bo'ladi va shu joyda pastda joylashgan katamlardagi suvlarning bo'shalish joylari - o'choklari vujudga keladi. Ko'pgina tadkikotchilarning fikricha, neft va gaz konlari yerosti suvlarining bo'shalish zonalarida ko'prok joylashgan bo'ladi, bunday joylarda qatlamdan chikayotgan suvlar kaynar buloklar xosil kiladi (masalan, Garbiy Turkmanistonda ular kup uchraydi).

Gidrokimyoviy ko'rsatkichlar bo'yicha xaritalar va kesmalar tuziladi. Ulardan foydalanib tabiiy fon va anomaliyalar anikdanadi, bu maksadda suvning umumiyligi, minerallanganligi, xloridliligi, sulxfatlilik va bir qator boshqa ko'rsatkichlardan aniklanadi. Grunt suvlarining umumiyligi minerallanganligi chuqurlikdagi sho'r suvlarning darzliklar va yoriklar bo'yicha chiqib qo'shilishidan ortadi.  $rCC/rSO^2$  va  $rCC-rNa/rMg$  koeffitsientlari mikdori xam ishonchli ko'rsatkichlardan xisoblanadi. Grunt suvleri tarkibpdagi sulxfatlilik mikdori chukurlikdan chikayotgan suvlar hisobiga kamayadp.

Gidrokimyoviy fon iklim va relъef bilan nazorat qilinadi. Bir xil iklimiy mintakalar ichidagi zonadarda grunt suvlarining minerallanganligi va tarkibi relъega bog'liq xolda o'zgaradi. Suv okmaydigan botiklarda, asosan, sho'r suvlar, suv okadigan botiqlarda asa nisbatan chuchukrok suvlar xosil bo'ladi.

Gidrokimyoviy anamaliya xarakgeriga ikdim va relъefdani tashkari toshkotgan jinslarning tarkibi xam ta'sir etadi. Ko'milib ketgan tuz kubbalarini xamda juda sho'r chukurlik suvlarining bo'shalish o'choklaridagi kabi suvlarining kimyoviy tarkibini o'zgartirib yuboradi. Yer yuzasiga yakin joylashgan gips va

angidrit katamlari xam suvdagi sul'fatlar mikdorini oshirib, gidrokimyoviy anomaliyalarini vujudga keltiradi.

Anomaliya kiymatlari va fon mikdoridan tashkari anomali uchastkalaming shakllanishini o'rganish zarur. Ularning paydo bo'lishi ko'prok tektonika va releyefga bog'lik. Releyefning tekislik kismlarida gidrokimyoviy anomaliyalar xalqasimon ko'rinishda bo'ladi. Tektonik jixatdan buzilgan neft-gazli katamlarda gidrokimyoviy anomaliyalar yuqori kavatdagi suvli gorizontlarning bo'shalish o'chokdarida namoyon bo'ladi.

Gidrokimyoviy ko'rsatkichlar tutkichlar mavjudligini fakat kiyosiy tafsiflashi mumkin. Yukori gorizontlardagi grunt va bosimli suvlardagi gidrokimyoviy anomaliyalar muxim axamiyatga ega. Pastda joylashgan gorizont (kompleks)dagи suvlarning p'ezometrik satxi yukoridagi bosimli gorizontlar va grunt suvlari satxidan yukori bo'ladi. Pastki suvbosimli kompleksning bo'shalishi mayda darzliklar bilan darzlangan suv tusar qatlamlar orkali sodir bo'ladi, ayniksa antiklinal, kubba, fleksura va sh.k. joylashgan yerdarda ularning soni ortadi. Gidrokimyoviy anomaliyalar, odatda, bosimli gorizontlarda yakkol namoyonlanadi.

Neft va gaz uyumlарining mavjudligi (hosil bo'lish sharoitlari) ko'rsatkichlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) hududning gidrogeologik rivojlanish tarixida elizion bosqichning absolyut va nisbiy davomiyligi;

2) elizion suv almashinish sur'ati ko'rsatkichi.

Hududning neft va gazga istiqbolliligini baholash uchun bunday ko'rsatkichlarning ahamiyati quyidagilardan iborat: gidrogeologik rivojlanish tarixi davomida elizion bosqich va elizion suv almashinish sur'ati ko'rsatkichining davomiyligi qancha katta bo'lsa, neft-gaz to'planishida shuncha ko'p moddalar ishtirok etadi, demak neft va gazlarning zaxirasi ham katta bo'ladi.

Elizion suv almashinish sur'ati ko'rsatkichi birinchi marta Sharqiy Kavkazoldi va G'arbiy Kaspiyoldida tarqalgan quyi mel davri yotqiziqlarining

neft-gazliligini baholashda qo'llanildi. Natijada shu nomdag'i xarita tuzilib, unda janubiy, o'rta va shimoliy zonalar ajratildi. To'plangan ma'lumotlarning tahliliga tayanib, neft va gaz to'planishida eng qulay va qulay bo'limgan gidrogeologik sharoitlar aniqlandi. Shuningdek, ushbu ko'rsatkich bo'yicha neft-gazga istiqbolliligi yuqori, o'rtacha va kam bo'lgan zonalar belgilandi.

#### **17.4 Neft va gaz izlashda foydalaniladigan gidrogeologik ko'rsatkichlarning tasnifi**

Neft-gaz izlash gidrogeologiyasi, maydonning neft-gazga istiqbolliligini baholashda, neft va gaz uyumlari va konlarini izlashda qo'llaniladigan gidrogeologik tadqiqotlar metodikasini belgilashda foydalaniladigan gidrogeologik ko'rsatkichlar va mezonlarning o'rganish masalalarini qamrab oladi.

Neft va gaz konlari hamda uyumlarini, gorizontlarni, maydonlarni neft va gazga istiqbolliligini baholashda foydalaniladigan gidrogeologik ko'rsatkichlar va mezonlar neft-gaz hosil bo'lish, to'planish, harakatlanish, bo'shalish, yerosti suvlaringin neft va gaz bilan o'zaro ta'sir jarayonlarini o'rganishga asoslangan.

Neft-gaz izlash gidrogeologiyasi uyumlarning istiqbolliligini uch bosqichda bashoratlash (baholash) imkonini beradi: *regional* bashoratlash, ya'ni yaxlit neft-gazli havzalar hamda havzaning ayrim gidrogeologik qavatlari uchun; *zonal* – havzaning bir qismini egallagan, neft-gazli yoki neft-gazli bo'lishi mumkin bo'lgan zonalar; *lokal* – ayrim tutqichlar uchun, unda kon bo'lishi mumkin yoki tutqich mavjud bo'lgan ayrim gorizontlar yoki uyum ham bo'lishi mumkin.

Bajariladigan ishning mazmuniga ko'ra, bashoratlash absolyut va nisbiy turlarga bo'linadi. Regional va zonal havzalarni baholashda nisbiy bashoratlashdan foydalaniladi. Hozirgi vaqtida neft-gazlilikni bashoratlashda lokal bashoratlash ham katta ahamiyat kasb etadi. U neft va gaz uyumlarining tarqoq joylashish darajasini hamda neft va gaz uyumlariga geokimyoiy oreollar ta'sirini aniqlashga asoslanadi.

Neft-gaz izlashning gidrogeologik mezonlari har xil va juda ko'p bo'lib, neft va gaz uyum (kon)larini izlashda ahamiyati kattadir. Sh u sababli, ulami tartibga solish va tasniflash zarur bo'ladi.

Neft-gaz izlashda foydalaniladigan ko'rsatkichlarni gidrogeologik materiallarning mazmuniga ko'ra quyidagicha *tasniflash* mumkin: 1) gidrokimyoviy ko'rsatkichlar (shu bilan birga suvning gaz tarkibi, organik moddalar tarkibi, suvning ion-tuz tarkibi); 2) gidrodinamik va umumgidrogeologik ko'rsatkichlar; 3) gidrogeotermik ko'rsatkichlar; 4) paleogidrogeologik ko'rsatkichlar. Bulardan tashqari, gidrogeologik materiallar va ko'rsatkichlarning ahamiyatiga ko'ra ham quyidagilar ajratiladi: 1) neft va gazlarning mavjudlik ko'rsatkichi; 2) neft va gaz uyumlarining mavjudlik ko'rsatkichi; 3) neft va gaz to'plamlarining hosil bo'lish sharoiti ko'rsatkichi; 4) neft va gaz (shuningdek neft va gaz to'plamlari)ning saqlanish va buzilib ketish sharoitlari ko'rsatkichlari; 5) neft va gaz tutqichlarning mavjudlik ko'rsatkichlari.

### **17.5. Neft va gaz izlashdagi gidrogeologik tadqiqotlar turlari va neft-gazlilik istiqbolini baholashda gidrogeologik ko'rsatkichlardan foydalanish**

Neft-gaz izlash maqsadida bajariladigan gidrogeologik tadqiqotlar izlov ishlarning turli bosqichlarida amalga oshiriladi. Bunday ishlarda maxsus s'jomka yoki tematik tadqiqotlar ko'rinishida avval bajarilgan hidrogeologik ishlar materiallaridan (burg' quduqlarini sinashda olingan natijalar va h.k. dan) foydalaniladi.

Neft-gaz izlashda bajariladigan hidrogeologik tadqiqotlar hidrogeologik rayonlashtirishga asoslanadi. Bunda tabiiy suv bosimli sistemalar, yerosti suv havzalari, ularning chegaralari, ta'minlanish, bosim hosil bo'lism, bo'shalish zonalari ajratiladi. Bunday rayonlashtirish qisman umumgeologik va orogidrografik ma'lumotlarga asoslanadi. Neft-gazlilik istiqbolini hidrogeologik ko'rsatkichlar bo'yicha bahalosh yaxshi natijalar beradi. Neft-gazli havzaning ayrim qismlarini o'rganish ularning regional hidrogeologik joylashish o'mini hisobga olgan holda amalga oshirilishi mumkin.

Gidrogeologik ko'rsatkichlardan izlov-razvedka ishlarning turli etaplarida foydalanish mumkin:

- a) yangi kam o'rganilgan maydonlarning neft-gazga istiqbolini qiyosiy baholashda;

- b) regional izlov ishlari etapida;
- v) mufassal izlov bosqichida;
- g) izlov burg‘ilashi va shu kabi bosqichlarda.

Bunda gidrogeologik mezonlar ma'lum bir aniq masalalarni hal qilish uchun qo'llanilishi darkor. Ulardan eng muhimlari quyidagilardan iborat: 1) neft-gazli qatlamlarni, ya'ni sanoat miqyosida neft-gazli bo'lishi mumkin bo'lgan qatlamlarni aniqlash; 2) neft va gaz uyumlarining saqlanishiga qulay sharoitlari bo'lgan zonalarni aniqlash; 3) neft va gaz kon (uyum)larini aniqlash.

Yangi, geologik jihatdan kam o'r ganilgan maydonlarning neft-gazga istiqbolini baholash uchun avval bajarilgan geologik, gidrogeologik, maxsus gidrokimyoviy s'yomka, shuningdek, qazilgan parametrik quduqlar materiallaridan foydalaniladi. Maydonning gidrogeologik rayonlashtirish xaritasini tuzish va umumgidrogeologik sharoitlarni o'r ganish neft-gaz izlashda gidrogeologik ko'rsatkichlardan to'liq foydalanish hamda neft-gaz konlari gidrogeologiyasi masalalarini hal qilish imkonini berishi kerak.

O'r ganilayotgan hududning stratigrafik kompleksida neft-gazlilik ma'lum bo'lsa yoki ma'lum bo'lmasa ham asosiy diqqat neft va gazning mavjudlik ko'rsatkichiga yoki neft va gazning saqlanish sharoitlari ko'rsatkichiga qaratilishi zarur. Agar neft va gaz mavjudligi isbotlangan bo'lsa, birinchi guruhga mansub ko'rsatkichlar ahamiyatli bo'lmaydi. Izlov etapining dastlabki bosqichida gaz uyumining mavjudligini gidrogeologik ko'rsatkichlari (erigan gazlarning to'yinish bosimi) faqat parametrik quduqlarni qazish va suvlardan namuna olib tekshirish natijasida aniqlanadi.

Maxsus gidrokimyoviy s'yomkalar bajarib (gidrokimyoviy anomaliyalar yordamida) ayrim uchastkalarda tutqichlarning mavjudlik ko'satkichini aniqlash mumkin, lekin izlov ishlarining dastlabki bosqichida neft-gazliligi aniqlanmagan joylarda ulardan neft va gazning mavjudlik ko'rsatkichlarini aniqlashda foydalaniladi.

Izlov ishlarining *mufassal* bosqichida struktura va izlov quduqlaridan hamda qatlamlarni sinashdan olingan gidrogeologik ma'lumotlar ahamiyat kasb etadi.

Lekin, struktura quduqlaridan olinadigan gidrogeologik ma'lumotlar hamma vaqt ham talabga javob beraolmaydi.

*Izlov burg' ilashida* gaz uyumlarining mavjudlik ko'rsatkichlari – suvda erigan gazlarning to'yinish bosimini aniqlash juda muhim. Buning uchun chuqur qatlamlardan suv namunalarini olish va suvning statik sathini o'lchash zarur bo'ladi. Barcha chuqur quduqlardagi suvlarning statik sathini o'lchamaslik yoki o'lchov ishlarini sifatsiz o'tkazish mutlaqo mumkin emas, chunki bunday ma'lumotlarsiz neft-gazli havzalarni to'liq o'rghanib bo'lmaydi. Ayniqsa, neft va gaz konlarini o'zlashtirish boshlangandan so'ng tabiiy statik sath o'zgarib ketadi. Neft-gazliligi isbotlanmagan hollarda istiqbolli gorizontlarni sinash orqali neft-gazning mavjudlik ko'rsatkichini aniqlash ahamiyatga ega bo'lib, uning yordamida neft va gazning saqlanish sharoiti ko'rsatkichlarini belgilash mumkin.

Neft va gazlarni izlash ishlarida bajariladigan gidrogeologik tadqiqotlar metodikasi gidrogeologik izlanishlar va tadqiqotlar (8-bob) metodikasidan ko'p farq qilmaydi.

Gidrogeologik havzaning neft-gazlilagini baholashda u har tomonlama to'liq o'rganilsa yaxshi natija beradi. Ayrim lokal elementlarni o'rghanish va baholashda ularning havzadagi o'mini hisobga olish zarur.

Hozirgi vaqtida neft-gazli hududlar geologik, hidrogeologik va geofizik tadqiqotlar yordamida mukammal o'rganilmoqda. 1960-2013 yillar davomida O'zbekiston Respublikasi hududidagi neft va gazli regionlarda ko'p miqdorda parametrik, struktura, izlov, razvedka va ekspluatatsion quduqlar qazilib, katta chuqurlikdagi neft-gazli qatlamlarda tadqiqot ishlari bajarildi. Shunga ko'ra, regional, izlov va razvedka etapida bajariladigan geologik-razvedka ishlarining turi, hajmi va mohiyati o'zgarib bormoqda.

Tadqiqotchilar L.M. Zorkin, M.I. Subbota, E.V. Stadniklarning (2001) tavsiyasiga ko'ra, neft-gazlilikning bashoratlash ishlarini uch bosqichda o'tkazish lozim:

- 1) cho'kindi havzalari va yirik hududlarni baholash;

2) cho'kindi havzasi chegaralaridagi ayrim qavat (kompleks)larni va hudud (zona)larni baholash;

3) burg'ilash ishlarini boshlash masalasini hal qilish maqsadida lokal maydon (uchastka)larni baholash.

Neft-gaz izlashda bajariladigan gidrogeologik tadqiqotlarning tavsifi 17.2-jadvalda keltirilgan.

Neft va gaz kon (uyum)larini izlashning turli bosqichlarda bajariladigan gidrogeologik tadqiqotlarning turlari va vazifalari (A.A.Karsev va b. bo'yicha)

### 17.2-jadval

Gidrogeologik tadqiqotlar		
Regional	Bashorat-rekognotsirovka	Izlov-baholash
Tadqiqotlarning maqsadi va vazifalari		
Neft-geologik rayonlashtirishning regional element (zona) larini (NGRE) neft-gazlilik ko'rsatkichlarining anomal tavsiflari bilan aniqlash.	Neft-geologik rayonlashtirishning lokal elementlari (NGLE) neft-gazlilik ko'rsatkichlarining anomal tavsiflari bilan ajratish.	A. NGLE ni saralash. Chuqur izlov burg'ilashi uchun lokal ob'ektlarni ajratish.
Tayanch gorizontlarni ajratish.	Ajratilgan ob'ektlarning neft-gazlilikini baholash.	Izlov quduqlari joylashishi optimallash va ularning qazish ketma-ketligini aniqlash.
Neft-gazlilikni baholash va keyingi bosqichlarda bajariladigan zaruriy ishlar maj-muasinining yo'nalishini asoslash.	Keyingi bajariladigan ishlarning ketma-ketligini, yo'nalishini, hajmini, turini asoslash.	B. Chuqur izlov quduqlari kesimida mahsuldar bo'lishi mumkin bo'lgan gorizontlarni ajratish.
Bajariladigan ishlarining turlari va vazifalari		
Tabiiy va sun'iy suv punktlarida hamda tayanch burg' quduqlarida 1:200000 va undan kichik mashtabli hidrogeologik (marshrutlar o'tkazish.	NGRE (yoki NGLE) chegarasida chegarasida chuhurlikda joylashgan gorizontlarni 1:200000 va 1:100000 mashtabi hidrogeologik s'yomka (kesmalar va maydonlar bo'yicha) qilish.	A. NGRE chegarasida tayanch gorizontlar bo'yicha (600 m gacha) maydon bo'ylab 1:100000, 1:50000 va 1:25000 mashtabli hidrogeologik s'yomkalar o'tkazish.
	Geologik-geofizik tadqiqotlar bilan aniqlangan strukturaviy ko'tarilmalarining anomal tavsifli hidrogeolo-	Geologik-geofizik ishlar bilan aniqlangan strukturaving yoki neft-gazlilik bashoratlari rekognotsirovka ishlari natijasida aniqlangan

	gik ko'rsatkichlarini belgilash. Parametrik quduqlarda gidrogeologik tadqiqotlar o'tkazish.	anomal tavsifli gidro- geologik ko'rsatkichlarni belgilash. B. Izlov quduqlarida gidrogeologik tadqiqotlar o'tkazish.
<b>Bajarilgan izlov ishlaring natijalarini</b>		
1:500000 masshtabli regional gidrogeologik xarita. Keyingi bosqichda istiqbolli zona(maydon)larda bajarila- digan ishlarning ro'yxati. Izlov ishlarning yo'nalishi bo'yicha tavsiyalar.	1:200000 masshtabli gidro- geologik xaritalar. Istiqbolli lokal (NGLE) ob'ektlar ro'yxati. Izlov ishlarning yo'nalishi bo'yicha tavsiyalar.	A. 1:100000, 1:50000 va 1:25000 mayda, o'rta va yirik masshtabli gidrogeologik va bashoratlash xaritalari. Izlov burg'ilashi bajarila- digan lokal ob'ektlar ro'yxati. Birinchi va keyingi qaziladigan chuqur izlov quduqlari bo'yicha tavsiyalar. B. Gidrogeologik kesmalar va quduqlarni sinash bo'yicha tavsiyalar.

## 18. NEFT VA GAZ UYUMLARI GIDROGEOLOGIYASI

### 18.1. Konlardagi qatlama suvlarning tasnifi

Neft va gaz konlaridagi suvlar ularning uyumga nisbatan geologik joylashish holatiga qarab tasniflanadi. Shunga ko'ra, suvlarning quyidagi turlari farqlanadi:

1) pastki chekka (kontur) suvlari, bunday suvlar uyum mavjud bo'lgan qatlama uchraydi va neft qatlaming pastga egilgan qismida uyumdan pastda joylashadi. Ular ko'pincha neft va gaz uyumlarini bosim ostida pastdan tirab – yuqoriga itarib turadi;

2) ostki suvlar, suv ustida joylashgan uyumning ostki qismida uchraydi, ko'pincha strukturaning hamma joyida (gumbaz qismida ham) mavjud bo'ladi;

3) oraliq suvlar, neft-gazli qatlama ichida, har xil qalinlikdagi qatchalar va qatlamchalarda uchraydi, u yagona ishlatish ob'ekti bo'laoladi;

4) yuqori chekka suvlar, uyum mavjud bo'lgan qatlama uchraydi va uyumning yuqori, qatlama neftli qismi yer yuziga chiqqan (monoklinal

ko'rinishda, antiklinal burmaning gumbazi buzilib ketgan) joylarda uchraydi (kamdan-kam hollarda).


5) yuqori suvlar, toza suvli qatlamda uchrab, neft-gazli qatlamning yuqori qismida joylashadi;

6) pastki suvlar, toza suvli qatlamda uchrab, neft-gaz qatlamining tagida joylashgan bo'ladi;

7) tektonik suvlar – tomir suvlar, neft-gazli qatlamlarni kesib o'tuvchi darzliklarda harakatlanadi;

8) bog'langan («qoldiq») suvlar – asosan, kapillyar suvlar, qatlamning neft-gazga to'yingan qismi ichida uchraydi, uyumni ishlatishda neft va gaz bilan qisman birga chiqishi mumkin;

9) qatlamga sun'iy haydalgan suvlar – neft-gazli qatlamga burg'ilash, quduqlarni ta'mirlash, qum tiqinni yuvish chog'ida hamda qatlam bosimini saqlash maqsadida qatlamga suv haydashda kirishi mumkin. Bunday suvlar qisman chekka, ostki, oraliq suvlar o'mini, ba'zan mustaqil joy egallashi ham mumkin. Masalan, kontur ichiga (qatlamning neftga to'yingan qismi ichining ayrim uchastkalariga) suv haydalganda hosil bo'ladi. Quduqlarni sinash chog'ida bunday suvlar quduqqa qaytadan kirib kelishi va hisob-kitoblarni o'zgartirib yuborishi mumkin (18.1-rasm).



**18.I-rasm.** Suvlarning neft konida joylashish sxemasi (M.A.Jdanov bo'yicha):

a – neft; b – suv; v – gillar qatlami. Suvlari: 1 – ostki-chekka; 2 – qatlam ostidagi; 3 – oraliq; 4 – ustki-chekka; 5 – ustki; 6 – ostki.

Odatda, o'tish zonasida hosil bo'lgan suvlarni ham o'rghanish maqsadga mufoviq. Ko'pincha neft-suv tutash yuzasining sathi toza (chekka yoki ostki) suvlarning sathi bilan mos tushmaydi. O'tish zonasini to'ldirib turgan suyuqliklar neft-suv emulsiyasi ko'rinishida bo'ladi.


Keyingi vaqtarda uyumlarda, shuningdek, kondensatsion va (yoki) kondensat suvlari ajratildi, oxirgisi gaz va gaz kondensati uyumlarini, ba'zan neft uyumlarini ekspluatatsiya qilishda ajraladi. Bunday suvlar birinchi marta B.I.Sultanov (1961) tomonidan Ozarbayjonda ajratilgan. Ular boshqa suvlardan juda kam minerallanganligi va kam miqdorda bo'lishi bilan ajralib turadi. Odatda, quyidagi suvlari ajratiladi:

1) kondensat suvlari – ular chekka suvlardan iborat bo'lib, quduqqa qatlamning gazga to'yingan qismidagi suv bug'larini gaz bilan olib kirilishi va kondensatsiyalanishidan hosil bo'ladi;

2) kondensatsion suvlari – uyum hosil bo'lganda qatlamdag'i kondensatsiyalangan suvlari. Bunday suvlarning tarkibi odatiy chekka va ostki suvlardan butunlay farqlanadi.

Tadqiqotchilardan A.M.Nikanorovning ta'kidlashicha, Kavkazning shimoli-sharqi qismidagi konlarda kondensatsion suvlar ayrim hollarda neft uyumlarining ostida mavjud bo'lgan. Lekin, hozirgacha neft va gaz konlariagi kondensat va kondensatsion suvlarning hosil bo'lishi, kimyoviy tarkibi, harakati to'liq o'rganilmagan.

Neft va gaz konlarini o'zlashtirish chog'ida ulardagi suvlarning qatlama ichida harakatlanishi, ularning kimyoviy tarkibi esa vaqt davomida o'zgarishi mumkin. Quduqdan suyuqlikni chiqarish jarayonida ba'zan suvning minerallanganligi ortishi, ba'zan kamayishi kuzatiladi (18.2-rasm).



18.2-rasm. Neftli qatlamdagagi suvning minerallanganligini vaqt davomida o'zgarishi  
(G.M.Suxarev bo'yicha):

1 – suvning mierallanganligi, mg-ekv/l; 2 – neft uyumidan chiqarilgan suvning o'rtacha oylik miqdori, t.


Bunday o'zgarishlar ikki holda sodir bo'lishi mumkin. Birinchi holda, qatlamga suv haydalga yoki qatlamdan suv chiqarib olinganda ularning qatlam bo'ylab harakatlanishida, ikkinchi holda, ushbu qatlamning boshqa qismlaridagi suvlarning yoki unga sun'iy ravishda suv kiritilishida sodir bo'ladi. Ko'pincha qatlamning uzoq joylaridagi, minerallanganligi uyumga yaqin suvlarnikiga nisbatan kam bo'lgan suvlarning quduq tomon oqib kelishi kuzatiladi. Kondensatsion suvlar o'rmini oddiy chekka yoki ostki suvlar egallaganda uyum ostidagi suvlarning minerallanganligi kamayadi.

Neft va gaz konlari ishlataliganda, vaqt davomida, suvlarning tarkibiga ayrim geokimyoviy jarayonlar ham ta'sir etadi. Bunday jarayonlar neft-gazli qatlamga suv va havo haydalga rivojlanadi. Masalan, qatlamga tarkibida sulfat va

kislorod ko‘p bo‘lgan yer yuzasidagi (daryo, dengiz) suvlari haydalga qatlamda oksidlovchi-qaytaruvchi jarayonlar yuzaga kelishi yoki kuchayishi mumkin. Natijada suvda sulfatlar, serovodorod, karbonat kislota va boshqa komponentlarning miqdori ortadi.

### 18.2. Neft va gaz uyumlari chegarasidagi kontur suvlarining harakati


Qatlamlardagi gaz va suvni ajratuvchi chegara *gaz-suv tutash yuzasi* (kontakti) yoki gazlilik konturi, neft va suvni ajratuvchi chegara esa *suv-neft tutash yuzasi* (kontakti) yoki neftlilik konturi deb ataladi. Demak, neft va gaz uyumi joylashgan maydonning struktura xaritasi yoki boshqa nomdag'i birorta xaritada o‘tkazilgan va maydonni o‘rab – hoshiyalab turgan chiziq *neftlilik konturi* yoki *gazlilik konturi* deb ataladi (18.3-rasm).



18.3-rasm. Gaz qalpoqli neft uyumining sxemasi (G.M. Suxarev bo‘yicha):

a – uyumning planidagi ko‘rinishi; b – I-I chiziq bo‘yicha kesim.

Agar nefli yoki gazli qatlamning qalinligi katta, qiyaligi juda kichik bo‘lsa, undagi suv qiya yotgan qatlamning yuqoriga ko‘tarilishi (qiyiqlanishi) bo‘yicha, uning ostki qismida harakatlanadi, yuqori qismi esa neft va gaz bilan to‘ladi. Bunday hollarda neftlilikning tashqi konturi belgilanadi, u qatlamning yuqori qismidan (18.4-rasm, AA<sup>1</sup>), ichki konturi esa qatlamning ostki qismidan o‘tkaziladi (18.4-rasm, BB<sup>1</sup>). 18.4-rasmida qiya yotgan qatlamning neftlilik konturi ko‘rsatilgan.




**18.4-rasm.** Qiya yotgan katlamdag'i neft uyumining sxemasi (G.M. Suxarev bo'yicha):

a – uyumning plandagi ko'rinishi; b – I-I chiziq bo'yicha kesim.


Neftlik konturining ichida qazilgan quduqdan suvsiz neft olinadi, neftlikning ichki va tashqi konturlari ichida qazilgan quduqlardan neft suv bilan birga chiqadi, neftlikning tashqi konturidan tashqaridagi quduqlardan faqat suv olinadi.

Neft yoki gaz uyumi o'zlashtirilganda va ishlatilganda suyuqlik hamda gazlar chiqarib olinadi, shunda pastki chekka (kontur) suvlarning uzliksiz va bir me'yorda harakatlanshidan jinsning g'ovaklaridagi neft to'liq siqib chiqariladi, natijada neft va gazning dastlabki zaxiralari ortadi. Agar suv notejis harakatlansa, u holda neftning ko'p qismi jinslar ichida qolib ketadi. Ba'zan bir butun maydonlarni ishg'ol qilgan neft qoldiqlari jinslarda qolib ketadi, ularni mavjud usullarda chiqarib olish juda qiyin. Agar quduqdan neft va gaz juda katta miqdorda chiqarib olinsa, u holda chekka suvlar bir me'yorda harakatlana olmaydi va suvlanish tillarini hosil qiladi (18.5-rasm), agar ostki suvlar mavjud bo'lsa, suvlanish konuslari paydo bo'ladi (18.6-rasm).

### *Neftlilik konturi*



*18.5-rasm. Suylanish tillari (G.M. Suxarev bo'yicha).*



*18.6-rasm. Ostki suvlarda suylanish konuslarining paydo bo'lish sxemasi*

*(G.M. Suxarev bo'yicha).*

Neft uyumlaridagi kontur suvlarning holati uyum o'zlashtirilgandan (ma'lum vaqt o'tgandan) so'ng o'zgaradi. Ayrim neft qatlamlaridagi kontur ichida qazilgan quduqlardan neft tartibli-nazoratli olinganda kontur suvlarning bir maromda harakatlanishi, boshqa qatlamlarda esa quduqlardan neft tartibsiz-nazoratsiz chiqarib olinganda kontur suvlarning notejis harakatlanishi kuzatilgan.

Shunga o'xshash hodisalar gaz uyumlarini ishlatishda ham kuzatiladi. Gazlilik konturiga parallel joylashgan quduqlar qatlamga bir xil bosim berib ishlatilsa, kontur suvlari quduq tomon bir tekisda, «til» hosil qilmasdan harakatlanadi. Agar quduqdan gaz tartibsiz-notejis chiqarib olinsa, kontur suvlarida tillar hosil bo'ladi, vaqt o'tishi bilan suylanish tillari bir-biri bilan tutashib, quduqni qamrab olishi mumkin. Natijada gaz qatlamida tegilmagan gaz qoldiqlari hosil bo'ladi. Agar bunday quduqlardan gaz chiqarib olish nazorat qilinmasa, u holda quduq tubiga suv konusi tortiladi, natijada quduq kontur suvlari bilan suylanib ishdan chiqadi.

Yuqorida keltirilganlardan ko'rinib turibdiki, neft va gaz konlarini ishlatalishda kontur suvlarining bir me'yorda – tekis harakatlanishi katta ahamiyatga ega ekan. Kontur suvlarining notejisiljishini nazorat qilish uchun teng bosimlar – izobara haritalarini ma'lum bir vaqt oralig'ida tuzib borish kerak. Bundan tashqari, kontur suvlarining harakatlanish xarakterini aniqlash maqsadida teng elektr qarshilik xaritalari tuziladi. Buning uchun ushbu qatlarning ishlatalib bo'lingan qismlarini to'liq kesib o'tgan quduqlardan olingenan ma'lumotlardan foydalaniadi.

### **18.3. Neft va gaz uyumlarini burg'ilashdagi gidrogeologik tadqiqotlar**

Quduqlarni, ayniqsa *razvedka quduqlarini burg'ilashda* geologik va gidrogeologik kuzatish va tadqiqot ishlari majmui bajariladi. Yuqori bosimli suv qatlamlari ochilganda, ba'zan ular quduq stvoliga kiradi va gilli eritmani suyultirib, uning xususiyatlarini o'zgartirib yuboradi. Shu sababli quduqqa haydalayotgan va quduqdan chiqib kelayotgan gilli eritma parametrlarining o'zgarishi muntazam ravishda kuzatib boriladi. Bundan tashqari, suvli gorizontlarning yotish oraliqlarini taxminan aniqlash maqsadida gilli eritma zardobi taddiq qilinadi.

Burg'ilash tugagandan so'ng razvedka va foydalanish quduqlarida ochilgan qatlamlar, svitalar va gorizontlarda sinov ishlari bajariladi. Ba'zan razvedka quduqlarida sinash ishlarini mustahkamlash quvurlarini tushirishdan avval bajarish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda turli qatlamsinagichlardan foydalaniadi.

Ayrim hollarda razvedka quduqlarini sinash jarayonida kutilayotgan neft va gaz oqimlari o'rniغا suv oqimi, neft va suv oqimi yoki gaz va suv oqimi olinadi. Ba'zan razvedka quduqlarida faqat suvli gorizont sinalishi mumkin. Sinash chog'ida gidrogeologik kuzatuv va tadqiqot ishlari amalga oshiriladi. Suvning kimyoviy tarkibini o'rganish uchun quduqdan suv namunasi olinadi, so'ngra suvning debiti (sarfi), statik sathi va qatlam bosimi o'lchanadi. Qatlam bosimini o'lchanishda chuqurlik manometrlaridan foydalaniadi va shu vaqtning o'zida suv temperaturasi o'lchanadi.

Agar quduq favvoralansa, uning og'zi berkitilib, manometr yordamida maksimal bosimi aniqlanadi. Buning uchun o'lchovlar har 10–15 minutda o'tkaziladi. Olingenan natijalar bo'yicha bosimning tiklanish egri chizig'i tuziladi,

undan foydalanib kollektorning o'tkazuvchanligi va undagi suv to'g'risida fikrlash mumkin bo'ladi.

Quduq og'zidagi maksimal bosimni bilgan holda sinaladigan qatlamning yotish chuqurligini, favvoralanayotgan suvning zichligi va quduq stvoli bo'yicha suvning temperaturasini aniqlash va qatlam bosimini hisoblash mumkin.

Favvoralanayotgan quduqning debiti oldindan hajmi ma'lum bo'lgan idish yordamida aniqlanadi. Suyuqlik debiti quduq og'ziga o'rnatilgan manometrdagi bosimning turli qiymatlarida o'lchanadi. Agar quduq favvoralanmaydigan bo'lsa, debit quvurlar birikmasi ichidagi suv sathini har xil kattalikda pasaytirib, chiqgan suvning hajmi o'lchov idishlari yordamida aniqlanadi. Olingan barcha faktik dalillar hujjatlashtiriladi va o'rganib chiqiladi.

#### **18.4. Neft va gaz uyumlarini o'zdashtirish jarayonidagi gidrogeologik kuzatuvlar va tadqiqotlar**


Neft va gaz uyumlaridan foydalanishda gidrogeologik kuzatuvlarning asosiy vazifasiga quduqdan chiqayotgan suyuqlikning umumiyligi hajmiga nisbatan suvning foiz miqdorini aniqlash kiradi. Uyum ishlatilayotganda quyidagi o'zgarishlar sodir bo'ladi: uyumdagagi bosimning o'zgarishi va uning maydon bo'ylab taqsimlanishi; qatlamning neft-gaz va suvga to'yinganligining o'zgarishi; suv-neft, gaz-suv, gaz-neft konturlarining siljishi; uyumdan chiqarib olinayotgan neft, gaz va suvlarning fizik va kimyoviy xossalalarining o'zgarishi va sh.k.

Sodir bo'ladigan bunday o'zgarishlar neftlik konturi tashqarisida joylashgan kuzatuv quduqlaridan o'rganiladi. Ularda vaqt-vaqt bilan suyuqlik sathi o'lchab turiladi. Neft va kuzatuv quduqlaridan suv namunalari uyunning ishlatish davrining oxirigacha ma'lum bir vaqt oraliqlarida olinadi. Bunday vaqt oraliqlari doimo uzaytirib boriladi: ishlatish boshlanganda (yoki quduqda suv birinchi marta paydo bo'lganda) namunalar har 10 kunda, keyinchalik har bir oyda, so'ngra 6 oyda va sh.k. bir marta olinadi.

Hamma ko'rinishdagi kuzatuvlar va laboratoriya tahlillari natijalaridan olingan gidrogeologik va gidrokimyoviy ma'lumotlar tartibga tushirilib, umumlashtirilib kesim, kesma, xarita va grafik ko'rinishida ifodalanadi.

Foydalaniш quduqlaridan chiqarilgan suyuqliklardagi suvning miqdori bo'yicha suvlilik va neftlilik konturlarining siljish xaritasi tuziladi. Suvlarning kimyoви tahlillari natijalari bo'yicha gidrokimyoви kesimlar, kesmalar, xaritalar va grafiklar tuziladi.

G.M. Suxarev tomonidan 1974 yilda neft va gaz konlari dagi suvlarning gidrokimyoviy kesimlari va gidrokimyoviy kesmalarining tuzish metodikasi ishlab chiqilgan. G.M. Suxarev turli stratigrafik gorizontlardagi suvlarning o'rtacha kimyoviy tarkibini tavsiflovchi namunali normal gidrokimyoviy kesimlarni tuzishni taklif etdi. Unda, shuningdek, suvning temperaturasi, sathi, debiti, gaz tarkibi va boshqa komponentlari ham beriladi (18.7-rasm).




**18.7-rasm.** Neft konining normal (namunali) gidrokimyoviy kesimi.

Neft va gaz konlarining normal gidrogeologik kesimi suvlarning o'rtacha kimyoviy tarkibini, geologik kesimning turli stratigrafik bo'limlarida joylashgan yeroti suvlarning genetik tiplarini (V.A. Sulin bo'yicha) ifodalaydi. Odatda,

normal gidrogeologik kesimlar har bir stratigrafik komplekslarning geotermik bosqichini, issiqlik oqimi miqdorini, ayrim qatlam va svitalaming keltirilgan sathini hamda yeroti suvlarining gaz tarkibini ifodalaydi. Agar ushbu kon chegarasidagi ayrim qatlam, svita va gorizontlardagi yeroti suvlar ma'lum bir kimyoviy tarkibga ega bo'lsa, odatda, bitta o'rtacha normal gidrokimyoviy kesim tuziladi. Kondagi yeroti suvlarining tarkibi qatlam, svita hamda gorizontlarda har xil va genetik tiplari turlicha bo'lsa, u holda bir necha normal kesimlar tuziladi, ular neft konining turli uchastkalaridagi kesimlarning hidrogeologik xususiyatlarini tavsiflaydi (q. 18.7-rasm).

Namunali gidrokimyoviy kesimni tuzishda har bir gorizont uchun suv tahlilining ishonchli yoki o'rtacha qiymatli tahlillaridan foydalaniladi. Olingan ayrim gorizontlar suvlarining tarkibi har xil bo'lsa, u vaqtida normal kesimlar konning ayrim uchastkalari uchun alohida tuziladi.

Neft va gaz konlarining ayrim gorizontlari uchun tuzilgan hidrokimyoviy xaritalarning ahamiyati kattadir. Bunday xaritalar (18.8-rasm) maydon chegarasidagi suvlar tarkibining o'zgarishini mufassal o'rganish hamda uning maydonni geologik tuzilishi, neft-gazligi va o'zlashtirilishiga bog'liqligini aniqlash imkonini beradi.



**18.8-rasm.** Kogon va Muborak neft-gazli rayonlarining XII gorizont bo'yicha tuzilgan hidrokimyoviy xaritasi (V.A. Kudryakov bo'yicha).

Suvlarning mineralanganligi, mg-ekv/l: 1 - <200, 2 - 200-400, 3 - >400; 4 - neft-gaz uyumlari; 5 - izogipsalar, km.

Gidrokimyoviy xaritalarni bajarilgan birinchi va keyingi tahlillar natijalariga qarab tuzish mumkin. Birinchi tahlillar natijalariga ko'ra, tuzilgan xaritalarni keyingi, turli muddatlarda tuzilgan xaritalarga solishtirib, uyumni ishlatish chog'ida suvlar tarkibining o'zgarishini aniqlash mumkin bo'ladi. Ayrim hollarda kimyoviy tahlil natijalari etarli bo'lmasa, mineralanganlik xaritasini geofizika materiallari asosida tuzish mumkin.

### **18.5. Neft va gaz uyumlarini razvedka qilishda gidrogeologik ma'lumotlardan foydalanish**

Neft va gaz uyumlarini razvedka qilishda gidrogeologik ma'lumotlar gaz-suv va suv-neft tutash yuzalarini va gaz uyumlarining neftli hoshiyalarini aniqlash hamda neft va gaz konlari chegarasidagi qatlamlarni taqqoslash uchun ishlatiladi.

Birinchi izlov quduqlarini qazish vaqtida strukturaning gumbaz qismi tutqichlaridagi neft va gaz uyumlarini gidrodinamik omillar ta'sirida gumbazdan qatlam qanotlari tomon siljigan bo'lishini aniqlash ahamiyatlidir. Bunday siljish suv-neft yoki gaz-suv tutash yuzalarining qiyaligi katta bo'lganda, yoki neft va gaz gumbazdan qanotlarga to'liq siljiganda sodir bo'ladi (18.9-rasm). Bunday hollarda tutqichlarning gumbaz qismini ochgan izlov qudug'i faqat suvni ochadi, shu sababli qatlamdagi tutqich chegarasida neft va gaz yo'q degan xato xulosa chiqarmaslik kerak. Bunda birinchidan, suv-neft va gaz-suv tutash yuzalarining qiyaliklarini, ikkinchidan, suvbosimli komplekslarning gidravlik qiyaligini taxminiy miqdorini aniqlash zarur bo'ladi.



*18.9-rasm. Antiklinalning qanotiga siljigan neft uyumi sxemasi (A.A.Karsev bo'yicha).*

Demak, neft-suv va gaz-suv tutash yuzalarining qiyaligini, neft va gaz uyumlarini gumbazdan qanotlar tomon siljishini aniqlash izlov ishlarining dastlabki bosqichida amalga oshiriladi.

Uyumlar aniqlangandan so'ng konlar va uyumlar razvedka qilinadi. Neft va gaz uyumlari ochilganda hidrogeologik ma'lumotlarga asoslanib, suv-neft va gaz-

suv tutash yuzalarining holatini aniqlash mumkin. Bunda ikkita hol bo'lishi mumkin. Birinchi holda, bitta quduq uyumni ochadi, undan foydalanib tutash yuzaning gipsometrik holati aniqlanadi va u gorizontal holatda deb taxmin qilinadi. Ikkinci holatda, uyum ikkita quduq bilan ochiladi, bunda tutash yuzaning qiyaligini aniqlash mumkin, u nuldan katta bo'ladi. Gorizontal deb taxmin qilinayotgan gaz-suv tutash yuzasining gipsometrik holatini M.A. Jdanov quyidagi formula bilan aniqlashni taklif etdi:

$$h_{cs} = h_c - \frac{(p_c - p_s)}{\rho_c}, \quad (18.1)$$

bunda  $h_{cs}$  – gaz-suv tutash yuzasining absolyut balandligi;


$h_s$  – qatlamning suvli qismida bosim o'changan nuqtaning absolyut balandligi;

$r_s$  – qatlamning suvli qismidagi bosim;

$r_g$  – qatlamning gazli qismidagi bosim;

$\rho$  – suv zichligi

(18.1) formulaning grafik ifodasi 18.10-rasmda berilgan.



**18.10-rasm.** Suv va gaz quduqlarida bosimlar dalillari bo'yicha gaz-suv tutash yuzasini aniqlash sxemasi (M.A.Jdanov bo'yicha): 1 – gaz; 2 – suv.

M.A. Jdanov gorizontal deb taxmin qilinayotgan neft-suv tutash yuzasining gipsometrik holatini quyidagi formula bilan aniqlashni taklif etdi:

$$h_{cn} = \frac{h_c \rho_c - h_n \rho_n - (p_c - p_n) \cdot 10}{\rho_c - \rho_n}, \quad (18.2)$$

bunda  $h_{cn}$  – neft-suv tutash yuzasining gipsometrik balandligi;


$h_n$  – qatlamning neftli qismidagi bosim o‘lchangan nuqtaning  
 gipsometrik balandligi;  
 $\rho$  – neft zichligi;  
 $r_n$  – qatlamning neftli qismidagi bosim.

Gaz-suv va neft-suv tutash yuzalarining gipsometrik balandliklarini (18.1) va (18.2) formulalar bilan isbotlash uchun qatlamlarning gazli, neftli va suvli qismlaridagi qatlam bosimini o‘lchov natijalari zarur bo‘ladi.

Ikkinchchi holda, neft-suv va gaz-suv tutash yuzalarning qiyaligi aniqlanadi. Buning uchun

$$\frac{\rho_c}{\rho_c - \rho_i} i = (10.2) \text{ va } \frac{\rho_c}{\rho_c - \rho_i} = i = (10.3) \text{ formulalardan foydalaniladi. } i - \text{gidravlik qiyalik.}$$

Bu formulalardan gidravlik qiyalik yoki qatlam bosimlarining farqi regional hidroizopez xaritalaridan olinmasdan, balki izlov maqsadida neft-suv va gaz-suv tutash yuzalari qiyaligining taxminiy qiymatlari quduqlarda qatlam bosimlarini yoki suvlarning statik sathlarini bevosita o‘lchash orqali topiladi. O‘lchovlar uyumning qarama-qarshi tomonlarida, yerosti suv oqimi yo‘nalishi bo‘yicha joylashgan, qatlamning suvli qismini ochgan quduqlarda amalga oshiriladi (18.11-rasm). Agar suv oqimi yo‘nalishi noma’lum bo‘lsa, u holda o‘lchovlar ikkita o‘zaro kesishuvchi kesmalarda joylashgan to‘rtta suv quduqlaridan olinadi.



**18.11-rasm.** Qatlam bosimlari o‘lchov dalillari bo‘yicha gaz-suv tutash yuzasi qiyaligini aniqlash sxemasi (V.P.Savchenko bo‘yicha): I – suv; II – gaz; III – statik sath; IV – gaz-suv tutash yuzasi; V – qatlam uyumlari uchun qatlam tag qismining proeksiyası.

Shunday yo'l bilan aniqlangan neft-suv va gaz-suv tutash yuzalarining qiyalik qiymatlari uyumlarni aniq konturlash, neft va gaz zaxiralarini hajmiy metod bilan hisoblashda foydalaniadi. Bunda barcha o'lchovlar uyumni o'zlashtirish boshlanmasdan o'tkazilishi kerak. Suv bilan o'ralgan va gazga to'yingan gaz uyumlari zaxiralarini hisoblashda suvda erigan gazlarning bosim pasayishi natijasida ajralib chiqishidan hosil bo'ladigan yashirin zaxiralarini hisoblash mumkin bo'ladi. Bunday zaxiralar Sh imoliy Stavropol konida V.N. Korsenshteyn tomonidan hisoblangan. Konda hosil bo'lgan depressiya zonasidagi suvning hajmini, bosimlar farqini va suvning gazga to'yinganligini o'rganib depressiya voronkasi radiusi 20 km ga teng bo'lgan zonadagi gazning yashirin zaxirasi 10 mlrd. m<sup>3</sup> ligini hisoblab topdi, u uyumni o'zlashtirish boshlanmasdan oldingi zaxiraning 5% ni tashkil qilgan.

V.P. Savchenko gaz uyumidagi *neft hoshiyasi* holatini quyidagicha aniqlashni taklif etdi. Agar gaz-suv tutash yuzasining gipsometrik balandligi aniqlangan bo'lsa va gorizontal holatda deb taxmin qilinsa, u holda neft hoshiyasi tutash yuzasi sathidan yuqorida bo'la olmaydi. Agar qatlamning suvli qismida qatlam bosimi yoki suvning statik sathi ikki martadan o'lchangan yoki gidravlik qiyaliklarda farq borligini ko'rsatsa, u holda neft hoshiyasini gaz uyumining bosimi va statik sathlari minimal qiymatga ega bo'lgan tomonidan kutish lozim. Agar shu tomonda hoshiya uchramasa, demak, uyumda u bo'lmaydi.

### **18.6. Kon-geofizik tadqiqotlarni talqin qilishda gidrogeologik ma'lumotlarning ahamiyati**

Gidrogeologik va geofizik tadqiqotlar o'zaro bog'liq bo'lib, neft va gaz uyumlarini izlash, razvedka qilish, koni o'zlashtirish va undan foydalanishda muhim ahamiyat kasb etadi. Burg'ilash ishlari bajarilgandan so'ng unda karotajlar majmui o'tkaziladi. Olingan geofizik ma'lumotlar kesimda mavjud suvli gorizontlarni ajratish, ularning tavsifini aniqlash imkonini beradi. Gidrogeologik tadqiqotlar esa geofizik materiallarni talqin (interpretatsiya) qilishda yordam beradi. Ayrim kon-geofizik tadqiqotlarni o'tkazishda gidrogeologik dalillarni hisobga olish zarur bo'ladi.

Elektrokarotaj diagrammalarini talqin qilishda suvlarning mineralallanganlik darajasini, ion-tuz va kolloid tarkibini, kesimning turli gorizontlarini ularga to'yinganligini, qatlam-kollektorlarning suv o'tkazuvchanligini, suvto'sar qatlamlarning mavjudligi va litologik tarkibini, ularning suv o'tkazish qobiliyatini va shu kabilami hisobga olish zarur. Ushbu parametrlar jinslar va flyudlarning zohiriy qarshiligi hamda qutblanishi miqdoriga ta'sir etadi.

Jinslarning solishtirma qarshiligidni bilgan holda ularni to'yintirib turgan suvlarning mineralallanganligini aniqlash va suvlarning mineralallanganlik xaritasini tuzish mumkin.

Qatlam suvlaring tarkibida xloridlar ko'p bo'lsa, neft-suv tutash yuzasi holatini aniqlash maqsadida neytron gamma-karotaj o'tkaziladi. Suvda xlor ioni ko'p bo'lsa, suvli qatlam qarshisidagi diagramma egri chizig'i yuqori ko'rsatkichni qayd qiladi. Shu sababli bunday tadqiqotlarni bajarishda suvning gidrokimyoviy ma'lumotlaridan foydalanish zarur. Agar quduqda impulsli neytron-neytron karotaj o'tkazilsa xloridli namakoblar mavjud bo'lgan qatlamlar qarshisida bu metod past ko'rsatkichni ifodalaydi, neftli gorizontlar qarshisida esa yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'ladi. Shunga ko'ra, xloridli suvlar tarqalgan qatlamlarda neytron karotaj metodlaridan foydalaniladigan bo'lsa, bunday komponentlarga e'tibor berish kerak.

Qatlam suvlaring gidrokimyoviy tarkibi radiometrik metodlardan ta'sirlangan faollik metodidan foydalanishda ham hisobga olinadi. Natriyning ta'sirchanlik – faollik metodi yordamida neft-suv tutash yuzasini belgilashda kesimning suvli intervallarida natriy konsentratsiyasining yuqori bo'lishi talab qilinadi. Bu metod tog' jinslari va ma'danlar neytronlar oqimi, gamma-kvantlar yoki zaryadlangan zarralar bilan nurlantirilganda hosil bo'ladigan sun'iy izotoplari faolligini o'chashga asoslangan. Bunda burg' quduqlarida sun'iy natriy (Na), xlor (Cl) izotoplari hosil qilinib, qatlamning suvliligi yoki neftliligi aniqlanadi. Bunday sharoitlarning mavjudligini faqat gidrogeologik ma'lumotlar asosida aniqlash mumkin.

Quduqlarda bajariladigan termometrik kuzatuvlar hamda geofizik tadqiqotlar gidrogeologik (gidrogeotermik) tadqiqotlarga mansub bo'lib, ular birgalikda bajariladi.

## **18.7 Neft-gazsuvli qatlamlarning turli rejimlaridagi gidrogeologik sharoitlar**

Regional gidrogeologik tadqiqotlarni bajarishda neft uyumlarining mumkin bo'lgan rejimlarini bashorat qilish muhim rol o'ynaydi. Neft-gazli rayonlardagi ko'pgina neft uyumlari mavjud bo'lgan qatlam-kollektorlar nafaqat kon maydonida, balki ulardan uzoq masofalardagi yirik hududlar chegarasida tarqalgan bo'lishi mumkin. Shuningdek, qatlamlardagi suyuqliklarning hajmini ortishiga, qatlam bosimining pasayishiga hamda tog' jinslari g'ovaklari, darzliklari, kovaklarining hajmini kamayishi hisobiga qatlamdan suvlaming sirqib chiqib quduqqa kirib kelishi kuzatiladi. Shu sababli neft uyumining rejimini o'rganishda uyum mavjud bo'lgan qatlamning o'lchamini va uning yerosti saqlagichi bilan gidrodinamik bog'liqligini bilish muhim hisoblanadi. Qatlamning cho'ziqligi, tarqalish maydoni, qalinligi, jinslaming fizik xususiyatlari (granulometrik tarkibi, g'ovakliligi, darzligi, o'tkazuvchanligi va sh.k.) va qatlamdagи suvlar zaxirasini hisoblash zarur bo'ladi.

Neft va gaz konlari, odatda, artezian havzalarda bo'ladi. Turli tipdagи neft, gaz va suvlar tabiiy yerosti saqlagichlarida joylashadi. Hozirgi vaqtda ko'pgina tadqiqotchilar nefli qatlamlarning quyidagi rejimlarini ajratadilar:

- 1) suvbosimli rejim;
- 2) elastik rejim;
- 3) gazbosimli rejim (yoki gaz qalpog'i rejimi);
- 4) erigan gaz rejimi;
- 5) gravitatsion rejim.

Gazli qatlamlar uchun gazbosimli va erigan gaz bosimlari o'miga gaz rejimi (yoki kengayuvchi gaz rejimi) ajratiladi, gravitatsion rejim esa umuman ajratilmaydi.

V.N. Shelkachev ikki xil elastik (tarang) rejimni: elastik-suvbosimli va berkelastik rejimlarni ajratadi.

Rejimlarning shakllanishida gidrogeologik sharoitlar muhim rol o'ynaydi. Neft va gaz uyumlari suvbosimli komplekslar va sistemalaming elementlaridan bo'lib, ular bilan o'zaro ta'sirda bo'ladi, shunga ko'ra ushbu komplekslarda mavjud bo'lgan gidrostatik va hidrodinamik bosimlar qatlama energiyasini hosil qiladi. Lekin, suvlarning bosimi ayrim hollarda qatlama bevosita hosil bo'lishi, boshqa hollarda esa bilvosita hosil bo'lishi mumkin. Bulardan tashqari, boshqa energiya manbalari: gaz hosil bo'lishi, jinslarning qayishqoq deformatsiyalanishi va boshqa ayrim omillari ta'sirida yuzaga kelishi mumkin. Bular qatlamdagagi turli rejimlarning tabiiy sharoitlarini yuzaga keltiradi, uyumlarni o'zlashtirishda ular yanada murakkablashadi.

Gidrogeologik nuqtai nazardan neft-gazsuvli qatlamlarning quyidagi rejimlari farqlanadi:

- 1) qattiq-suvbosimli (yoki suvbosimli);
- 2) tarang-suvbosimli;
- 3) gaz rejimi.

Neft va gaz uyumlarining suvbosimli rejimlarida (qattiq-suvbosimli, tarang-suvbosimli) ular suvbosimli komplekslarning suvlari bilan bevosita bog'liq bo'lib, bir-biriga tutashib turadi va bosim bilan ta'sir qiladi. Gaz rejimida esa uyum suv bilan tutasha olmaydi, chunki ular bir-biridan tektonik, litologik yoki boshqa ekran (to'siq)lar bilan ajratilgan bo'ladi, yoki suv bilan tutashgan bo'lsada, suv bosim bilan ta'sir etmaydi. Gaz rejimida asosiy qatlama energiyasi – bu kengayuvchi gaz energiyasidir, u gidrostatik bosim ta'sirida gazning sifilishidan yuzaga keladi.

*Qattiq-suvbosimli rejimda* qatlamdan chiqarib olinadigan neft, gaz va suv o'mi tabiiy ravishda yerosti suv oqimi sarfi hisobiga to'ladi. Bunday rejim, odatda, litologik jihatdan bir tarkibli va maydon bo'ylab o'zgarmaydigan, yuqori darajada o'tkazuvchan qatlamlardagi uyumlarni suv bilan ta'minlanish oblastiga yaqin joylashganida hosil bo'ladi.

*Tarang-suvbosimli rejimda* qatlamdan chiqarib olinadigan neft, gaz va suv o'mi suvbosimli kompleksdagi siqilgan suvlarning kengayishi hisobiga hamda qatlama sizilib kirib kelayotgan suvlar hisobiga to'ladi. Uyumni o'zlashtirishning dastlabki vaqtida bunday kuchlar ko'p bo'ladi, suyuqlik olish ortgani va qatlam bosimi pasaygani sababli, uyumdan uzoqda joylashgan qatlam suvleri ham harakatga keladi, bunday suvlar bosimi neftni qatlamda siljitatigan asosiy kuch hisoblanadi.

*Gaz rejimida* suvlar harakatsiz bo'lib, neft va gaz gazning kengayishi hisobiga chiqarib olinadi. Bunda olingan gaz o'mi qatlamning samarador qismi tomon harakatlanayotgan qatlam suvleri bilan to'lmaydi. Bunday rejim qatlamning samarador qismi suvli qatlamdan qisman yoki butunlay ajralganda paydo bo'ladi. Neft va gaz amaliyotida gaz rejimi kamdan-kam namoyonlanadi.

*Ideal* (juda yaxshi) *suvbosimli rejim* ideal holatlarda paydo bo'ladi. Tarang kuchlar barcha holatlarda yuzaga keladi, shu sababli konni o'zlashtirish doimo uzoq vaqt davomida tarang rejimda amalga oshiriladi.

Tadqiqotchilardan A.L. Kozlov va E.M. Minskiy o'rnini *to'latish koeffitsienti* tushunchasini fanga kiritishdi. O'rnini *to'latish koeffitsienti* deganda ma'lum bir vaqt davomida foydalanilayotgan uyumga kirib kelayotgan suv hajmini, shu vaqt davomida uyumdan chiqarib olinayotgan suyuqlik va gaz (qatlam sharoitida) hajmiga nisbati tushuniladi. O'mini *to'latish koeffitsienti* miqdori birdan (ideal suvbosimli rejimda) nulgacha (gaz rejimida) o'zgaradi. O'mini *to'latish koeffitsientining qiymati* birdan kichik, lekin nuldan katta bo'lsa, suv uyumga tabiiy gidravlik qiyalik hamda tarang kuchlar hisobiga kirib keladi, bunda tarang-suvbosimli rejim yoki qattiq-suvbosimli va tarang rejimlarning aralash rejimi kuzatiladi.

Ideal suvbosimli yoki unga yaqin bo'lgan rejimni (o'mini *to'latish koeffitsienti* birga teng yoki unga yaqin bo'lganda) yerosti suvleri oqimining tabiiy tezligi hamda gidravlik qiyaligi katta, qatlamning suvli qismi bilan uyum oralig'iда suvto'sar jinslar bo'lmagan, yuqori o'tkazuvchan kollektorlar mavjud bo'lgan suvbosimli komplekslarda uchratish mumkin.

Uzoq vaqt davomida namoyonlanadigan tarang-suvbosimli rejimlar quyidagi hollarda bo'lishi mumkin:

- a) tabiiy yerosti suv oqimi tezligi kichik va gidravlik qiyalik kam bo'lganda, kollektorning o'tkazuvchanligi kam bo'lganda;
- b) suvbosimli kompleksning o'lchami katta bo'lmaganda (shuningdek, uyum qatlamning suvli qismidan izolyasiyalanganda).

Gaz rejimi quyidagi hollarda bo'lishi mumkin:

- a) uyumda gaz mavjud bo'lganda (erkin yoki neftda eriganda);
- b) uyum qatlamning suvli qismidan nisbatan izolyasiyalanganda;
- v) yerosti suv oqimi tezligi kam bo'lganda;
- g) suvbosimli kompleks o'lchami kichik bo'lganda (oxirgi ikki shart qatlamning suvli qismidan uyum to'liq izolyasiyalanganda ham ahamiyat kasb etmaydi).

*Gravitatsion rejim* uyumda gaz miqdori kam va suvdan izolyasiyalanganda paydo bo'ladi, bunda neftning og'irlik kuchi asosiy kuch hisoblanadi. Bu kuch neft uyumning suvli qismidan butunlay ajratilganda hamda neftda (erkin yoki erigan) gaz bo'lmaganda paydo bo'ladi. Yuqori o'tkazuvchanlikka ega bo'lgan va juda qiya yotgan qatlamlarda bosimli gravitatsion rejim, kollektorlik xususiyati past va bir oz qiya yotgan erkin sathli nefti bo'lgan qatlamlarda gravitatsion rejim yuzaga keladi. Gravitatsion rejim ko'pincha erigan gaz rejimida ishlayotgan neft uyumini ishlatishning oxirgi bosqichida paydo bo'ladi.

Yuqorida qayd qilinganlardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, cho'kindi yotqiziqlarning turli stratigrafik komplekslarini mufassal gidrogeologik tadqiq qilish orqali razvedka qilinadigan uyumlarning mumkin bo'lgan rejimlarini oldindan bilish mumkin bo'ladi. Yangi o'zlashtirilayotgan rayonlardagi neft uyumlari rejimini to'g'ri bashoratlash mufassal regional gidrogeologik, gidrokimyoiy va geotermik tadqiqotlar o'tkazgandan, strukturalarning tuzilishini va asosiy suvli komplekslarning fatsial-litologik sharoitlarini o'rgangandan so'ng mumkin bo'ladi.

## **18.8 Neft va gaz uyumlarini o'zlashtirish loyihasini tuzishda gidrogeologik ma'lumotlardan foydalanish**

Neft va gaz uyumlarini o'zlashtirish hamda ulardan foydalanish loyihasini tuzishda gidrogeologik dalillar katta ahamiyat kasb etadi. Ulardan mumkin bo'lgan rejimni, tarang zaxirani, o'mini to'ldirish koeffitsientini, neft-gazuvli qatlarning ta'minlanish konturini aniqlashda hamda qatlarga suv bostirish uchun suvlarni tanlashda va boshqa maqsadlarda foydalaniladi.

Izlov ishlarini olib borishda neft-gazuvli qatlamlarning mumkin bo'lgan rejimini neft va gaz uyumlari hamda konlari hali aniqlanmasdan avval bashoratlash mumkin. G.M. Suxarevning yozishicha, Shimoliy-Sharqiy Kavkazda stratigrafik komplekslarni gidrogeologik jihatdan mufassal o'rghanish natijasida razvedka qilinishi kerak bo'lgan asosiy uyumlarning mumkin bo'lgan rejimlari bashorat qilingan.

Gidrogeologik dalillar asosida neft-gazuvli qatlamlarning mumkin bo'lgan rejimlarini bashoratlash uchun suvbosimli sistema va suvbosimli kompleksning hajmini, uning boshqa suvbosimli komplekslar bilan gidravlik aloqasi borligi yoki yo'qligini, bosim hosil bo'lish zonasini va qatlama suvlarini bo'shalish zonasini holatlarini, gidravlik qiyalik miqdorini, qatlarning kollektorlik xususiyatlarini aniqlash zarur.

